4. Кулешова М. Е. Памяти двух десятилетий культурно-ландшафтных исследований // В фокусе наследия: сб. ст., посвящ. 80-летию Ю. А. Веденина и 25-летию создания Рос. науч.-исслед. ин-та культ. и природ. наследия им. Д. С. Лихачева / сост., отв. ред. М. Е. Кулешова. Москва: Ин-т географии РАН, 2017. С. 163–190.
5. Нишанова К. Янги Ўзбекистон музейларидаги бунёдкорлик ишларининг соҳа ривожига тутган ўрни. // San'at. – Тошкент, 2021. – № 2. – Б. 35-38.
6. Орифжонова Г. Ўзбекистон замонавий музейшунослиги муаммолари. // San'at. – Тошкент, 2022. – № 2. – Б. 31-34.
7. Ташева С. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда Шон-шараф музейининг роли. “Science and Education” Science Journal. February 2021/ Volume 2 Issue 2. P. 465-471.
8. <https://shon-sharaf.uz/oz>



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. № S/1 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Нурмуродов Зафаржон Нурмуродович

Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги
Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат бўйича
инспекцияси Қашқадарё вилоят ҳудудий инспекцияси бошлиғи
E-mail: zafargis@umail.uz тел:+998 99 663 84 26

МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТ ОРГАНЛАРИНИ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШ

Аннотация: Мақолада маҳаллий давлат ҳокимият фаолиятини рақамлаштириш орқали улар томонидан чиқариладиган қарорлар «Э-қарор» электрон тизими орқали тайёрлаб, қабул қилиш амалиёти йўлга қўйилиши масаласи ёритилган. Бугунги кунда фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари ҳимоя қилинишини, маҳаллий давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолияти очиқлигини, жамоат ва парламент назоратини таъминлаш механизмлари такомиллаштирилиши долзарб масалалардан бири сифатида белгиланди.

Калит сўзлар: маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, коррупцияга қарши курашиш соҳаси, Тартибга солиш гилотинаси, шаффофлик, норматив ҳуқуқий ҳужжатлар, қарорлар.

Нурмуродов Зафаржон Нурмуродович

Начальник Кашкадарьинской областной инспекции Инспекции
по контролю в сфере информатизации и телекоммуникаций
при Министерстве цифровых технологий Республики Узбекистан
E-mail: zafargis@umail.uz тел:+998 99 663 84 26

ЗАПУСК УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕСТНЫХ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы цифровизации деятельности органов местного самоуправления и практики подготовки и принятия решений через электронную систему «Электронное решение». Одним из наиболее актуальных вопросов сегодня является защита прав и интересов граждан, прозрачность местного самоуправления, совершенствование механизмов общественного и парламентского контроля.

Ключевые слова: местное самоуправление, противодействие коррупции, регуляторная гильотина, прозрачность, нормативные акты, решения.

Nurmurodov Zafarjon Nurmurodovich

Head of the Kashkadarya Regional Inspectorate of the
information and telecommunications Supervision Inspectorate under
the Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan
E-mail: zafargis@umail.uz Tel:+998 99 663 84 26

LAUNCHING THE ADMINISTRATION ACTIVITY OF LOCAL STATE AUTHORITY BODIES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Abstract: The article deals with the issue of digitalization of local government activities and the practice of preparing and making decisions through their electronic system "E-decision". One of the most pressing issues today is the protection of the rights and interests of citizens, the transparency of local government and public administration, and the improvement of mechanisms for public and parliamentary oversight.

Keywords: local government, anti-corruption, regulatory guillotine, transparency, regulations, decisions.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N03>

Дунёнинг ривожланган мамлакатларида замонавий менежмент тез ўзгариб бориши ҳамда анъанавий шакллардан рақамли шаклларга ўтиши янги бошқарув фаолиятининг вужудга келишини кўрсатиб бермоқда. 2022 йилда глобал тармоқ инфратузилмаси бутун дунё бўйича 189 млрд. АҚШ долларидан ортиқ даромад келтирди. Соҳани рақамлаштириш бўйича энг кўп даромад Хитой давлатига (42,9 млрд АҚШ доллари) тегишли бўлиб, кейинги ўринларда АҚШ ва Япония эгаллайди. Барча мамлакатлар 2023 йилда даромади ўтган йилларга нисбатан ўсиши кутилмоқда.

Маҳаллий бошқарув органларида янги технологияларнинг жорий этилиши ҳамда кадрлар салоҳиятига алоҳида эътибор қаратилиши соҳалар бўйича бошқарув интеграцияси, инновацияси ҳамда ишлаб чиқаришни рақамлаштириш имкониятини белгилаб беради. Аммо, турли даражадаги объектив ва субъектив омилларнинг таъсири натижасида, глобал Covid-19 пандемияси, иқтисодий инқирозларнинг дунё бўйича кенг тарқалиши бошқарув тизимида бир қатор баҳсли вазиятларни яъни давлат, маҳаллий ҳокимият, корхона ва ташкилотларни бошқаришдаги муаммоли вазиятларнинг юзага келишига олиб келмоқда. Шу боис, замонавий тизимга эга ривожланган мамлакатларда дифференциялашган рақамлаштириш тизимининг жорий этилиши соҳани бошқаришда бу усулдан фойдаланиш, тизимни ривожлантириш, замонавий технологияларни қўллаш, мавжуд муаммоларни бартараф этиш, замонавий бошқарув тизимини жорий этишга кенг эътибор қаратилишига замин яратилмоқда.

Глобаллашув шароитида аҳоли сонининг кўпайиши натижасида дунё мамлакатлари бўйича иқтисодиётни тўлиқ рақамлаштириш дунё ҳамжамияти ичида ўз бошқарув услубига эга давлатлар рақамли тенденциялар асосида барча жамоат ташкилотларини тизимлаштириш имкониятини яратиб беришмоқда. Рақамлаштириш жараёнида ахборот хавфсизлиги технологиялари бозори келгуси бир неча йил ичида ўсиши кутилмоқда. Бинобарин 2024 йилда ахборот хавфсизлиги бўйича жаҳон миқёсидаги харажатлар 2017 йилга нисбатан икки баравар кўп бўлиши кутилмоқда. Шу сабабли, дунё мамлакатлари рақамлаштириш тизимида ислохотларни амалга оширишда салоҳиятли кадрларни тайёрлаш, янги технологияларни ўзлаштириш, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларини молиялаштиришни тизимни таъминлаш ҳамда мустақил амалга ошириш глобал кўламдаги долзарб масалалардан ҳисобланади.

Янги Ўзбекистоннинг асосий стратегияларидан бири сифатида қаралаётган маҳаллий ҳокимият органларини рақамлаштиришдаги сўнгги йиллар ичида изчил амалга оширилаётган ислохотлар натижасида бошқарув фаолиятининг тубдан яхшиланишига олиб келинмоқда. Маҳаллий ҳокимият органларини рақамлаштириш ҳар томонлама ривожлантириш билан бир қаторда иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлаш, самарали бандлик ва аҳоли турмуш даражасини оширишнинг долзарб масаласи бўлиб ҳисобланади. Мамлакатимиз бўйича 2022 йилда

кўрсатилган бозор хизматлари умумий ҳажмини ўсишининг асосий омили молиявий хизматларнинг 29,6 % га ўсиши (кўрсатилган хизматлар умумий ҳажмининг ўсишига қўшган ҳиссаси 6,4 пункт), транспорт хизматлари – 11,9 % га (ўсишга қўшган ҳиссаси 2,8 пункт), савдо хизматлари – 8,2 % га (ўсишга қўшган ҳиссаси 2,1 пункт), алоқа ва ахборотлаштириш хизматлари – 24,1 % (оширишга қўшган ҳиссаси 1,5 пункт), бошқа хизматлар – 13,7 % (оширишга қўшган ҳиссаси 0,5 пункт), таълим хизматлари – 12,1 % (оширишга қўшган ҳиссаси 0,5 пункт), шунингдек, яшаш ва овқатланиш хизматлари – 15,3 % га, кўрсатилган хизматларнинг умумий ҳажмининг ўсишига қўшган ҳиссаси 0,4 пунктни ташкил этди.[1] Шунингдек, маҳаллий бошқарув тизимига инновацион технологияларни жорий этиш, соҳага замонавий бошқарув усуллари тadbiq этиш, илм-фан ишлаб чиқариш интеграциясини амалга ошириш, кадрлар салоҳиятини юксалтириш, меҳнат бозорини рақобатбардош кадрлар билан таъминлаш даражасини, илмий тадқиқот ишларининг самарадорлигини ошириш, соҳада фаолият олиб бораётган тизимнинг давлат маъмурий бошқарувини кескин камайтириш ҳамда шу орқали ўзгарувчан меҳнат бозори талабларига жавоб бера оладиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш ҳамда республикамизнинг рақамлаштириш тизимини ривожлантириш ва бозор механизмларини жорий этишни талаб қилади. Шу сабабли, бугунги кунда мамлакатимизда маҳаллий бошқарув органларида рақамлаштириш тизимида янги замонавий йўналишларни ташкил этиш, соҳани янги ривожланиш босқичига олиб чиқувчи омил сифатида эътироф этишимиз ҳамда замонавий технологияларни жорий этиш ва уларни самарали бошқариш йўналишида илмий-тадқиқот ишларини амалга ошириш бугунги кундаги долзарб масалалардан ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасида маҳаллий давлат ҳокимияти фаолиятини ташкил этишнинг асосий қоидалари Конституцияда белгилаб қўйилган. Олий ҳокимият органлари фаолиятини ташкил этиш каби маҳаллий давлат ҳокимиятини ташкил этишда ҳам Конституцияда белгилаб қўйилган асосий қоидаларга асосланиш жуда муҳимдир.[2] Чунки айнан маҳаллий ҳокимият бевосита қонунлар ва ижро этувчи ҳокимият норматив ҳужжатларини амалга оширади, бевосита жамиятнинг турли соҳаларидаги муаммолар билан тўқнашади. Шунинг учун маҳаллий давлат ҳокимияти халқ фаровонлигини таъминлаш ва шу каби давлат олдида турган муҳим вазифаларни бажаришда асосий ўрин тутди. Ўзбекистон Республикаси дунё тажрибасидан келиб чиққан ҳолда ўзига хос тарзда жойларда давлат ҳокимиятини амалга ошириш механизмини яратди.

Кейинги йилларда мамлакатимизда коррупцияга қарши курашиш соҳасида муҳим ташкилий-ҳуқуқий ислоҳотлар амалга оширилди. Аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини оширишга, жамиятда коррупцияга муросасиз муносабатни шакллантиришга йўналтирилган тизимли чоралар кўрилди. Ислоҳотларни амалга ошириш доирасида фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари ҳимоя қилинишини, маҳаллий давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолияти очиқлигини, жамоат ва парламент назоратини таъминлаш механизмлари такомиллаштирилди, шунингдек, ҳуқуқни муҳофаза қилиш ва суд органлари фаолиятининг ҳуқуқий асослари ислоҳ қилинди. Шу билан бирга, иқтисодиётни янада ўстириш, халқ фаровонлигини ошириш, мамлакатда инвестиция муҳитини яхшилаш борасидаги стратегик вазифаларни ҳал

этиш коррупцияга қарши курашиш соҳасида давлат сиёсатининг самарали амалга оширилишини таъминлаш ҳамда коррупция кўринишларининг сабаб ва шарт шароитларини бартараф этиш бўйича янги тизимли чоралар кўрилишини тақозо қилмоқда. Сир эмас, барча соҳаларни ислоҳ қилишга қаратилган дастурларни амалга ошириш қонун ҳужжатлари сонининг янада ортишига олиб келди. Ҳужжатларининг кўплиги, тарқоқлиги амалиётда уларни тушунишни қийинлаштириб, ҳуқуқий тафовут ва ҳаддан ташқари тартибга солиш ва бюрократияга замин яратмоқда.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили ва методлар. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг “2020 йил 29 декабр куни Олий Мажлисга мурожаатномаси” методологик манба сифатида фойдаланилди. Мазкур мақолани таҳлил қилиш жараёнида илмий билишнинг тарихийлик, мантиқийлик, анализ, синтез ва обективлик усулидан фойдаланилди. Мазкур тадқиқот жараёнида маҳаллий давлат ҳокимияти органларида бошқарув қарорларини рақамлаштириш жиҳатлари объектив очиб берилди.[3]

Мамлакатимизда ҳуқуқ ижодкорлиги фаолияти сифатини тубдан оширишга, қабул қилинаётган қонун ҳужжатларининг амалга оширилаётган ислохотлар жараёнига таъсирини кучайтиришга қаратилган кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августдаги ПФ-5505-сон «Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепсиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони билан «Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш КОНСЕПЦИЯСИ» ҳамда 3-Илова билан «Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини амалга ошириш бўйича комиссия ТАРКИБИ» тасдиқланган.

Фармон билан Комиссияга бир қатор вазифалар белгиланган. Жумладан, икки ой муддатда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар нормаларини юқори юридик кучга эга бўлган қонун ҳужжатларига ўтказиш ва «тартибга солиш гилотинаси» усулини қўллаш орқали қолган ҳужжатларни, шу жумладан, қонунчиликни тизимлаштириш доирасида ҳар бир идоранинг ваколатини босқичма-босқич камайитириш ва бекор қилишни назарда тутувчи, улар томонидан қабул қилинаётган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг аниқ рўйхатини белгилаш бўйича таклиф кириш. Шунингдек, Концепция билан Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги билан биргаликда 2019 йил 1 январга қадар қуйидагиларни таъминлаш белгиланган:

- Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳасини ишлаб чиқиш ва келишишнинг ягона электрон тизимини ишлаб чиқиш ва синов тариқасида ишга тушириш, бунда: норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳасини ишлаб чиқиш ва келишиш жараёнини бошқариш ва назорат қилиш, шу жумладан, масъул идоралар, бошқа органлар ва ташкилотлар томонидан лойиҳаларга электрон кўринишдаги виза қўйишни амалга ошириш; норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини кўриб чиқиш ва келишиш бўйича идоралараро электрон ҳамкорликни, шунингдек, уларни ишлаб чиқиш жараёни мониторинг қилинишини таъминлаш; лойиҳаларни жамоатчилик ва касбий доирада муҳокама қилиш, шу жумладан, фойда, харажат ва кутилаётган натижалар таҳлилинини ҳамда уларнинг жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ва манфаатларига,

ижтимоий соҳага, тадбиркорлик фаолиятига, атроф-муҳит ҳолатига таъсирини, шунингдек, юзага келиши мумкин бўлган оқибатларни баҳолаш имконини яратиш.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабр куни Олий Мажлисга мурожаатномаларида «оҳирги икки йилда ҳокимларнинг 2,5 мингга яқин қарори судлар томонидан бекор қилингани бундан буён уларнинг қарор қабул қилишида очиқликни таъминлаш зарурлигини тақозо этмоқдалиги, шунинг учун маҳаллий давлат ҳокимияти идораларининг қарорларини ҳисобга қўйиш ва эълон қилиш бўйича электрон ахборот тизими жорий этилиши» таъкидланган. Шунингдек, «Тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ 5 мингга яқин норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қайта кўриб чиқилиб, уларнинг сони қисқартирилади ҳамда Тадбиркорлик кодекси ишлаб чиқилиши» таъкидланган.[3]

Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан фуқаролар ва кенг жамоатчиликни ахборот билан таъминлаш борасида амалга ошириладиган ислохотлар, жумладан янги қонун ҳужжатларини қабул қилиш, мавжуд қонунларга қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш, жойларда яратилаётган ахборот-коммуникация технологияларини такомиллаштиришга қарамасдан кўп маълумот ва ахборотлар аҳолига етказилмасдан ёпиқлигича қолмоқда. Бу вилоят, туман ва шаҳар ҳокимликларнинг жамоатчилик билан бўладиган мносабатларига салбий таъсир кўрсатади. Ўз навбатида бу ҳол ижтимоий-маиший муаммоларни оператив тарзда бартараф этиш, шунингдек, ушбу органлар фаолияти устидан жамоат назоратини ўрнатиш имконини бермайди.

Қонун ҳужжатларининг кўплиги нафақат аҳоли, юридик шахслар, балки ҳуқуқни қўлловчи давлат хизматчиларининг ўзларига ҳам ноқулайлик туғдиради. Ҳозирги кунда маҳаллий давлат ҳокимият органлари томонидан қарорлар қабул қилишда қуйидаги муаммоларни санаб ўтиш мумкин:

Биринчидан, Маҳаллий давлат ҳокимият органлари томонидан қарорлар қабул қилишда ягона ёндашув мавжуд эмаслиги ва мураккаблиги;

Иккинчидан, Очиқлиги ва шаффофлиги таъминланмаганлиги;

Учинчидан, Қонунийликни таъминлаш ва назорат қилишда АКТ ечимларидан фойдаланилмаганлиги;

Тўртинчидан, Маҳаллий давлат ҳокимият органлари томонидан қарорлар қабул қилишда таҳлил қилиш учун объектив маълумотларнинг мавжуд эмаслиги;

Бешинчидан, Маҳаллий давлат ҳокимият органлари томонидан қарорлар қабул қилишда ортиқча вақт ва қоғоз сарфи. Жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатларига путур этказилиши, давлат ҳокимияти идораларига нисбатан фуқароларнинг ишончи пасайишига олиб келмоқда ҳамда ноқонуний қабул қилинган қарорларни ҳуқуқни муҳофаза қилувчи, прокуратура ва суд органлари томонидан бекор қилинишига олиб келмоқда. Адлия органларининг тақдимномаларига асосан маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг 2019 йилда 1 752 та, 2020 йилда 1 370 та қарор ва фармойишлари бекор қилинган.

Хулоса ва таклифлар. «E-qaror» электрон тизими қуйидаги афзалликларга эга:

Биринчидан, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қарори, фармойиши ва кенгаш қарорларини яратиш, манфаатдор идоралар билан келишиш, ҳуқуқий

экспертизага киритиш ва расман нашр этишни ягона манзилдан туриб амалга оширилади;

Иккинчидан, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қарори, фармойиши ва кенгаш қарорларини ишлаб чиқиш ва қабул қилишда шаффофликни таъминланган ҳолда, тадбиркорларга бизнес жараёнларини тезроқ амалга ошириш имокниятини беради;

Учинчидан, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қарори, фармойиши ва кенгаш қарорларини ишлаб чиқишда Ўзбекистон Республикаси бўйича бир хилликни таъминланади;

Тўртинчидан, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қарори, фармойиши ва кенгаш қарорларини ишлаб чиқиш ва қабул қилишда инсон омилини камайтириш, қабул қилинган ҳужжатлар билан Интренет тармоғида танишиш имкониятини беради;

Бешинчидан, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг қарорларини қабул қилиш жараёнида муддатларни қисқаради;

Олтинчидан, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қарори, фармойиши ва кенгаш қарорларини ишлаб чиқиш ва қабул қилишда, маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллари томонидан хизмат вазифасини суиистеъмол қилиш(коррупция)га қарши курашиш ва олдини олиш;

Еттинчидан, фуқароларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилиш. «Е-қағоғ» электрон тизимини Республикаимизнинг барча ҳокимликларида жорий этиш орқали фуқароларимизнинг маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятида қарори, фармойиши ва кенгаш қарорларини ишлаб чиқиш ва қабул қилишда шаффофлик таъминланади, шунингдек тадбиркорлик субъектлари учун асоссиз ҳаражатлар қилишга олиб келувчи ортиқча маъмурий чекловларни жорий этадиган қоидалар ва нормалар ўрнатилиши олди олинади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси маълумотлари 2022 йил.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. <https://lex.uz/docs/20596>;
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрь куни Олий Мажлисга мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
4. Адлия вазирлиги. Жамоатчилик билан алоқалар бўлими. «Маҳаллий давлат ҳокимияти органларини қарорларининг ҳуқуқий экспертизаси: амалиёт ва муаммолар». <https://huquqiportal.uz/news/2021/01/07/mahalliy-davlat-hokimiyati-organlari-qarorlarining-huquqiy-ekspertizasi-amaliyot-va-muammolar/971>;
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 февралдаги ПФ-6155-сон «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5260791>;
6. Адлия вазирлигининг масъул ходими Худоёр Мелиев. «Тартибга солиш гильотинаси: қонунчиликда нимани сақлаб қолиш ва нимадан воз кечиш керак». <https://huquqiportal.uz/news/2020/09/24/tartibga-solish-gilotinasi-qonunchilikda-nimani-saqlab-qolish-va-nimadan-voz-kechish-kerak/674>;

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августдаги ПФ-5505-сон «Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони. <https://lex.uz/docs/3858817>;
8. Адлия вазирлигининг Маъмурий тартиб-таомилларни такомиллаштириш ва мониторингини юритиш бошқармаси бошлиғи. Б.АЗИЗОВ. «Қонун ҳужжатлари таъсирини баҳолаш: хориж ва Ўзбекистон тажрибаси». <http://hudud24.uz/%D2%9Bonun-%D2%B3ujjatlari-tasirini-ba%D2%B3olash-horij-va-%D1%9Ezbekiston-tajribasi/>;
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 апрелдаги 218-сон «Маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари томонидан қабул қилинадиган қарорларни ишлаб чиқиш, келишиш ва рўйхатдан ўтказишнинг ягона электрон тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. <https://lex.uz/docs/478764>



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. № S/1 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Жаббарова Чарос Аминовна
Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси хузуридаги
Фискал институт таянч докторанти

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МОЛЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШ ЗАРУРИЯТИ

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасида молявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш зарурияти ва ўзига хос хусусиятлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: мажбурият, Молявий Ҳисоботнинг Халқаро Стандартлари (МХҲС), жорий мажбуриятлар, узоқ муддатли мажбуриятлар.

Жаббарова Чарос Аминовна
Базовый докторант фискального института при
Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан

НЕОБХОДИМОСТЬ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В данной статье освещена необходимость и специфика перехода на международные стандарты финансовой отчетности в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: обязательство, международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), текущие обязательства, долгосрочные обязательства.

Jabbarova Charos Aminovna
Basic doctoral student of the Fiscal Institute under
the State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan

THE NEED TO SWITCH TO INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article highlights the need and specifics of the transition to international financial reporting standards in the Republic of Uzbekistan.

Key words: obligation, International Financial Reporting Standards (IFRS), current liabilities, long-term liabilities.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N04>

XX асрнинг 90-йиллари Ўзбекистонда биринчи навбатда иқтисодий муносабатларни тартибга солиш соҳасида инқилоб бўлди. Ушбу ўзгаришлар фуқаролик қонунчилигига, солиқлар ва йиғимлар тўғрисидаги қонунчиликка ва бухгалтерия ҳисоби соҳасидаги қоидаларга таъсир кўрсатди. Иқтисодиётдаги босқичма-босқич амалга оширилаётган ўзгаришлар, бошқарувнинг бозор механизмларининг шаклланиши ва ривожланиши мамлакат иқтисодий ҳаётининг ҳуқуқий асосидаги ўзгаришларга асосланади.

Ҳозирда мамлакатимизда замонавий ёндашувлар асосида хўжаликлар мажбуриятлари ҳолати ва уларнинг таркиби бухгалтерия ҳисобини халқаро талаблардан келиб чиқиб такомиллаштириш зарурати молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲХС)нинг татбиқ этилиши асносида ҳисобнинг ягона усулларини қўллаш орқали компанияларни ички бошқарув тизимини такомиллаштириш, манфаатдор томонларга корхонанинг молиявий ҳолати тўғрисида маълумот бериш ва компаниянинг рақобатбардошлигини ошириш имкони билан асосланади. Бугунги кунда Ўзбекистонда молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини жаҳон андозалари даражасига чиқаришнинг ягона йўли бу молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини ва илғор хорижий тажрибаларни, соҳага доир жаҳон адабиётлари ва ҳужжатларини ўрганиш ҳамда уларни мамлакатимиз иқтисодиётининг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда жорий қилишдан иборатдир. Бу йўл энг долзарб ва ўта муҳим йўлдир. Бундан бошқа йўл ҳам бўлиши мумкин эмас. Бу йўлдан оғишмай ҳаракат қилишимиз керак[1].

Компанияларнинг халқаро бозорларга чиқиши, шунингдек, салоҳиятли инвесторларни жалб қилишида МҲХСга мувофиқ молиявий ҳисобот тайёрлаш муҳим аҳамият касб этади ва у ҳаётини заруратга айланиб бормоқда.

МҲХСни қабул қилиш ва унга мувофиқ ҳисобот тақдим этиш глобал бозорда ягона молиявий ахборот алмашиш муҳитини яратади. Бу жараён ўз навбатида, ахборот шаффофлиги, ҳисобдорлик ва иқтисодий самарадорликнинг ошишига хизмат қилади. Шунингдек, МҲХС қўлланиши бозор ликвидлиги яхшиланиши, капитал бозорларининг ривожланиши, қимматли қоғозлар бозорларида савдолар кўламининг кенгайиши, хорижий инвестицияларнинг миллий бозорга кириб келиши ва инвесторларни ҳимоя қилишнинг такомиллашишига олиб келади. Шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, ушбу ижобий натижаларга эришиш учун МҲХСни миллий бозорда самарали татбиқ этиш чоратадбирларни амалга ошириш лозим бўлади.

МҲХСни татбиқ этиш бўйича Европа давлатларининг тажрибасини ўрганиш ва ушбу жараёндаги муаммолар ва истиқболларни адолатли баҳолаш Ўзбекистондаги компанияларнинг МҲХСга мувофиқ бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисобот тузиш жараёнига ўтиш даврида катта имконият ҳисобланади.

БҲМС қачонлардир МҲХСнинг асос бўладиган қоидаларига риоя қилиш шарти билан ёзилган. Ҳисоботлар тўплами, фаолиятнинг узлуксизлиги тамойиллари, ҳисоблаш усули ва касса усулини қўллаш тартиби, молиявий фаолият тўғрисидаги ҳисоботни (баланс) активлар, мажбуриятлар ва хусусий капиталга ажратиш ва умуман халқаро ҳисоб асосланган кўплаб бошқалар миллий стандартларда ҳам мавжуд. Бироқ вақт ўтиши билан БҲМС фискал тус олди ва бугунги кунда кўп даражада солиқ ҳисоботи учун ахборотни таъминлайдиган стандартларга айланган. Бунда улар инвесторлар,

мулкдорлар ва халқаро молия институтларига компаниянинг молиявий ҳолати тўғрисида реал тасаввурни бермайди[2].

Айнан шунинг учун БҲМСда МҲХСни такрорловчи нормалар мавжуд, бироқ бу “фаол эмас” ҳисобланади. Уларни шунчаки БҲМС ва солиқ ҳисоби шароитида амалга ошириб бўлмайди.

Масалан, 2-сон БҲМС “Асосий хўжалик фаолиятдан тушган даромадлар” 1998 йилда тасдиқланган, унга ўзгартиришлар киритилмаган. Ундан битта оддий сабабга кўра бухгалтерия ҳисобида деярли фойдаланилмайди: тушумни тан олишда бизда бошланғич ҳужжат - ҳисобварақ-фактура биринчи галдаги ҳисобланади, у билан ишлаш тартибини солиқ қонунчилиги қатъий регламентлайди. Бундай шароитларда 2-сон БҲМС шартларини бажаришнинг ҳар доим ҳам имконияти йўқ. Айнан шунинг учун уларнинг орасида моҳиятига кўра МҲХС қоидаларига яқин бўлган нормалар бўлишига қарамай, унинг нормалари қўлланилмаяпти.

2-сон БҲМСда даромад мавжудлиги ҳолатини аниқлаш битим шартларини бажариш, бундай битим бўйича тўлов тартиби ёки профессионал мулоҳаза, баҳолаш ёки дисконтланган қиймат ҳисоб-китоби тартиби асосига қурилади. Бунда бу масалада тасдиқланган ҳисобварақ-фактура энг муҳим ҳужжат бўлиши шarti мавжуд эмас. Ҳозир бу бизнинг бухгалтеримизнинг миясига қаттиқ ўрнашиб қолган: “бўнак - 10 кунига қадар ҳисобварақ-фактура - тушум - тўлов”.

Глобал даврда хўжалик юритувчи субъектларининг макроиктисодий ва мезоиктисодий маконга қўшилиши миллий бухгалтерия стандартларини қўллайдиган тижорат ташкилотларининг бухгалтерия (молиявий) ҳисобот маълумотлари билан боғлиқ бир қатор муҳим масалаларни биринчи ўринга чиқаради, хусусан:

- бухгалтерия (молиявий) жадвалларидаги ошкор ахборот сифати;
- саноат ихтисослашуви периметри ошкор маълумотларини таққослаш;
- тижорат ташкилотларининг мол-мулкни ва уларни шакллантириш манбаларини баҳолаш ва тақдим этиш;
- миллий бухгалтерия стандартларини халқаро молиявий ҳисобот стандартларига мослаштириш[3].

Тижорат ташкилотлари томонидан бухгалтерия (молиявий) ҳисоботларни тақдим этишнинг амалдаги талабларига мувофиқ, асосий жиҳатлардан бири эса ташкилот мулкни шакллантириш манбалари тўғрисидаги маълумотлар, хусусан, хўжалик юритувчи субъектнинг давлат, юридик ва жисмоний шахслар олдидаги мажбуриятлари тўғрисидаги маълумотлардир.

Бухгалтерия ҳисоби ривожланишининг ҳозирги босқичида, стандартларнинг ички тизимини ислоҳ қилиш ва уларнинг халқаро стандартлар билан яқинлашиши жараёни тижорат ташкилотларининг мажбуриятлари билан боғлиқ бир қатор масалалар ҳал қилинмаганлигини кўрсатади. Хусусан, бухгалтерия (молиявий) ҳисоботларида мажбуриятлар тўғрисидаги маълумотларни тақдим этиш соҳасида ягона терминологик макон йўқлиги билан бир қаторда, ижтимоий ва экологик мажбуриятлар, тугатиш мажбуриятлари каби молиявий бўлмаган мажбуриятларнинг муҳим турлари тўғрисидаги маълумотларни тан олиш, баҳолаш, ҳисобга олиш ва ошкор қилишнинг аниқ методологияси мавжуд эмас. Бизнингча, манфаатдор томонлар позициясига мос келишини таъминлаш учун халқаро молиявий ҳисобот стандартлари

қўллайдиган тижорат ташкилотларининг молиявий ва молиявий бўлмаган мажбуриятлари тўғрисидаги маълумотларни бухгалтерия (молиявий) ҳисоботларида тақдим этиш бўйича назарий, услубий ва амалий тавсияларни ишлаб чиқиш ва асослаш орқали бухгалтерия ҳисоботларида мажбуриятларнинг ишончли ва шаффоф акс этишига эришиш лозим.

Шунингдек, МҲХСга ўтиш натижасида эришиладиган амалий афзалликлар қуйидагилар билан ҳам белгиланади[4]:

- активларни баҳолашнинг бозор механизмлари – амалда активлар ва мажбуриятларнинг дастлабки қиймати ва унинг жорий бозор қийматидан фойдаланиш инвестор учун ҳам ташкилотнинг ўзи учун ҳам самарали қарорлар қабул қилишга ёрдам беради;

- молиявий инструментларни қўллаш қулайлиги – МҲХС ҳужжатлари замонавий бизнес йўналишлари ва операцияларни акс эттириш усуллари етарли даражада тез-тез қайта кўриб чиқилиши мамлакатда молиявий инструментлардан фойдаланиш имкониятларини оширади;

- активлар қадрсизланишини ўз вақтида акс эттириш – амалдаги ҳисоб стандартлари активлар қадрсизланиши rischi бўйича чоралар кўришни талаб этмайди. Натижада йирик компанияларда активлар суммасининг ошириб кўрсатилиш riskини юзага келтиради. МҲХС стандартлари бундай riskларнинг олди олиниши учун зарурий талабларни қўяди;

- шартли актив ва баҳоланган мажбуриятлар бўйича аниқ кўрсатмалар – фойдаланувчилар тўғри қарор қабул қилишлари учун нафақат ҳужжатларга асосланган операциялар тўғрисидаги ахборот, балки келажакда содир бўлиши мумкин бўлган ҳодисалар оқибатини жорий ҳисоботларда акс эттириш ҳам муҳим аҳамият касб этади;

- консолидациялашган молиявий ҳисоботлар тузиш – кўпчилик йирик компаниялар ўзининг таркибига кирувчи корхоналарни ҳисобга олган ҳолда жамлама ҳисоботларни тузмокда, лекин уларни тузишда замонавий консолидациялаш механизмларини ҳисобга олмаслиги, ушбу компаниялар гуруҳининг ҳақиқий аҳволи кўринмай қолишига сабаб бўлмокда. МҲХС бўйича консолидациялашган ҳисобот молиявий ҳисоботнинг алоҳида махсус таркибий қисми ҳисобланади ва унга нисбатан махсус талаблар мавжуд.

Мухтасар айтганда, МҲХСга ўтиш ва МҲХСни белгиланган ташкилотлар томонидан муваффақиятли татбиқ этиш нафақат компания истиқболини таъминлайди, балки бутун иқтисодиёт тармоқлари ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. Бунинг амалга ошириш учун олдимизда турган вазифалар ва қийинчиликларни самарали ва белгиланган муддатларда ҳал этилиши лозим.

Шуни унутмаслик керакки, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишда қийинчиликлар бўлиши табиий ҳолат. Масалан, МҲХСга ўтишда ташкилот - ҳам ички, ҳам умумий қонунчилик шароитининг МҲХСни жорий этиш учун тайёр эмаслигида акс этувчи катта муаммоларга дуч келишини тушуниши зарур.

Агар ички омиллар ҳақида гапирилса, бу – айти пайтда тайёрланган мутахассисларнинг мавжуд эмаслиги ёки кам сонлилиги. Ҳатто улар мавжуд бўлган тақдирда - бундай мутахассисларда, қоидага биноан, профессионал мулоҳазани

ифодалашда етарли тажрибанинг мавжуд эмаслиги, бу ҳисоботни тайёрлаш жараёнини қийинлаштиради.

Трансформация ёки ҳисобга қўйиш жуда кам сонли экспертлар - аудиторлар, IT мутахассислар ва дастурий таъминотга катта сарфлар билан боғланган.

Корхона ичида молия хизмати уларнинг базасида операцияларни ҳисобга олиши учун янги жараёнлар ва ички ҳужжатларни шакллантириш зарур бўлади. МҲХС қоидалари бўйича ҳужжатлар эмас, балки ҳолатлар муҳимлиги бизнинг ёдимизда. Молия хизматлари эса ишлаб чиқаришни ҳар куни кўришмайди ва ҳамкор хизматлар уларни айтмаса, ҳолатларни билмасликлари мумкин.

Ташқи омилларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

– МҲХСни жорий этиш механизмининг аниқ норматив базаси мавжуд эмас. Ушбу жараён регулятор НҲҲда акс эттирадиган “битта ибора” даражасида ишлайди. Ва барча қолган ҳамжамият бу қандай ўтказилишини топишга ҳаракат қилади;

– ҳозирча ҳамма стандартлар ҳам ўзбек тилига таржима қилинмаган. Улар ҳали НҲҲ сифатида тасдиқланмаган. Бунда русча ва инглизча сўзлашадиган бухгалтерлар республикада камчилик. Умуман МҲХС ҳисоботини давлат органларига тақдим этиш талабини барча стандартлар ўзбек тилига таржима қилиниши, уларни ЎзР ҳудудида қўллаш имконияти ва солиқ, бухгалтерия ва ҳатто фуқаролик қонунчилиги нормаларига тегишли тузатишлар киритиш мақсадида экспертизадан ўтказилиши лозим;

– бухгалтерлик касбига ўқитиш тизими тармоқланганлигига қарамай, у ёки бошқа нормаларни қўллашнинг аниқ муаммоларини муҳокама қилиш мумкин бўлган мустаҳкам профессионал ҳамжамиятнинг шаклланиши учун ҳудудда МҲХСни қўллаш амалиёти кам аҳамиятли бўлган. Агар БҲМС ёки солиқ қонунчилиги бўйича бундай амалиёт қўламдор бўлса, МҲХС бўйича бизнинг қонунчилигимиз шароитларида қўлланиладиган ахборот ниҳоятда кам ва бухгалтер маслаҳатчилар ва аудиторлардан ташқари ҳеч кимга мурожаат қилишолмайди. Уларни танлаш ҳам етарлича мураккаб. Сертификатнинг мавжудлиги эксперт етарлича малакали эканлигини англатмайди;

– масалаларни солиқ солиш ва МҲХС бўйича ҳисоботнинг бир-бирига боғлиқлиги бўйича ҳал қилиш бўйича қўлланма мавжуд эмас.

Барча мамлакатлар МҲХСни жорий этишда қийинчиликларга дуч келишган. Уларни тажрибасини ҳисобга олиш ва бу йўналишда оқилона ишни бошлаш зарур. Масалан, кўп мамлакатларда МҲХСни жорий этиш учун таянч Молия вазирлиги эмас, балки МҲХСҚ билан битимлар тузган ва қўлланмалар ва тушунтиришлар чиқарган, корхоналарга амалий ёрдам берган нотижорат ташкилотлар бўлган.

Мақсадимиз қийинчиликларни енгиллаштиришнинг мақбул вариантларини қўллаган холда кўзланган ижобий натижага эришиш ҳисобланади.

Жаҳон амалиётида МҲХСга ўтишнинг сўнгги йилларида қуйидаги ижобий жиҳатларга эришилганини кузатиш мумкин:

- Ахборот шаффофлигининг ошиши – шаффофлик кўрсаткичи айниқса ташқи фойдаланувчилар учун сифатли молиявий ахборотни таъминлайди. Бунинг натижасида инвесторлар ёки бошқа бозор қатнашчилари етарлича асосланган иқтисодий қарорлар қабул қилишга эришади.

- Ҳисобдорлик ошиши – бу хусусият ички ва ташқи ахборот фойдаланувчилари ўртасидаги молиявий ахборот етишмовчилигини камайтиради. Натижада сармоядорлар ўз сармояларининг самарали бошқаруви бўйича тўлақонли ахборотга эга бўлади.

- Иқтисодий самарадорлик ошиши – “ягона ҳисоб тили”даги ҳисоботларни таҳлил қилиш осонлашади ва натижада инвесторлар капитални халқаро миқёсда йўналтириш ва рискларни камайтириш имкониятларига эга бўлади.

- Бозор ликвидлиги яхшиланиши ва капитал сарфининг пасайиши – керакли молиявий ахборотларнинг батафсил ёритилиши ва халқаро даражада қиёсланувчанлик бозор ликвидлигини оширади ва компаниялар учун миллий ва хорижий капитал жалб этиш сарфларини камайтиради.

- Хорижий инвестицияларнинг миллий бозорга кириб келиши ва инвесторларни ҳимоя қилишнинг такомиллашиши – МҲХСнинг капитал бозор қатнашчилари томонидан қабул қилиниши ва унга мувофиқ тузилган молиявий ҳисоботлар очиқ эълон қилиниши ва айниқса инвесторларни ҳимоя қилишнинг меёрий ҳуқуқий ҳужжатлар асосида такомиллашиши хорижий инвестициялар оқимини кучайтириш имкониятини беради.

- молиявий таҳлилчилар прогнозларидаги аниқлик – асосли ва сифатли ахборотларга асосланган таҳлиллар капиталнинг самарали бошқаруви ва келгусида капитал жалб этилиши ёки тақсимланиши бўйича тўғри иқтисодий қарорлар қабул қилинишига хизмат қилади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Самиддин Низамович Ташназаров. Мажбуриятлар ҳисобини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш. “Экономика и социум” №5(84) 2021 www.iupr.ru
2. https://buxgalter.uz/publish/doc/text167231_mhhsга_utishda_nimadan_utish_lozim_buladi
3. Пятов, Михаил Львович доктор экономических наук. Проблемы бухгалтерского учета обязательств тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12.
4. Ҳ.Иргашев, И.Ахмадхонов. Ўзбекистонда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиши: янгича ёндашув ва имкониятлар. <https://uza.uz/posts/190586>
5. Международные стандарты финансовой отчетности: Издание на русском языке М.: ASKERI - ASSA, 2016.
6. А.Ж.Туйчиев. Мажбуриятлар бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилининг назарий методологик муаммолари. Диссертация. и.ф.д. – Тошкент. 2011.
7. О.В. Плотникова Теория обязательств в бухгалтерском учете. Бухгалтерский учет и статистика. 2013 vcplotnikov@yandex.ru
8. Бухгалтерский учет: учебник / под ред. Я.В. Соколова. (2-е изд., перераб. и доп. М.: ТК Велби; изд-во «Прспект», 2008).
9. С.Н. Ташназаров Корхоналар мажбуриятларини бухгалтерия балансида акс эттиришни такомиллаштириш “Иқтисодий ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябр-октябр, 2016 йил.



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. № S/1 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Nabiev Olimjon Abdisolomovich
Karshi Engineering Economic Institute,
PhD., Department of Finance
e-mail: nabievolim1984@gmail.com, +998 99 093 12 27

FORMS OF PRECARIOUS EMPLOYMENT AND APPROACHES TO ITS ASSESSMENT

Abstract. Growth of informal employment in the world significantly changes the traditional models of employment on permanent working places, and the number of precarious workers is growing. As a result, the requirements of the decent employment concept of the International Labor Organization are violated. The article describes modern forms of precarious employment and analyzes approaches to its assessment.

Keywords: precarisation, employment flexibility, precariat, sustainable employment, precarious employment

Nabiyev Olimjon Abdisolomovich
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti,
“Moliya” kafedrası, PhD.,
e-mail: nabievolim1984@gmail.com, +998 99 093 12 27

BEQAROR ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI VA UNI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Dunyoda norasmiy bandlik darajasining o'sishi xodimlarning doimiy ish joyida ish bilan ta'minlanishining an'anaviy shakllarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda va prekariatlar (beqaror ish bilan band bo'lganlar) soni ortib bormoqda. Natijada Xalqaro mehnat tashkilotining munosib bandlik konsepsiyasi talablari buzilmoqda. Maqolada beqaror ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari tavsiflangan hamda uni baholashga yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: prekarizatsiya, egiluvchan bandlik, prekariat (beqaror ish bilan band aholi), barqaror bandlik, beqaror ish bilan bandlik.

Набиев Олимжон Абдисаломович,
Каршинский инженерно-экономический институт,
PhD., кафедра “Финансы”

ФОРМЫ НЕУСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ И ПОДХОДЫ К ЕЕ ОЦЕНКЕ

Аннотация: Увеличение уровня неформальной занятости в мире значительно меняет традиционные модели занятости наемных работников на постоянном рабочем месте, и количество прекариатов растет. В результате нарушаются требования концепции достойной занятости Международной Организации Труда. В статье описываются современные формы прекаризованной занятости населения и анализируются подходы к ее оценке.

Ключевые слова: прекаризация, гибкость занятости, прекариат, устойчивая занятость, прекаризация занятости населения.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N05>

Introduction. Despite a number of efforts to ensure decent working conditions and adequate employment in the world, unsustainable employment is becoming an increasingly serious social problem. According to the ILO, “In 2019, a large proportion of the world’s 3.3 billion people in paid employment have been employed in jobs that do not provide decent working conditions or adequate income. Especially in low- and middle-income countries, 1.4 billion people worked in informal, vulnerable conditions”[1]. Today special attention is paid to the implementation of appropriate measures in targeted regulation of labor market liberalization, increasing attention to social guarantees in social-labor relations and in accordance with the requirements of the International Labor Organization's Concept of Decent Work.

The world is conducting extensive researches aimed at solving the problems of social and labor relations of precarious employment. The researches include the liberalization of the labor market in the context of labor mobility and migration, solving problems of social guarantees and social-labor relations as a whole system, a special attention is paid to improving the methodology for determining informal employment and development of non-standard forms of employment.

In Uzbekistan, especially in recent years, issues such as improving the quality of life, providing permanent employment, creating new jobs are becoming a priority. “The task of improving the living standards and quality of life in the regions, in particular poverty reduction is in many ways directly related to the creation of new and sustainable jobs by increasing the competitiveness of all sectors and sectors of the economy and creating fundamental conditions for entrepreneurship”[2]. In addressing these challenges, reducing the level of precarious employment on the basis of target parameters of labor market regulation, increase the level of non-standard forms of employment, it is expedient to deepen research in such areas as substantiation of income indicators based on the factors influencing income instability.

Literature review. Theoretical and methodological basis of precarious employment, distribution of people into social strata, non-standard types of employment in the labor market without certain social protection and legal guarantees, changed informal forms of employment and the scientific basis of their impact on social and labor relations studied by foreign scientists: Robert Castel, Gay Standing, Pierre Bourdieu, C. Paugam, R.D. Hepp, B.L. Nugarten, A. Kollberg and others. Scientific approaches of non-standard employment problems, some modern types and forms of precarious employment have been presented by scientists of the Commonwealth of Independent States as V.N. Bobkov, O.V. Veredyuk, V.E. Gimpelson, U.G. Odegov, Z.T. Golenkova, U.V. Goliusova, E.A. Grishinina, N.V. Osipova, N.J. Alshanova and others.

Social and labor relations in Uzbekistan - the formation and development of the labor market, regulation of employment and labor migration, reducing unemployment and theoretical and practical aspects of creating new jobs are found its expression in scientific works of *K.Kh. Abdurakhmanov*, D.N. Rahimova, N.K. Zokirova, B.H. Umurzakov, N.H. Rakhimova, Z.Y. Khudoiberdiev, N.U. Arabov and others. The British economist G.Standing

describes the nature of the category of precariat as follows: “Many of what we call precariat have never seen their employer, have no idea how many employees the employer has in their hands, and how many employees it plans to hire in the future. Precariat cannot be included in the middle class because it does not have a stable salary, does not correspond to the status of the middle class, and is not entitled to guaranteed benefits for them”.[3]

The French scientist P. Bourdieu made a great contribution to the analysis of the state of precariat. He describes the precariat as an unstable, defenseless, marginal category of the population (from the Latin word "margo" - "edge"), is isolated from society.[4] Therefore, Robert Castel believes that the main reason for the emergence of precarisation is the destruction of the industrial order of labor organization and the social system of society.

However, the collective protection system of the twentieth century (labor law, social insurance system, the social state that regulates these structures) served as a kind of "airbag" in the event of social threats[5]. Serge Paugam sees such separation of the able-bodied population as a mechanism that accelerates precarisation. It is this mechanism that turns the relatively low-skilled, inexperienced and intolerant part of the able-bodied population into precariat[6]. Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, Doctor of Economics K. Abdurahmanov says that the reason for the formation of precarisation is “The wide range of non-standard employment is the result of structural changes in the production of goods and services, the emergence of new forms of production relations in labor and entrepreneurship in a situation of increasing labor market flexibility”[7].

Research methodology. Dissertation research used systematic analysis, grouping, logical thinking, complex evaluation, logical and comparative analysis, statistical and econometric modeling, prospective forecasting methods.

Analysis and results. It is known that employment depends on the balance of labor demand and supply in the labor market. In practice, the factors of labor demand and the factors of its supply do not coincide (1-2 Figures).

When the demand for work with its supply is balanced, that is, when it is not possible to formalize work activity in accordance with applicable law, the employee is forced to work in precarious forms of work.




Figure 1. The main factors shaping the demand for labor[8]

As a result, the emergence of precarious employment in the labor market can be classified into three areas:

- ❖ The first direction is a change in the form of employment; This means a mass transition to the use of emergency employment contracts, the use of flexible forms of employment at the initiative of the employer, the mass dismissal of employees and the recruitment of new employees, the expansion of unregistered labor migration.

- ❖ The second direction is a change in the forms, amount and regularity of payment; In precarisation, this means receiving part of the salary in an "envelope", reducing the fixed part of the salary in the structure of employee income and increasing the share of unsecured payments. At the same time, the work is performed and services are provided without the conclusion of relevant contracts. That is, these payments are not taxed accordingly.




Figure 2. The main factors shaping labor supply [9]

The third direction is the change in working conditions. This leads to a decrease in the application of labor legislation to the precarious, deteriorating working conditions, labor protection and safety of employees. (Table 1).

There are methods of analysis and assessment to determine the impact of unsustainable employment on social-labor relations. Basically, the following measurement and evaluation methods can be cited based on quantity and quality as well as statistical data and survey methods.

Table 1

Methods of assessing precarious employment¹

Authors	Evaluation method	The structure of indicators	Complexity
---------	-------------------	-----------------------------	------------

¹ Compiled by the author

International Labor Organization	Quantitative methods	Forced employment (self-employed and unpaid workers)	These indicators describe several types of precarious employment
European Union	Multidimensional EPRES (Employment Precariousness Scale) method. A combination of survey and statistical methods	Period of employment, involuntary employment, restriction, fixed salary, right to income, right to health and rest	Query method. Assessing the impact of instability on a worker's psyche and health
Global Challenges Foundation	A method of identifying existential risks. Statistical method	1. The total population that may be affected by the risks. 2. Determining the strength of the risks. 3. The probability of a crisis under the influence of risks	The fact that more than 10% of the total population is in a state of instability indicates a high risk of social instability in the country
E.A.Grishnova	Quantitative methods. Social survey method.	Unemployed. Those who work for low wages. Population engaged in the informal sector of the economy. Permanent work and workers who are not confident that it will be maintained. Official workers in despair with part-time work. Seasonal unemployed. Those who work in harsh and harmful conditions	The indicators do not provide a reliable estimate of the number of illegal labor migrants
Broughton, M. Green and etc.	Creating an instability risk map. Based on quality and quantity indicators	Involuntary rapid employment, freelancing, private employment, temporary employment, employment through employment agencies, self-employment, poverty risks	Statistics by country
V.E. Gimpelson, A.A. Zudina	Assessment of instability by informal employment rate	Total employment is determined by the ratio of the population to employment in enterprises and organizations	Assessment method in the survey method

It is known that the formation of informal employment indicators also requires the identification of quantitative indicators that directly reflect the number of people engaged in

precarious employment. By collecting these statistics, methods will be developed to determine the extent of informal unemployment based on world standards and national legislation.

The number of people employed in the informal sector of the economy is determined on the basis of selective studies. The state registration of informal sector entities serves as a basis for its identification. That is, those employed in the informal sector are assessed only through statistical observations. In this regard, the Scientific Center for Employment and Labor Protection in the country conducts public opinion polls.

$$\text{Proportion of informal employment in total employment} = \frac{\text{Informal employment}}{\text{Totalemployment}} \times 100\%$$

The level of precarious employment is assessed on the basis of forced or compulsory employment. The simplicity of this method is that it is determined using the quantitative method recommended by the ILO, based on statistical data, ie the ratio of those who are forced or forced to work to the total number of items.

$$Pe(\%) = \frac{Ve}{E_t} = \frac{Se + Cw}{E_t} \quad (4)$$

where: Pe - precarious employment rate (in%), Ve - helpless or compulsory employed population, Se - self-employed who are not employed, Cw - unpaid household employment, Et - total employed population.

Precarious employment is manifested in different directions, in different forms. In this regard, instability is multidimensional and there is no single way to assess it.

Precarious employment usually consists of two forms: formal precarious employment and informal precarious employment. Table 2.

Table 2

Indicators of employment characteristics in precarisation¹

Precarisation criteria	Employment characteristics	Indicators
Forms of employment	Informal employment	Number of employed people in the informal sector
		Number of people informal employed in the formal sector
	Incomplete employment	The number of fully employed
	Temporary employment	Percentage of employed on a temporary contract basis for a specified period
		Proportion of employment under the terms of civil law contracts
		Percentage of employment under the terms of verbal agreements
		Percentage of employment under seasonal contracts

¹ Prepared by author

Form and amount of salary	The instability of income	Regular non-payment of wages (non-payment for vacation, compulsory reduction of wages due to reduced working hours)
Wage variability	Low income level	Percentage of those earning less than two-thirds of the average monthly wage
Working conditions	Working conditions	The number of people working in a workplace that does not meet sanitary and hygienic requirements

Formally precarious employment takes the following forms in an “employer-employee” relationship:

- ✓ Outstaffing agreements between employees of employment agencies;
- ✓ employment on the basis of employment contracts concluded on the condition that the employer works outside the workplace;

Informal precarious employment means the absence of a formal (written) contract between the employee and the employer (fixed-term or indefinite employment contract, entry in the employment record book, the employer's order of employment on the basis of the employee's personal application).

At the same time, employees engaged in informal precarious work are also divided into two groups:

- employees of official enterprises (organizations and institutions);
- informal employees of informal employers (informal enterprises, households);

However, unsustainable employment can also be classified according to the flexibility of working hours, the organization of labor activity and the characteristics of employment, the duration of the means of labor and the status of labor activity.

According to the ILO, the number of part-time employees has increased from 25% to 50% in most developed countries over the past 20 years. The increase in such employment is due to the personal conditions of the employee, the reduction of working hours by the employer, as well as the lack of full-time jobs. The use of outsourcing provides an opportunity to increase the efficiency of the enterprise, to centralize the freed organizational, financial and human resources to develop new directions or to solve a specific important task. There are many types of outsourcing.

Table 3.

Types of outsourcing¹

Types of outsourcing	Characteristics of outsourcing types
Production outsourcing	Another enterprise is assigned to complete the production of a particular type of product or its components
IT outsourcing	An external specialized enterprise is entrusted with the development, implementation and monitoring of information systems or certain elements of systems
Financial outsourcing	Complete or complete certain functions of accounting, financial and tax reporting

¹ Prepared by author

Personal outsourcing	It is one of the most advanced types of outsourcing, covering the search, finding, hiring, staff leasing, organization of staff salaries, and more
Outsourcing in retail	This includes the delivery of goods from manufacturers to trade organizations, packaging, assembling, cash operations, staff training, training, documentation, etc.
Social outsourcing	Perform all or certain types of social services to the population

The need to use outsourcing arises in the following cases:

- directing all available resources and opportunities to the main goal of the activity;
- use the experience of partners with modern technology and know-how in a particular direction to gain an advantage in a fierce competition;
- improving the quality of service;
- reduction of production costs;
- lack of technical and technological experience for the production of necessary goods, services, etc.

One of the types of unsustainable employment is personnel outsourcing. It is the transfer of the function of some work, services by an enterprise (organization, institution) to an external provider who has sufficient human resources to carry them out. In this case, the customer enters into an outsourcing agreement with the executor. The executor (outsourcer) guarantees that the assigned task will be performed by highly qualified specialists.

Currently, 90% of companies in the U.S. and the European Union use personnel outsourcing. This service is used in the following cases:

- temporary absence of staff (vacation, illness, pregnancy of women, etc.);
- when additional labor resources are required for seasonal work;
- when a specialist is required to perform a particular project;
- Lack of experience of an existing employee, specialist to perform a specific function, etc.

In outsourcing, the customer of labor resources pays for the necessary work and service and has an effective and positive end result. At the same time, the outsourcer solves all the problems that arise in the employment of the employee, the organization of the workplace and the work activity.

Another type of precarious employment is outstaffing. Outstaffing (from the word "outstaffing" - "out of state") - is the transfer of part of the staff of the enterprise (organization, institution) to another state (for example, recruitment agencies). In this case, the employee will continue to work in their workplace, but their employers will be recruiting agencies.

Outstaffing is used in the following cases:

- when there is a need to reduce the number of staff without losing qualified personnel;
- when it is necessary to save money in the calculation of the single social tax, to reduce administrative costs in the calculation of personnel and wages;
- when it is planned to hire staff in the regions, but there are no plans to open offices and departments here;
- to dismiss new employees during the probationary period, etc.

There are fundamental differences between outsourcing and outstaffing

In outstaffing, recruitment agencies take on the following functions:

- Registration of documents of employees on the basis of labor legislation;
- Payment to employees on the basis of salary, leave, sick leave;

- implementation of taxes and mandatory payments to the state;
- providing a reserve employee when the key employee is ill or unable to work due to other reasons;
- settlement of labor disputes;
- submission of relevant information and reports to government agencies, etc.

Table 4**Differences between outsourcing and outstaffing¹**

Indicators	Outsourcing	Autstaffing
Function	Provides direct service to the customer	Provides staff to the customer
Order fulfillment tool	Uses its own labor resources	Forms the customer's staff in his own name
The essence of the work performed (service)	Basically, secondary work (service) is performed	In most cases, it performs the main work (service) of the customer
Customers	All employees perform the services of one enterprise (organization, institution)	One employee can perform the work, service of several customers
Employee's workplace	There will be no specific workplace, it will perform its function in a flexible working time order	It will have its own workplace and set working hours
Salary payment procedure	Wages are paid for the work done	Salary is paid monthly

A freelancer (from the English word "freelancer" - "freelance artist") is a freelancer in the labor economy. There are different views among economists on the concept of "freelancer". Some consider him to be a non-standard or informally employed employee. Others rate him as an out-of-state employee. In particular, in the United States and the European Union, all self-employed people are included in the category of freelancers.

Indeed, freelancers choose the form of their employment and the place of work independently, so that their dependence on the employer is less than that of other forms of precarious employment. In the West, the employment of freelancers is regulated by employment and civil law documents, as well as by civil law contracts, as out-of-state employment, independent employment in private enterprise.

The freelance form of precarious employment has its advantages as well as certain disadvantages.

Table 5

¹ Prepared by author

Advantages and disadvantages of the form of employment freelancer¹

For freelancers		For the employer	
Advantages	Disadvantages	Advantages	Disadvantages
Independence	The need for regular independent search for new orders	Payment only for work performed	The complexity of tracking the progress of work
Free work schedule	Income is not stable	Opportunity to attract highly qualified specialists from abroad	The risk of being disproportionate to the performance of the task assigned by the freelancer
Opportunity to work from home	Accounting, the need to pay taxes independently	Cost savings for workplace organization	The complexity of involving a freelancer in long-term projects
Ease of starting your own business	Lack of social guarantees	Absence of social protection obligations of the employee	The possibility of problems in relations with the tax authorities due to the freelancer
Opportunity to independently choose partners	The complexity of obtaining a bank loan	Get rid of preparing and submitting various reports	The need to keep enterprise know how a secret from a freelancer
Unprofitable work, the opportunity to abandon the project	Possibility of legal problems (payment of taxes, pensions, etc.) due to non-formalization of employment relations	Opportunity to cancel the contract at any time with the freelancer	
Independent assignment of work and family responsibilities			

Conclusion. Freelancers offer their services to employers through the media, special recruitment agencies, acquaintances. This type of employment is widespread in information and communication technologies, law, journalism, architecture, design, expert and consulting activities. The unequal position of employees in the employment system with employers also creates other forms of precarious employment. These include, but are not limited to, casual, zero and temporary employment.

For example, casual employment is widespread in Australia. In this case, employers set the working hours for the hired employee from 3 to 40 hours per week. At the same time, an employee in such employment will be deprived of social guarantees such as paid leave, sick leave, maternity pay. Accidental employment is common, especially in trade and services.

Zero employment means the conclusion of a zero contract with an employee. A person who signs such a contract will have to wait for the employer to call him or her to carry out his

¹ Prepared by author

or her employment. That is, such an employee is officially employed, but in fact, it is unknown when he will start working. Such employment with employment is available in the UK. At this point, zero-employment in this country enjoys certain social protection: during childbirth, social payments for holidays, health insurance.

A common type of unsustainable employment is temporary employment. This form applies to the employment of an employee from 6 months to 1 year. According to the International Confederation of Private Employment Agencies (CIETT), three out of five young people under the age of 30 in the world are currently temporarily employed. Temporary employees in the U.S. enter into similar employment contracts to gain permanent jobs, while in the European Union, they enter into similar employment contracts to enhance work experience. However, temporary employees are not entitled to leave and sick leave [10].

Адабиётлар/Литература/References:

1. Data from the ILO.
https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---dcomm/---publ/documents/publication/wcms_734455.pdf.
2. Presidential Decree No. UP-5975 "On measures to radically update state policy in the field of economic development and poverty reduction."//<https://lex.uz/docs/4776669>
3. Стэндинг Г. Прекариат: новый опасный класс. - М.: Ад.Маргинем Пресс, 2014. С.19
4. Бурдые П. Практический смысл. - СПб.: Алетейя, 2001. - С.279-280.
5. Castel R. Die Krise der Arbeit. Neue Unsicherheiten und die Zukunft des Individuums. Hamburg 2011.
6. Paugam S. Die Herausforderung der organischen Solidarität durch die Prekarisierung von Arbeit und Beschäftigung // Prekarität, Abstieg, Ausgrenzung. Die soziale Frage am Beginn des 21. Jahrhunderts / R. Castel, K. Dörre (Hg.). Frankfurt a. M.; New York, 2009. S. 175
7. Набиев О.А. Ўзбекистонда аҳолининг беқарор иш билан бандлиги. Монография. Тошкент- "“INNOVATION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAА UYI”ДУК” 2019.-212 бет
8. Rofe A.I. Labor economics: textbook. – -М. KRONUS, 2018. – p.14.
9. Rofe A.I. Labor economics: textbook. – -М. KRONUS, 2018. – p.14.
10. International Confederation of Private Employment Agencies, CIETT//
<https://www.wecglobal.org/economicreport2016/graph3.html>



**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. № S/1 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>**

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Тошпулатов Даврон Акромович
Иқтисод фанлари доктори
“Ўзбекистон ипотекани қайта молиялаштириш
компанияси” АЖ Бош риск менежери

ИСЛОМ БАНК-МОЛИЯ ХИЗМАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Аннотация. Мақолада ислом молиясининг келиб чиқиш тарихи, ислом молияси асослари, ислом молияси тамойиллари, исломий молиявий шартномалар, ислом молиясида пулнинг моҳияти ва вазифалари, ислом молиясида таъқиқланган фаолиятлар, ананвий банк ва ислом банклар ўртасидаги фарқлар келтирилган. Шу билан бирга исломий молия бўйича маҳаллий ва хорижий олимларнинг фикрлари ўрганилган. Шунингдек исломий банк-молия хизматларини ривожлантириш бўйича илмий таклиф ва хулосалар берилган.

Таянч сўзлар: Исломий молия, ислом банкчилиги, шариат, анъанавий банкчилик, Ўзбекистон, Ислом Тараққиёт Банки.

Тошпулатов Даврон Акромович
Доктор экономический наук
Главный риск менеджер АО “Компания
по рефинансированию ипотеки Узбекистана”

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКОГО БАНКИНГА И ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ

Аннотация. В статье представлена история возникновения исламских финансов, основы исламских финансов, принципы исламских финансов, исламские финансовые контракты, природа и функции денег в исламских финансах, виды деятельности, подчеркиваемые в исламских финансах, различия между обычными банковскими и исламский банкинг. В то же время были изучены мнения местных и зарубежных ученых об исламских финансах. Также даны научные предложения и выводы по развитию исламского банкинга и финансовых услуг.

Ключевые слова: исламские финансы, исламский банкинг, шариат, традиционный банкинг, Узбекистан, Исламский банк развития.

Toshpulatov Davron Akromovich
Doctor of Economic Sciences
JSC “Uzbekistan Mortgage Refinancing Company”

DEVELOPMENT PROSPECTS OF ISLAMIC BANKING AND FINANCIAL SERVICES

Abstract. The article presents the history of the origin of Islamic finance, the basics of Islamic finance, the principles of Islamic finance, Islamic financial contracts, the nature and functions of money in Islamic finance, the activities emphasized in Islamic finance, the differences between conventional banking and Islamic banking. At the

same time, the opinions of local and foreign scholars on Islamic finance were studied. Scientific proposals and conclusions on the development of Islamic banking and financial services are also given.

Key words: Islamic finance, Islamic banking, Sharia, traditional banking, Uzbekistan, Islamic Development Bank.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N06>

Кириш. Дунё аҳолиснинг деярли чорак қисми ислом динига эътиқод қилиши ва 28 та мамлакат ислом давлати эканлиги, шунингдек таҳлилларга кўра ислом динига эътиқод қилувчилар тобора ортиб бораётганлиги Ислом банк-молия хизматларига бўлган талабни ошишига олиб келмоқда. Шу билан бирга ислом молияси хусусиятига бўлган қизиқиш кўплаб давлатларда ислом молиясини жорий қилишга туртки бўлмоқда.

Ислом молияси ва банкининг умумий амалиётлари ислом динининг ўрнатилиши билан бирга пайдо бўлди. Бироқ, институционал ислом молияси XX асрдан кейин ташкил этилган. Qardus нашрининг маълумот беришича, айти пайтда ислом молия сектори йилига 15 фоиздан 25 фоизгача ўсиб бормоқда, ислом молия институтлари эса дунё бўйлаб умумий қиймати 2,7 триллион доллардан зиёд активларни бошқармоқда[1].

Ислом олами улкан иқтисодий, инвестицион салоҳият, энергетика ресурсларига эга. Улардан тўғри фойдаланиш, Ислом ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатларнинг халқаро савдо-иқтисодий, молиявий, инвестицион ҳамкорлигини кенгайтириш, мамлакатларимизни бирлаштирадиган транспорт йўлларини ташкил этиш юксак иқтисодий тараққиёт кўрсаткичларига эришиш имконини беради ва бу пировард натижада бошқа барча соҳаларнинг ривожланишида асос бўлиб хизмат қилади[2].

Мамлакатимизда Ислом молиявий хизматларини жорий этиш бўйича ҳуқуқий базани яратишнинг вақт-соати етиб келди. Бу борада Ислом тараққиёт банки ва бошқа халқаро молия ташкилотлари экспертлари жалб этилади[3].

Исломий молиялаштириш нафақат банк хизматларини ўз ичига олади, балки бу мураккаб бир тизим ҳисобланиб, ўз ёндашувини ишлаб чиқишни талаб қилади. Исломий банкларни жорий этиш имконияти ҳақида гапирадиган бўлсам, тизимнинг мураккаблигидан ташқари, фуқароларнинг тижорат банкларига ишончини ҳам ошириш зарур [4].

Ушбу ҳолатлар Ўзбекистонда исломий банк-молия хизматларини ривожлантириш мақсадида назарий ва амалий аҳамияти юзасидан илмий изланишларни олиб боришни талаб этади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Ислом молияси тараққиёт босқичлари ва истиқболлари бўйича бир қатор хорижлик ва маҳаллий иқтисодчи олимлар илмий тадқиқотлар олиб борган. Жумладан, М.А.Маннанга кўра, Ислом иқтисодиёти бу инсонларнинг Ислом қадриятлари билан сифатланган иқтисодий муаммоларини ўрганадиган ижтимоий илм ҳисобланади [5].

Хуршид Аҳмад Ислом иқтисодиёти бу иқтисодий муаммони тушуниш мақсадида тизимли ҳаракат қилиш ва бу муаммога инсоннинг исломий жиҳатдан бўлган муносабатидир деб таъкидлаган [6].

Ҳ.Ҳасанов томонидан исломий молиялаштиришнинг назарий асослари, механизмлари, маҳсулотлари, шу соҳадаги халқаро ташкилотларга оид маълумотлар очиб берилган. [7]

С.З.Аброров томонидан Ўзбекистонда Сукук исломий молиялаштириш воситасини жорий этиш истиқболлари ўрганилган. [8]

А.З.Нагимова томонидан МДХда исломий молиялаштириш бозори ва уни ривожлантириш билан боғлиқ муаммолар ва истиқболлар тадқиқ қилинган. [9]

Юқоридагиларни инобатга олиб айтишимиз мумкинки, Ислом молияси бу шариятда назарда тутилган диний қадриятлар қонун ва қоидалар доирасида фаолият юритадиган, реал активларга ва шерикчиликка асосланган молия тизими ҳисобланади.

Тадқиқот методологияси. Мақолада, ислом молияси, ислом банкчилиги, исломий молиявий шартномаларини ўрганишда эътиборга олинмиш лозим бўлган жиҳатларни тадқиқ этиш бўйича хорижий ва маҳаллий олимлар томонидан бажарилган илмий тадқиқот ишларининг хулосалари ва муаллифларнинг амалий тажрибалари асосида мустақил ёндашувлар шакллантирилди. Шунингдек жадвал, аналитик таққослаш, мантиқий таҳлил, гуруҳлаш каби усуллардан ҳамда статистик маълумотлардан кенг фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Ислом молияси асосланадиган қадриятлар ва тамойиллар умумбашарий характерга эга бўлиб, уларнинг келиб чиқиши Исломнинг пайдо бўлишидан ҳам олдинроққа бориб тақалади. Ушбу қадриятлар нафақат Иброҳим А.С. дан бошлаб Муҳаммад С.А.В.гача бўлган диний эътиқод, балки бошқа динлар томонидан ҳам қўллаб-қувватланган. Уларни амалда татбиқ қилиш ҳалолликка, бойликларни тенг тақсимлашга ва ижтимоий адолатга асосланган барқарор жамиятни шакллантиришга ёрдам беради.

Ислом молияси янги ихтиро эмас. Дарҳақиқат, замонавий банклар томонидан қўлланилаётган бир қатор тушунчалар ва маҳсулотлар ғарбга келишидан анча олдин мусулмонлар дунёсида ўз илдизига эга эди.

Банк хизматларига мисоллар:

Sakk, (Арабчадан “Чек”) 2-халифа Умар Р.А. томонидан ойлик маош ва дон маҳсулотлари учун тўлов сифатида ишлатилган.

- *Suftaja*, савдо фаолиятида саёҳат чеклари ва аккредитивлар сифатида ишлатилган.
- *Hiwalah*, замонавий пул ўтказмалари ёки қарзларни ўтказиш учун ишлатилган инструмент.
- *Wadiyah*, жамғариш ва сақлаб беришда ишлатилган инструмент.

Тарихий нуқтаи назардан Ислом молияси учта даврга бўлинади:

биринчи давр (илк давр)- Исломнинг илк йилларидан то Рошидун Ҳалифалар давригача; иккинчи давр (ўрта давр)-Ҳалифалик давларидан то Усманийлар империяси қулагунгача бўлган давр; учинчи давр (замонавий давр)-замонавий Ислом молияси даври.

1-жадвал

Ислом молияси тарихи¹

1960 йиллар	1970 йиллар	1980 йиллар	1990 йиллар	2000 йиллар	Ҳозирги вақт
1963 Мит Ғамр Жамғарма банки, (Миср) 1969 •Табунг Ҳажжи, (Малайзия)	1971 <input type="checkbox"/> Нассер банк, (Миср) 1975 <input type="checkbox"/> Ислом Тараққиёт Банки <input type="checkbox"/> Дубай Ислом Банки (БАА) 1977 <input type="checkbox"/> Файсал Ислом Банки (Судан) 1979 <input type="checkbox"/> Иордания Ислом банки, <input type="checkbox"/> Баҳраин Ислом Банки	1981 <input type="checkbox"/> Дарул-Мал Ал Ислам Траст, Женева 1982 <input type="checkbox"/> Қатар ислом Банки <input type="checkbox"/> ЛАРИБА Виттер банки, Америка 1983 <input type="checkbox"/> Бангладеш масъулияти чекланган ислом банки, <input type="checkbox"/> Малайзия Ислом Банки 1984 <input type="checkbox"/> Ал-Барака Ислом Банки, Баҳраин 1985 <input type="checkbox"/> Такафул ширкати, Малайзия 1989 <input type="checkbox"/> АНЗ Глобал Ислом Банки, Британия	1991 <input type="checkbox"/> ААОИФИ, (Баҳраин) 1992 <input type="checkbox"/> Муомалат Банки, (Индонезия) 1993 <input type="checkbox"/> Бруней Ислом Банки 1994 <input type="checkbox"/> Ислом банклараро пул бозори <input type="checkbox"/> (Малайзия) 1999 <input type="checkbox"/> Малайзия Муомалат Банки	2002 <input type="checkbox"/> Мезон Банк, Покистон <input type="checkbox"/> Халқаро Ислом Молия Бозори, (ИИФМ), Баҳраин <input type="checkbox"/> Ислом Молиявий хизматлар кенгаши (ИФСБ) (Куала Лумпур, Малайзия) 2004 <input type="checkbox"/> Британия Ислом Банки (ҳозирда, Ал-РайёнБанк) 2005 <input type="checkbox"/> Ислом Молияси Консуллиги (БуюкБритания) 2006 <input type="checkbox"/> Малайзия Халқаро Ислом Молия Маркази 2010 <input type="checkbox"/> Халқаро Ислом Ликвидитлики бошқариш Корпорацияси (ИИЛМ), Куала Лумпур	2011 <input type="checkbox"/> Банк Амана (Шри Ланка) <input type="checkbox"/> Шариатга мувофиқ восита ва амалиётлар бўйича маслаҳат кенгаши 2013 <input type="checkbox"/> Банк Низва (Омон) <input type="checkbox"/> Ислом Молияси Тараққиёт Маркази Жаҳон Банки, Истанбул 2014 <input type="checkbox"/> Глобал Ислом молияси ва инвестиция гуруҳи 2015 <input type="checkbox"/> Кувайт- Туркбанки,

Ислом молияси асослари бўйича қуйидаги тушунчаларни ўрганиб чиқамиз:

Ислом ҳуқуқи (Шариат “(араб.-тўғри йўл)-ислом ҳуқуқи тизими мусулмонларнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий ва диний фаолиятини қамраб олувчи қонун-қоидалар мажмуасидир”)нинг асосий манбалари:

Бирламчи манбалар: Қуръони Карим ва Суннат/Ҳадис

Иккиламчи манбалар: **Ижтиҳод** (биламчи манбалардан қоидаларни чиқариш), **Қиёс** (Ислом олимларининг қиёслаш орқали ҳукмлар чиқариши), **Ижмо** (Ислом олимларининг яқдил фикри).

Ислом иқтисодиёти, молияси ва банкчилиги юқоридан келиб чиқиш босқичлари қуйида келтирилган: **Ислом ҳуқуқи (Шариат) - Фикҳ** (арабчада билиш, тушуниш маъноларини англатиб, ислом ҳуқуқшунослиги, шариат қонун қоидаларини ишлаб чиқиш билан шуғулланувчи фан) - **Фикҳул-муомала**(Ижтимоий фаолиятга оид қоидалар, Жиноят(жиноятга оид қоидалар), **Иқтисодиётга оид қоидалар**, Муноқаҳат (никоҳ оилага оид қоидалар) ва Сиёсий фаолиятга оид қоидалар) ушбу иқтисодиётга оид қоидалардан Ислом иқтисодиёти, молияси ва банкчилиги фанлари юзага келади.

Исломда иқтисодий фаолият турлари иккига бўлиниб, улар қуйидагилар ҳисобланади:

- Тижорат (Савдо амалиёти, Банк-молия, Ислом суғуртаси (Такафул) Қимматли қоғозлар (сукук)
- Ҳайрия (Қарзи ҳасан, Закот, Вақф, Ҳадя, Садақа)

¹ Муаллиф томонидан мавжуд маълумотлар асосида тузилган.

Ислом молиясининг барқарорлиги ва ҳаётийлиги Шариат қоидаларига амал қилиш билан боғлиқ Исломий битимлар рухсат этилган (ҳалол) нарсаларга қатъий риоя қилинган ва тақиқланган (ҳаром) нарсалардан сақланган бўлиши керак. Ҳалол атамаси жамият ва инсоният учун яхши ҳамда фойдали бўлган нарсалар учун ишлатилади ва ҳаром атамаси эса унинг аксидир.

Ислом молияси амал қилиши керак бўлган асосий Шаръий қоидалар куйидагилардир:

Ислом молияси амал қилиши керак бўлган асосий Шаръий қоидалар куйидагилардир:

- Савдога рухсат берилганлик ва савдонинг ҳалол қилинганлиги
- Фоидага асосланган битимларнинг тақиқланганлиги (Рибо)
- Ноаниқликларнинг тақиқланганлиги (Ғарар)
- Қимор ва ортиқча спекуляцияларнинг тақиқланганлиги (Майсир)
- Зарарли товарлар билан ишлашнинг тақиқланганлиги (Ҳаром) [10]

Валюта ва товар айирбошлашда «Рибо» ҳамда «Рибо Ал Фадл»дан қочиш учун Ислом баъзи талабларни қўйган. Масалан, олтинни ўша жойнинг ўзида бир хил миқдорда ва сифатдагисини алмаштириш мумкин, лекин буғдойни олтинга алмаштиришда эса бундай қоидалар қўйилмаган. Олтин ва кумуш ҳозирги замонда валюталар учун намуна, буғдой, арпа, хурмо ва туз каби товарлар турлари эса озиқ-овқат маҳсулотлари намунаси сифатида келтирилган.

	Олтин	Кумуш	Буғдой	Арпа	Хурмо	Туз
Олтин						
Кумуш						
Буғдой						
Арпа						
Хурмо						
Туз						

Ўша жойда тўлов, кечиктириш мумкин эмас
 Бир хил миқдор ва сифатда
 Шартларсиз савдо қилиш (бирини кечиктириш орқали)

1-расм. Валюта ва товар айирбошлаш[10]

Бир жинсдаги маҳсулотларда Рибо ал фазлни тартибга солувчи қонун қоидалар:

- Қиймат сифатдаги ҳар қандай фарқ эътиборга олинмайди ва маҳсулот тенг миқдорда алмаштирилади тенг оғирлик ёки ҳажмда.
- Бир жинсдаги маҳсулотларни тўғридан тўғри алмаштириш ўрнига, ҳар бир шахс ўз молини бозор нархида сотиши ва тушган пулга бошқа одамнинг молини бозор нархида сотиб олиши керак.
- Маҳсулот қайта ишлаш жараёнида бутунлай ўзгарган бўлса, масалан пахта (хом ашёси) матога, темир бирор дастгоҳга айланган бўлса, оз миқдордаги матони кўпроқ миқдордаги пахтага ёки кўп темир терсакни тайёр дастгоҳга алмаштиришга рухсат берилган.

Турли жинсдаги маҳсулотларда Рибо ал-фазлни тартибга солувчи қонун-қоидалар:

- Турли жинсдаги маҳсулотлар тенг бўлмаган ҳолда алмаштирилиши мумкин лекин бунда тўлов кечиктирилиши тақиқланади Масалан бир кг буғдой 1 кг хурмога алмаштирилиши ёки бир грамм олтин 2 гр кумушга алмаштирилиши мумкин чунки бу спот, яъни бозор нархида дарҳол амалга оширилган тўлов амалиёти ҳисобланади

- Агар ушбу алмашинувлар қарзга амалга ошириладиган бўлса, унда бу ҳолат бевосита фоизга (яъни рибога) олиб боришини эсдан чиқармаслик керак Масалан харидор 50 грамм кумушни бугун қарзга олиб бир ойдан сўнг 2 грамм олтин билан қайтармоқчи бўлса бир ойдан кейин 25 грамм кумуш 1 грамм олтинга тенг бўлишига ҳеч қандай кафолат йўқ чунки ҳар қандай ҳолат юз бериши мумкин

- Бу каби олдиндан нарх ўрнатиш судхўрликдир Шу сабабли турли жинсдаги маҳсулотларни жойида дарҳол алмаштириш қоидаси жорий этилган

Ислом молия тизимидаги асосий тақиқлар: Рибо (судхўрлик), Майсир (қимор), Эҳтикор (монополия), Адолатсиз битимлар, Ислом ҳуқуқи ва мусулмон ахлоқига зид савдо турлари, Пул савдоси, Молиявия чайқов амалиёти, Ғарар (мавҳумлик).

Қуйидаги жадвалда жаҳон иқтисодий тизимларнинг фарқини кўришимиз мумкин:

2-жадвал

Жаҳон иқтисодий тизимлари[10]

Иқтисодий тизимлар	Бошқарув	Мулкдаги ҳуқуқ	Ишлаб чиқариш факторлари	Пулнинг хусусияти	Бойлик яратиш ва тақсимлаш
Ислом иқтисодий иизими	Илоҳий кўрсатмалар	Аллоҳдан берилган омонат	Ер-ижара	Муомала воситаси товар эмас	Ислом Шариати бўйича
			Иш кучи-маош		
			Капитал/Тадбиркор-фойда		
Капитализм	Инсон тафаккури	Мутлоқ эгалик	Ер-ижара	Савдо товари	Мулқдор хоҳиши бўйича
			Иш кучи-маош		
			Капитал-фоиз		
			Тадбиркор-фойда		
Социализм	Инсон тафаккури	Давлат эгалиги	Ер-ижара	Савдо товари	Давлат хоҳиши бўйича
			Иш кучи-маош		
			Капитал-фоизсиз		
			Тадбиркор-фойдасиз		

Исломда пул концепцияси куйидагича: пулнинг «ички киймати» йук фақат муомала воситаси булиши мумкин; Барча деноминациядаги пуллар 100 бир хил нархга эга; товар олди сотди битимлари фақат аниқ ва товар хусусиятига эга бўлган маҳсулотлар бўйича амалга оширилиши мумкин; пулнинг товар ва хизматларни ўлчайдиган стандартга эга қиймати мавжуд.


Ислом молияси хизматлари саноати:

- Ислом банки -*Универсал банкчилик, Инвестиция банки, Хусусий банкчилик*)
- Ислом молия (капитал бозори) - *Сукук, Инвестиция фонди, Брокер/агент*
- Такофул ва ретакофул (қайта суғурталаш) - *Кооператив ва ўзаро суғурта, Такофул, Ретакофул.*
- Нобанк молия муассасалари - *Микромолиялаш, Закот / Вақф, Молия компаниялари, Лизинг компаниялари.*
- Стандартларни ишлаб чиқиш – *Бухгалтерия стандартлари, Шариат стандартлари, Операцион стандартлар, Саноат стандартлари*
- Тартибга солиш – *Комиссиялар, Шариат кенгашлари, Марказий банк.*
- Фан ва таълим – *Олий таълим муассасалари, Ихтисослаштирилган таълим муассасалари, тренинг марказлари.*

Ислом банки бу Шариат тамойиллари асосида савдо, шерикчилик ва ижара муносабатларига асосланган молиявий муассаса. Анъанавий банклардан фарқли ўларок, Ислом банкидаги транзакциялар ўзларида рибо элементларини ташкил қилмайди, аксинча кучли маънавий ахлоқий қадриятларга амал қилади.

Ислом банкларининг даромадларидан бири савдо операцияларидан келадиган фойда бўлиб, банк активларини ишлаб чиқарувчи ёки сотувчидан 50 000 эвазига сотиб олади ва устама қўйиш орқали ўз миқдорига 55 000 га сотади.

Қуйида келтирилган расмда ислом банкчилиги схемасини кўришимиз мумкин.



2-расм. Ислом банкчилиги схемасини[10]

Қуйидаги жадвалда аъанавий банкчилик ва Ислом банкчилигининг хусусиятларини кўришимиз мумкин.

3-жадвал

Аъанавий банкчилик ва Ислом банкчилиги[11]

Аъанавий банкчилик	Ислом банкчилиги
Олдиндан белгиланган фоиз ставкаси	Фоиз (Рибо)дан холи
Қарз асосига қурилган	Активлар асосига қурилган
Рискни ўтказиб юбориш (Фоиз асосида қарз)	Рискни булишиш(фойда-зарар тизими)
Пул пулни яратади	Пул реал сектор ривожланишига хизмат қилади
Аъанавий қонунларга асосланган (Инсон тафаккури)	Шариат тамойилларига асосланган (Илоҳий қоидалар)

Воситачиликни шакллантиради ва фойдани максималлаштиришни мақсад қилади	Иқтисодий фаолиятда иштирок этиш ва иқтисодиёт ривожланиши учун устувор йўналишларни молиялаштириш
---	--

Анъанавий банкчилик ва Ислом банкчилигининг фарқи, банк ва мижозлар ўртасидаги муносабатларда ҳам ўз аксини топган.

4-жадвал

Анъанавий банк маҳсулотлари билан таққослама [12]

Анъанавий банкчилик	Ислом банкчилиги
Фоиз ва комиссия тўловлар асосида	Фойда во бошқа тўловлар асосида
Тадбиркорлик рисклари мижоз мажбуриятида	Рискларни мутаносиб тақсимланиши
Ҳеч қандай маънавий-ахлоқий қоидаларга риоя қилинмайди	Маънавий-ахлоқий қадриятларга амал қилиниши
Қарз берувчи-Қарздор Қарздор-Қарз берувчи	Сотувчи-Олувчи, Ижарага берувчи-Ижарачи, Сармоячи-Тадбиркор, Ҳамкор-Ҳамкор, Васий-Ишончли вакил

Қуйида Ислом банки маҳсулотларини анъанавий банк маҳсулотлари билан таққослама ҳолда кўриб чиқамиз.

5-жадвал

Ислом банки маҳсулотлари ва анъанавий банк маҳсулотлари турлари [12]

Бизнес банкчилик	Бизнес банкчилик
Кредитлар	Молиялаштириш маҳсулотлари
Айланма маблағлар	Мурабаха, Салам
Асосий воситалар	Мурабаха, Мушарака, Ижара, Истисна
Лизинг	Мушарака, Ижара
Микрокредитлар	Мурабаха
Депозитлар	Инвестиция ҳисоб рақамлари
Жорий ҳисоб рақамлар	Вадиа, Қарз
Муддатли депозитлар	Мудароба, Вакала
Бошқа хизматлар	Бошқа хизматлар
Банк кафиллиги	Кафала
Хорижий валюта айирбошлаш	Хорижий валюта айирбошлаш
Чакана банкчилик	Чакана банкчилик
Кредитлар	Молиялаштириш маҳсулотлари
Истеъмол кредитлари	Мурабаха, Ижара
Автокредит	Мурабаха, Мушарака, Ижара
Ипотека кредитлари	Мурабаха, Мушарака, Ижара
Кредит карталари	Қарз
Депозитлар	Инвестиция ҳисоб рақамлари
Жамғарма ҳисоб рақамлари	Вадиа, Қарз
Муддатли депозитлар	Мудароба, Вакала
Бошқа хизматлар	Бошқа хизматлар
Пул ўтказмалари	Пул ўтказмалари
Хорижий валюта айирбошлаш	Хорижий валюта айирбошлаш

Ислом банклари фоизсиз бизнес модель асосида фаолият юритади ва фаолият тури асосан 3 сегментдан ташкил топган: Ресурсларнинг манбалари, ресурсларнинг ишлатиши, фойдаларнинг тақсимланиши

Ислом банки ресурслари ҳиссадорлар маблағлари ва инвестиция ҳисоб варақлари (жорий ҳисоб рақамлар) орқали шаклланади Ушбу ресурсларни савдо, ижара ва шерикчилик фаолиятига йўналтириш ҳамда пуллик хизматлар орқали фойда олади.

Қуйида Ислом банкининг ресурслари манбалари ва улардан фойдаланишни акс эттирувчи балансни кўришимиз мумкин.

Ресурсларнинг ишлатилиши(Активлар):

- Нақд пуллар
- Муробаҳа, Салам, Истисна, Ижара
- Мудараба, Мушарака
- Асосий воситалар
- Бошқа активлар

Ресурсларнинг манбалари(Мажбуриятлар):

- Вадиа (жорий) ҳисоб варақлар
- Вакала ҳисоб варақлари
- Музораба (инвестиция) ҳ/в
- Суқуқ / Заҳиралар
- Ҳиссадорлик маблағи

Шариатнинг асосий мақсадлари қуйидаги беш нарсага манфаатни жалб қилиш ва зарарни даф этишдан иборат: дин, жон, ақл, насл ва мол.

Юқоридаги 5 та хусусиятидан келиб чиқиб, исломий молиявий шартномалар юзага келади. Ислом битимлар/шартномаларни дахлсизлигига катта эътибор қаратади ва низоларни олдини олиш учун шартлар, ҳуқуқлар ва мажбуриятларни ёритишни барча битим/шартномадаги томонларга юклайди.

Исломда шахснинг мулки муқаддас ва дахлсиз ҳисобланади. Исломда шартнома тузаётган томонларга аниқ йуриқномалар берилган бўлиб, ушбу йуриқномалар орқали ўғрилиқ ва фирибгарлик йўли билан бошқаларнинг мулкани ноҳақ ўзлаштириб олишнинг олди олинади.

Ушбу йуриқномалар фоиз (рибо), ноаниқлик (ғарар), қимор (майсир) ва ҳалол бўлмаган шартномаларга киришишни олдини олади, чунки уларнинг барчаси бойликларни ўзлаштиришнинг ноқонуний усуллари ҳисобланади.

Шартноманинг устунлари (рукнлари) унинг мазмуни билан боғлиқ моҳиятидадир. Шартноманинг асосий 3 та рукни бор:

- таклиф ва қабул (ийжоб ва қабул сийға)
- битим иштирокчилари (томонлар, сотувчи ва харидор)
- битим мавзуси (предмет савдо бўлаётган нарса)

Асосий Исломий молиявий битимлар ва шартномалар қуйидагилар ҳисобланади:

- Шерикчилик шартномалари (Мушарака, Мудараба, Музараъа)
- Савдога асосланган шартномалар (Мурабаҳа, Салам, Истисна)
- Комиссион тулов шартномалари (Кафала, Вакала, Вадиа)
- Қарз шартномаси (Қарз)
- Ижара шартномалари (Ижара, Ижара мунтахия бит тамлик)

Муробаҳа бу савдо битими бўлиб бунда сотувчи харидорга муайян маҳсулотни унга устама фойда қўйган ҳолда етказиб беради, бунда сотувчи маҳсулотни сотишдан аввал харидорга маҳсулотнинг харид нархи ва устига қўйилган фойдаси ҳақида маълумот беради. Ислом банклари ушбу битим орқали муддатли тўловни назарда

тутади. Муробаҳа шартномасидаги устама томонлар келишувига кўра белгиланиши ҳам мумкин.

Фойда (устама, маржа) маҳсулотни сотиб олиш билан боғлиқ барча бевосита харажатлар (ташиш, божхона тўловлари каби) қўшилгандан сўнг ҳосил бўлган умумий қийматга устама белгиланиши лозим.

Ижара жисмоний активни лизинга олиш ёки ёллашни англатади. Унда икки томон иштирок этади: биринчи томон Ажир ёки Мужир, ижарага берувчи Ажир одатда банк бўлиб ўз активини иккинчи томон бўлган Мустажир ижарачи ёки мол мулкка эҳтиёжманд шахс миқозларига ижарага беради.

Олдиндан белгиланган ижара ҳақини (Ужра) тўлаш орқали ижарага олувчи активларга эгалик қилиш билан боғлиқ имтиёзларни олади. Ижара муддати тугагач актив банкка қайтарилади. Ижара маълум вақт оралиғида ижара даври деб аталади ва бу ижара шартномасининг моҳиятидир.

Ижара предмети бўйича моддий активлар ва меҳнат / хизматларга бўлинади. Ижара шартномасининг моҳияти бўйича амалий (операцион) ижара ва молиявий ижараларга бўлинади.

Мушорака бу капитал шерикчилигининг бир номи бўлиб, фойда ва зарарда томонлар иштирок этадиган қўшма корхонанинг бир тури.

Ислом банкларида Мушорака фойдани бўлишиш шарти билан тузиладиган шерикчилик шартномалари Ислом банкларининг актив амалиётлари экспорт импорт амалиётларини молиялаштиришда лойиҳаларни молиялаштириш синдикат маҳсулотлар яратиш ва сукук чиқаришда ишлатилиши мумкин.

Мушораканинг асосий кўриниши Банк ва Миқоз ўртасида муайян тадбиркорлик лойиҳасини қўшма амалга оширишни кўзда тутади. Фойда келишилган нисбатда тақсимланади, зарар эса тикилган сармоя нисбатида тақсимланади.

Мушорака мутанақиса (ММ) бу Ислом банклари томонидан кенг қўлланиладиган молиялаштиришнинг асосий усулларида бири бўлиб, бу асосан уй-жой молиялаштириш бўйича энг кўп ишлатиладиган шартномадир. Ушбу молиялаштириш шаклида бир шерик ўз мулкчилик қисмини бошқа шерикка маълум бир вақт ичида босқичма-босқич сотиш тўғрисида ваъда беради. ММ икки ёки ундан ортиқ шериклар ўртасида тузилиши мумкин ва ундан исталган лойиҳани қўшма молиялаштиришда фойдаланиш мумкин. ММ орқали мулк сотиб олиш Шаркат ал милк тамойиллари ва қоидалари орқали бошқарилади. ММ орқали бизнес/тадбиркорлик лойиҳасини сотиб олиш Ширкат ал аъқд тамойиллари ва қоидалари орқали бошқарилади. ММ 3 та алоҳида шартнома тузилади (Мушорака, Ижара, Олди сотди)

Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб айтганда, мамлакат иқтисодиётидга Ислом молиясини жорий этиш ва унинг фойдалари сифатида қуйидагиларни келтиришимиз мумкин:

- хориждан келаётган инвестициялар ҳажмини ошириш ва диверсификациялаш, банк тармоғида ҳалол ва шаффоф рақобат муҳитини яратиш ҳамда банк тизими активларини диверсификациялаш имкониятини яратиш;

- Ислом молия хизматлари индустриясини ривожлантириш орқали мамлакатда инфратузилмани мувофиқлаштириш ва янгилаш, камбағалликка қарши курашиш давлат дастурини амалга оширишга ҳисса қўшиш;

- аҳоли ва бизнес вакиллари ихтиёрида бўлган бўш пул маблағларини иқтисодиёт ривожланишида максимал иштирокини таъминлаш, аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш орқали, молия бозоридаги фаоллигини ошириш;

-ислом янги молиявий муассасалар ташкил қилиш, янги йўналишда кадрлар тайёрлаш дастурини яратиш, кўплаб янги иш ўринлари яратиш мумкин бўлади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб ислом молиясини жорий қилиш бўйича қонунчиликни ҳамда қонун ости ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилиш бўйича ишларни жадаллаштириш лозим.

Адабиётлар/Литература/References:

1. <https://www.qardus.com/news/the-islamic-financial-services-industry-statistics#:~:text=Currently%2C%20the%20Islamic%20finance%20sector,over%202.7%20trillion%20USD%20globally.>
2. <https://www.gov.uz/uz/news/view/7659>
3. <https://kun.uz/news/2020/12/29/ozbekistonda-islom-moliyasi-xizmatlarini-joriy-qilish-vaqti-keldi-shavkat-mirziyoyev>
4. <https://kun.uz/news/2021/09/02/koplab-fuqarolarimiz-islom-moliyasi-xizmatlaridan-foydalanishni-xohlaydi-ilhom-norqulov>
5. Mannan, M. A. (1983). "Islamic Economics as Social Science: Some Methodological Issues", Journal of Research in Islamic Economics, 1(2), pp. 41-50.
6. Ahmad, Khurshid (1992), "Nature and Significance of Islamic Economics", in Ausaf Ahmad and Awan (eds.), Lectures on Islamic Economics. Jeddah: Islamic Development Bank.
7. Ҳасанов Ҳ. Исломий молия асослари, "Ўзбекистон" НМИУ 2019.
8. Аббасов С. Ўзбекистонда сукук - исломий қимматли қоғозларни жорий этиш истиқболлари, Тошкент, 2020.
9. Nagimova A. "ISLAMIC FINANCE IN THE CIS COUNTRIES". Academus Publishing, 2021.
10. М.М. Музаффаржон Муҳаммадаминович Низомиддинов Ислом молияси асослари ва тамойиллари 3 Ноябрь 2021 йил
11. ВІВМ
12. Islamic corporation for the development of the private sector

09.00.00 – Фалсафа фанлари

Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлар доктори,
ЎзМУ профессори

АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТГА ЎТИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

Аннотация. Инсоният ўз ривожда ахборот жамиятига ўтиши инсон катта ҳажмдаги ахборотни қабул қилиш ва ундан тўғри фойдаланишга тайёр эмаслигини кўрсатиб қўйди. Бу эса ахборотни тўғри идрок этиш маданиятини шакллантириш каби инсоннинг бевосита дунёқараши, салоҳияти, тажрибаси билан боғлиқ хусусиятларни камол топтириш масалаларининг долзарблигини янада оширади.

Калит сўзлар: ахборотлашган жамият, ахборот маданияти, инсон, ёшлар, Интернет, манипуляция

Муминов Алишер Гаффарович
доктор политических наук,
профессор НУУз

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕХОДА К ИНФОРМАЦИОННОМУ ОБЩЕСТВУ

Аннотация. Переход человечества в фазу формирования информационного общества, способствовал возникновению проблемы обработки большого потока информации. Решение этой проблемы видится в воспитании у населения и в первую очередь у молодёжи информационной культуры.

Ключевые слова: информационное общество, информационная культура, человек, молодёжь, Интернет, манипуляция

Muminov Alisher Gaffarovich
Doctor of political science,
Professor of NUU

SOME ASPECTS OF THE TRANSITION TO THE INFORMATION SOCIETY

Abstract. The transition of mankind to the phase of formation of the information society, contributed to the problem of processing a large flow of information. The solution to this problem is seen in the education of the population and, first of all, of the youth of information culture.

Keywords: information society, information culture, people, youth, Internet, manipulation



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N07>

Америкалик олим Э. Тоффлер “Учинчи тўлқин” асарида [1] “Инсоният ортда қолдирган йўл уч босқичдан иборат”, деган фикрининг асосида қишлоқ хўжалиги, саноат ҳамда ҳозирги ахборот тамаддунлари назарда тутилган эди.

Дарҳақиқат, XX асрнинг сўнгги ўн йилликларида жаҳон индустриал жамиятдан ахборот жамиятига ўтиш даврини ўз бошидан кечирди. Ишлаб чиқариш усуллари, одамларнинг дунёқараши, давлатлараро муносабатлар тубдан ўзгарди.

Ахборот соҳасининг тез суръатлар билан ўсиши замонавий технологияларнинг яратилишига ва кишилиқ ҳаётининг барча соҳаларини компьютерлаштиришга олиб келди. Бу эса ўз навбатида бугунги кунда ғоятда тезкорлик билан ўсиб бораётган “Ахборотлашган жамият” назариясини майдонга келтирди.

XX асрнинг иккинчи ярмида АҚШ мисолида иқтисодиётнинг ахборотлаштириш соҳасининг дастлабки тадқиқотчилардан бири америкалик иқтисодчи Ф.Махлупнинг “АҚШда билимларни ишлаб чиқиш ва қўллаш” деб номланган асарида “ахборотлашган жамият” ибораси ишлатилган бўлиб, мазкур тушунча шу пайтга қадар қўлланиб келинган “индустриал жамият” тушунчасининг ўрнини эгаллади [2].

Ахборотлашган жамиятга ўтиш жараёни кўпгина тадқиқотчилар томонидан ўрганилган ва ҳозирда ҳам ўрганилмоқда. Жумладан, Россия Фанлар Академиясининг фундаментал ва амалий информатика институти директори, ахборотлаштириш соҳасида йирик мутахассис Константин Колиннинг фикрича, аҳолининг 50 фоиздан камроғи хизмат кўрсатиш соҳасида банд бўлса, унда жамият постиндустриал босқични кечаётган бўлади, жамиятда 50 фоиздан кўпроқ аҳоли ахборот соҳасида билан банд бўлса, мазкур жамият ахборотлашган жамиятга айланганлигини англатади [3].

Шу сабабдан, жаҳондаги тараққий этган мамлакатлар ишлаб чиқариш ва ижтимоий-сиёсий соҳаларда ахборотлаштириш суръатларини бениҳоя ошириш натижасида ривожланишнинг юқори суръатларига эришмоқда.

Айни чоғда, инсон ўзи яшаб турган дунёга ўзи олиб кирган ўзгаришлар билан баробар қадам ташлашга қодир эмаслиги маълум бўлди. Сўнгги йилларда инсон тафаккурининг маҳсули бўлган технологиялар уни ўзини ижтимоий муносабатлар майдонинидан суриб чиқараётганини кўриш мумкин.

Швейцариянинг Давос шаҳрида бўлиб ўтадиган Жаҳон иқтисодий форумига тайёрланган маърузалардан бирида роботлар ва янги технологияларни кенг қўлланиши оқибатида 5 млн одам ишсиз қолиши, 7 млн иш ўрнига эҳтиёж қолмаслиги қайд қилинган. Форумнинг асосчиси швейцариялик иқтисодчи Клаус Шваб Bloomberg Агентлигига берган интервьюсида технологик инновациялар яқин йилларда 20 млн иш ўринларини йўқ бўлишига олиб келишини айтган. Унинг фикрича, интернетлашув ва робот техникасининг ривожланиши нафақат инсонлар қилаётган ишлар ва маҳсулотларни, балки инсон ҳаётини фундаментал тарзда ўзгартириб - “инсон ўз қалбидан (душа и сердце) маҳрум бўлиши”га олиб келади. [4]

Ахборотлашув жараёнларининг шиддат билан шундай жадаллашуви тарихий ривожланиш давомида аввал мавжуд бўлмаган янги – шахс ва жамиятга таъсир кўрсатадиган ахборот-коммуникация ресурсига эга бўлиши натижасида бир қатор муаммолар юзага келди.

Улар қуйидагилар:

- Жамиятнинг муайян қисми ахборотни қайта ишлаш ва ундан самарали фойдаланиш технологиясини эгаллаганлиги уларга ўз манфаатларидан келиб чиққан ҳолда ахборотни ўзгартириш, жамият аъзоларининг қолган қисмига ўз ғояларини тарғиб қилиш, уларга таъсир ўтказиш (манипуляция) хавфини юзага келтиради.

- АКТ ривожининг жадаллашуви “рақамли нотенглик” бўйича ихтилофни кучайтиради. Олис ва чекка худудларни мобил алоқа билан қамраб олиш даражасининг етарли эмаслиги, Интернетдан самарали фойдаланишдаги ноқулайликлар ҳам “рақамли нотенглик”ни келтириб чиқариши мумкин.

Европа комиссияси вице-президенти, Европа Иттифоқининг ташқи ишлар ва хавфсизлик сиёсати бўйича олий вакили Жозеп Боррель фикрига кўра рақамли инқилоб туфайли дунё халқлари ўртасида нотенгликни кучайишига олиб келмоқда. [5]

- Жамиятнинг ахборот инфратузилмасини технологлар яратганлиги сабабли, жамият тараққиёти ва бошқарувида технократик тамойиллар устунлик қилишининг эҳтимоли кучаяди. Шу боис, ҳозирги замон жамиятини модернизация қилиш жараёнида “инсон омили”нинг роли ошиб боради. [6]

- Ахборотни эркин олиш имкониятларининг кенгайиб бориши шахс медиамаданияти ошишини тақозо этади, фуқароларнинг ахборот маконида таклиф этилаётган медианомаларни танқидий таҳлил этиш ва уларга холис баҳо бериш, жамият ривожининг ижтимоий-маданий ва сиёсий қонуниятлари ва ўзига хос хусусиятларини тушуниш борасидаги қобилиятини ривожлантиришни ўз ичига олувчи ахборот маданиятини шакллантиришни ҳозирги кунда долзарб масалаларидан бирига айлантирди. [7]

- Инсоннинг ахборот жараёнларига таъсир кўрсатиш имкониятлари кескин равишда ошиши натижасида шахс эркинлигини унинг ўз ҳатти-ҳаракатлари учун масъуллик ҳисси билан уйғунлаштириш муаммоси долзарб аҳамият касб этади. Эндиликда ахборот коммуникацияларидан фойдаланувчиларнинг ижтимоий масъулияти ва маданиятини янада ошириш, ахлоқий меъёрларга амал қилиши янада муҳим роль ўйнайди.

- Ахборот коммуникацияларининг ривожини натижасида шахсий ҳаётнинг дахлсизлигига путур етказиши эҳтимоли ҳам юзага келади. Махсус хизмат идоралари томонидан қатор мамлакат раҳбарлари орқасидан электрон кузатув ташкил этилгани, жумладан телефондаги суҳбатларини эшитиб, мамлакат ва уларнинг шахсий ҳаётига оид маълумотларни тўплаб борилганлиги ҳақида кўплаб хабарлар оммавий ахборот воситаларида пайдо бўлиши бунга мисол бўла олади. [8]

Жамият ривожланишининг ахборот босқичига ўтаётган, ахборот олиш имкониятларининг кенгайиб бораётган, ахборот эндиликда қудратли сиёсий, иқтисодий ва мафкуравий қуролга айланган бир пайтда қуйидаги саволларнинг долзарблиги янада ортади:

- инсон ахборотни излаш, уни қайта ишлаш, уни сақлаш ва ундан фойдаланиш борасидаги кўникмаларга қай даражада эга?
- ахборот билан муваффақиятли ишлаш учун инсон қандай хислатларга эга бўлиши керак?
- тўпланган маълумотлар кимларнинг қўлига тушади ва улардан қандай мақсадларда фойдаланилади?

Бу эса ахборотни танлаш, саралаш, уни тўғри идрок этиш маданиятини шакллантириш каби инсоннинг бевосита дунёқараши, салоҳияти, тажрибаси билан боғлиқ хусусиятларни камол топтириш масалаларининг долзарблигини ошириб, инсон олдига янада чуқур билим эгаллашни, катта кўламдаги ахборотни тўла ўзлаштиришни

фуқароларда ва аввало ёшларда ахборот ресурслари ва ахборот воситаларидан самарали фойдаланиш кўникмаларини шакллантиришни ҳозирги даврнинг долзарб масалалардан бирига айланди.

Бу борада Президент Ш. Мирзиёевнинг қуйидаги таъкидларини келтириш ўринли бўлади. "..., ёшларимизнинг чуқур билимга эга бўлиши, чет тилларини ва замонавий ахборот-коммуникация технологияларини пухта эгаллашни таъминлаш доимий устувор вазифамиз бўлиб қолади" [9].

Давлатимиз раҳбарининг бу фикрларининг замирида жамиятнинг ривожини нафақат унинг техник соҳадаги ютуқлар, балки фуқароларимиз ва аввало, ёшларимизнинг ахборот маданияти даражаси билан ҳам белгиланиши, ҳар қандай техника соҳасидаги янгилик ва ғоялар маданиятнинг бир қисми бўлган тақдирдагина ижтимоий аҳамияти ошиши, техниканинг ривожини ва унинг сифати ўз навбатида ахборотдан фойдаланувчининг маданий савиясига боғлиқ бўлиши масалаларининг ҳам муҳим эканлиги ётади.

Ўзбекистонда замонавий билим, интеллектуал салоҳият ва илғор технологияларни ўзлаштирмасдан, ахборот ресурслари ва алоқанинг замонавий воситаларидан самарали фойдаланиш маданиятини шакллантирмасдан туриб бирор бир жиддий иқтисодий, ижтимоий, техник масалани ҳал этиб бўлмаслиги тўғрисидаги тасаввур тўлиқ шаклланганлигини таъкидлаш зарур.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда 30 ёшгача бўлган ёшлар аҳолининг қарийб 60 фоизини ташкил этишини эътиборга олсак, [10] Интернет ва унинг шакллари бўлган – интернет-телевидение, интернет-радио, электрон почта, онлайн-видео, ижтимоий тармоқлар каби кўплаб ахборот тарқатиш технологиялари имкониятларидан ёшларнинг маънавияти ва билим даражасини оширишда мақсадли ва оқилона фойдаланиш зарурлиги масаласи қанчалик муҳимлиги аён бўлади.

Ўзбекистонда Мустақиллик йилларида аҳоли ва аввало ёшлар томонидан ахборотни қабул қилиш, уни қайта ишлаш ҳамда фойдаланиш омилларига жиддий эътибор берилганлиги алоқа ва ахборотлаштириш соҳасида салмоқли ишлар қилинганлигида яққол намоён бўлмоқда.

Мамлакатимизда аҳоли ва айниқса ёшларимиз учун ахборот ресурслари, жумладан Интернет глобал тармоғидан фойдаланиш борасида кенг имкониятлар яратилганлигини таъкидлаш билан бирга, жамият ривожланишининг ахборот босқичига кириши инсон катта ҳажмдаги ахборотни қабул қилиш ва уни қайта ишлаш ҳамда фойдаланишнинг ҳозирги замон воситалари ва усулларини эгаллашга том маънода тайёр эмаслигини ҳам кўрсатиб қўйди.

Айни чоғда психологлар томонидан ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра, аҳолининг 15-25 фоизигина ахборотни танқидий нуқтаи назардан ўзлаштиришга қодир, қолган 75 фоиз одамлар эса, олинган ахборотнинг таъсирига шундайлигича берилиб кетади. [11]

Мутахассислар маълумотиغا кўра, интернет орқали тарқатиладиган ахборотнинг 49 фоизи сезиларли даражада зўравонлик ва ёвузликнинг, 57 фоизи ахлоқсизликнинг бевосита ва билвосита тарғиботига хизмат қилади. 25 фоиз ахборот эса ёлғон, 31 фоиз маълумот ҳақиқатга тўла мос эмас. Бу ҳолат ёшлар онгу шуурига кучли таъсир этувчи

ёт, бузғунчи ғоялар, миллий менталитетимизга зид, зарарли одат ва кўникмалар, текширилмаган ахборотга ҳам бирдек тааллуқлидир. [12]

Жаҳонда ахборот тармоқлари орқали амалга оширилаётган ахборот-маданий ва ахборот-мафкуравий экспансия жаҳоннинг турли мамлакатларида ташвиш уйғотмоқда. Истиқболда қарам бўлиб қолиш ва мустақилликни қўлдан чиқариш эҳтимоли давлатлар раҳбарларини, жамоат институтлари ва фуқароларни хавотирга солмоқда. Ҳозирнинг ўзидаёқ кўплаб мамлакатлар ўз маданияти, анъаналари ва маънавий қадриятларини ёт ахборот таъсиридан ҳимоя қилиш учун махсус чоралар кўришга мажбур бўлмоқдалар.

Бу эса инсондан ахборотни танлаш, саралаш, уни тўғри идрок этиш маданиятини шакллантириш каби инсоннинг бевосита дунёқараши, салоҳияти, тажрибаси билан боғлиқ хусусиятларни камол топтириш масалаларининг долзарблигини ошириб, ёшлар олдида янада чуқур билим эгаллашни, катта кўламдаги ахборотни тўла ўзлаштиришни ва ундан самарали фойдаланишни ҳозирги куннинг муҳим масалаларидан бири қилиб қўяди.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Тоффлер Э. Третья волна // Центр гуманитарных технологий. – М., 2004 [электронный ресурс].
2. Қаранг: Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США. – М.: Прогресс, 1966.
3. Қаранг: Колин К К. Социальная информатика – научная база постиндустриального общества // Социальная информатика-94. – М.: Ин-т молодежи, 1994. – С. 5.
4. <http://www.rbc.ru/politics/20/01/2016/569fd32c9a7947181f2c4fa1>
5. «Шафқатсиз ҳақиқат шуки...» – Европа бош дипломати муҳим масалада баёнот берди <https://www.xabar.uz/xorij/shafqatsiz-haqiqat-shuki-evropa-bosh-diplomati-muhim>
6. “Инсон омили” тушунчаси: келиб чиқиши ва ривожланиш тенденцияси <https://www.academia.edu>
7. Муминов А. Ўзбекистон: ахборотлашган жамият сари Т.: “Turon zamin ziyo” нашриёти, 2013. -164 б.
8. АНБ само доверило Сноудену ключи от секретов // <http://www.vesti.ru/doc.html?id=1170044&tid=103694> ;
Главреда The Guardian вызвали в британский парламент из-за публикации материалов от Сноудена // <http://tvc.ru/news/show/id/24385>
9. Мирзиев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ. 2017. Б.16. 1-том
10. Ёшлар кейинги 5 йилда мамлакатимиз ривожининг драйвери бўлади <https://yuz.uz/news/yoshlar-keyingi-5-yilda-mamlakatimiz-rivojining-drayveri-boladi>
11. Қаранг: Полякова Т.А. Правовое обеспечение информационной безопасности при построении информационного общества в России.- дисс. д.ю.н. – Москва, 2008. – С. 170.
12. Ахборот истеъмоли маданияти <https://yuz.uz/news/axborot-istemoli-madaniyati>

09.00.00 – Фалсафа фанлари

Холмирзаев Нодиржон Низомжонович

Тошкент давлат техника университети Қўқон филиали
“Ижтимоий ва аниқ фанлар” кафедраси мудири,
Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Тел.(99)369-23-86 **E-mail:** nodirjon86.86@mail.ru

ШАҲАРЛАР АҲОЛИСИДАГИ ИНДИВИДУАЛЛАШУВ МУАММОСИ: ТАҲЛИЛ ВА ТАКЛИФЛАР

Аннотация. Мақолада шаҳар аҳолиси, хусусан ёшларда юз бераётган индивидуаллашув муаммоси, уни юзага келтираётган омиллар, оқибатлари, ҳамда бартараф этиш бўйича таклиф ва тавсиялар ўз аксини топган.

Таянч сўзлар: Миллий қадриятлар, индивидуаллашув, эркинлик, мустақиллик, маънавий ҳаёт, замонавий маданият.

Холмирзаев Нодиржон Низомжонович

Заведующий кафедрой «Общественных и точных наук»
Коканского филиала Ташкентского государственного
технического Университета, доктор философских наук (PhD)

ПРОБЛЕМА ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ ГОРОДСКОГО НАСЕЛЕНИЯ: АНАЛИЗ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Аннотация: В статье отражена проблема индивидуализации горожан, особенно молодежи, факторы, вызывающие ее, ее последствия, а также предложения и рекомендации по ее устранению.

Ключевые слова: Национальные ценности, индивидуализация, свобода, независимость, духовная жизнь, современная культура

Kholmiraev Nodirzhon Nizomzhonovich

Head of the Department of "Public and Exact Sciences",
Tashkent State Technical University, Kokan Branch,
Doctor of Philosophy (PhD)

THE PROBLEM OF INDIVIDUALIZATION OF THE URBAN POPULATION: ANALYSIS AND PROPOSALS

Abstract. The article reflects the problem of individualization of citizens, especially young people, the factors that cause it, its consequences, as well as proposals and recommendations for its elimination.

Keywords: National values, individualization, freedom, independence, spiritual life, modern culture



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N08>

Кириш. Давлатлар пайдо бўлиб улар ривожланиш босқичига чиққан бир маҳалда аҳоли ўртасида турли муносабатлар тизимлари пайдо бўлди. Бу ҳар доим кескин муҳитни келтириб чиқарди, унда энг заифлар бостирилди ва кучлилар ўзини ўзи сақлаб қолиш учун қизғин курашга чақирилди. XVIII аср инсонни сиёсий, аграр, синфий ва диний характердаги занжирлар билан зўрлик билан боғлаб қўйди, инсон эркинлиги маъносини йўқотди. Шахсга ғайритабiiй шарт-шароитларни юклайдиган чекловлар ва узоқ вақтдан бери адолатсизликка айланган тенгсизлик шакллари юзага келди. Бундай вазиятда эркинлик ва тенгликка даъват, ижтимоий-маънавий муносабатлар соҳасидаги шахс фаолиятининг тўлиқ эркинлигига ишонч ифодаси шаклланди.

Бизнинг жамиятда ҳам бу каби омиллар пайдо бўлди. Аммо Биринчи Президентимиз таъкидлаганларидек "...бир масалага алоҳида эътибор беришимиз лозим. Яъни, коммунистик мафкура ва унинг ахлоқ нормаларидан воз кечилгандан сўнг жамиятда пайдо бўлган ғоявий бўшлиқдан фойдаланиб, четдан биз учун мутлақо ёт бўлган, маънавий ва ахлоқий тубанлик иллатларини ўз ичига олган "оммавий маданият"нинг ёпирилиб кириб келиши мумкинлигини унутмаслик керак.[3;117-118] Маълумки, "оммавий маданият" остида ахлоқий бузуқлик ва зўравонлик, индивидуализм, эгоцентризм ғоялари тарқалади. Муаммонинг энг хатарли томони шундаки, бу маданият сўзи остида юзага келиб, биринчи қадамдаёқ киши унинг салбий оқибатларини англамай қолиши мумкин. Бундай ҳолат эса халқимиз менталитетига зид бўлган индивидуализм каби салбий иллатларни шаклланишига сабаб бўлмоқда.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Ушбу соҳага бағишланган қатор илмий ишлар олиб борилган ва олиб борилмоқда. Мамлакатимизда индивидуализм ва миллий қадриятларни асраш муаммоларига бағишланган илмий ишларга олимларимиздан А. Қўзиев, А.Мирзааҳмедовларнинг номзодлик диссертацияларини мисол келтириш мумкин. Шунингдек А. Мунавваров, М. Расулова, Э. Юсупов ва бошқалар шаҳарлашиш жараёнинг маънавий ва ахлоқий жиҳатдан салбий оқибатларини, маънавият ва миллий қадриятларга таъсирини ўрганишган. Шунингдек ғарб файласуфларининг қарашларида кам индивидуализм масалалари ёрқин ифодасини топган. В.Г. Федотова "Яхши жамият" номли монографиясида сўнги вақтда жамиятда юз берган ижтимоий ўзгаришларга ҳамда кишилар ҳаётини, ҳақиқатан ҳам, яхшилаши мумкин омилларга эътибор қаратилган.

Мақолани ёритишда анализ, синтез, таққослаш каби методлардан фойдаланилди.

Муҳокама. Ғарб тадқиқотчилари ва кўпчиликнинг фикрларига кўра одамлар умумэътироф этган қоидаларга бўйсуниб улар учун фойда келтирмаслигини бундай фаолият уларни ҳаракатдан тўхтатишини англаб етдилар. Улар ўз-ўзини ҳимоя қилиш туйғусидан келиб чиқиб, ўзларини умумбашарий қонун қоидалардан чекладилар ҳамда эркин фаолият ёки индивидуалликга чорладилар. Аслини олганда индивидуализм муаммоси таихан ҳам мавжуд бўлиб, айнан шу даврга келиб ривожлана бошлади.

Индивидуализмнинг моҳиятини асослашга қаратилган қарашлар шахсни жамоага қарши қўйиш, шахсий манфаатларни жамият манфаатларидан устун кўриш билан боғлиқ ҳолда қадимги замонлардан бошлаб шаклланган. Айрим файласуфлар антик даврлардаёқ шахсий ва жамият манфаатлари ўртасида кескин зиддият вужудга

келиши мумкинлигига эътибор қаратган. Бу зиддият турли фалсафий оқим ва мактаблар вакиллари томонидан ўзига хос тарзда талқин этилган. Масалан, Афлотун ва унинг мактабига мансуб файласуфлар шахс манфаатлари жамият манфаатларига тўлиқ бўйсундирилиши зарурлигини асослашга интиланган. Киниклар эса, аксинча, ижтимоий қаёт кадриятларини бутунлай инкор этиб, шахс эркинлиги ва манфаатлари устуворлигини ёқлаб келган. [6;110]

Индивидуализм, умуман олганда, инсон эркинлиги унинг маънавий ҳаётида фаровонлик туйғуси билан акс эттиришга уринишлар бугунги ғарб инсонининг асосий ғоясига айланиб бормоқда. Ҳозирги вақтда катта шаҳар худудининг кенгайиши ва шахсий эркинликка бўлган эҳтиёжнинг ортиши ўртасидаги ўзаро таъсирнинг жаҳон-тарихий жараёни натижаси сифатида қабул қилсак шаҳарларни шахсий ва ижтимоий эркинликнинг ёки индивидуализмнинг маркази деб ҳисоблаш мумкин деган хулосага келсак бўлади.

Катта шаҳарнинг бевосита визуал белгиларида, нафақат худуднинг кенглиги шунингдек унинг аҳолисининг кўплиги, бунга катта шаҳарлар доимо космополитизмнинг диққат марказида бўлганлиги ҳам катта ёрдам берди. Натижада дунёнинг ва мамлакатимизнинг шаҳарларида айрим ижтимоий муаммолар юзага келди. Бугун республикамиз аҳолисининг 98 фоизи оилаларда истиқомат қилади ва оилалар сони 7 миллион 560 мингдан ортиқни ташкил этмоқда. Дунё бўйича олиб борилган тадқиқотлар натижасига кўра, Ўзбекистон оила ажралишлари сони камлиги бўйича етакчи давлатлардан биридир. Ваҳоланки, шундай давлатлар борки, уларда ҳар икки оиладан бири ажралиш билан барбод бўлмоқда. Албатта, бунинг сабаблари бисёр. Глобаллашув даврида оламшумул ютуқлар билан бирга инсониятнинг бой бераётган фазилати — оилапарварлик ўрнини индивидуаллашув, ҳою ҳавасларга берилиш, ота-оналик, фарзандлик бурч ва масъулиятларидан қочиш каби иллатлар эгаллаб олаётгани, моддият ортидан қувиш қатор ижтимоий муаммоларни келтириб чиқармоқда. Уларни бартараф этиш, мустақкам, соғлом оилалар сонини кўпайтириш қатор давлатлар учун энг долзарб юмушга айлангани боиси ҳам шунда. [5;3]

Таъкидлаш жоизки, катта шаҳардаги иқтисодий, шахсий ва маънавий муносабатлар инсон дунёқарашининг ўсиши, унинг маънавий худудининг ўсишига мисол бўла олади. Аммо юқоридаги фикрлардан маълумки буларнинг барчаси маълум чегаралардан ташқарига чиқиб кетган. Инсоннинг ривожланишида эришган ҳар бир кенгайиш кейинги, бир хил эмас, балки сезиларли даражада кенгайиш учун асос бўлиб хизмат қилади. Натижада айрим муносабатлар тизимига дарз кетган. Айрим шаҳарларнинг аҳамияти ундаги шахсларнинг яшаши билан боғлиқ эди ва улар билан бирга йўқолади. Бошқа томондан, катта шаҳарда, ҳатто энг муҳим индивидуал шахслар ҳам тўлиқ мустақиллиги билан тавсифланади. Масалан машҳур кишиларнинг яшаши шаҳарга нисбатан қизиқишни кучайтиради. Катта шаҳарнинг энг муҳим кадрияти унинг худудий чегараларидан ташқари функционал аҳамияти билан боғлиқ бўлиб, унинг таъсири қайтарилади ҳамда катта шаҳар ҳаётини муҳим ва масъулиятли қилади. Бундай шаҳарларда аниқ чегаралар ва унга хос кадрият ва анъаналар шаклланади. Айрим шаҳарлар вақт ва маконда ўзини намоён қилади, шунинг учун улар ўзининг бевосита чегараларидан ташқаридаги таъсирининг катталигини кўрамыз. Бу каби шаҳарларга Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Хива, Қўқонни мисол келтириш мумкин.

Шаҳарлар, энг аввало, меҳнат тақсимотининг энг катта ривожланиш марказларидир. Ўз ҳажмининг ўсишига мос равишда, шаҳар меҳнат тақсимоти учун тобора кўпроқ шарт-шароитларни яратмоқда. У ўзининг катталиги туфайли улкан одамларни сиғдира оладиган доира яратади. Энг хилма-хил меҳнат массаси, бир вақтнинг ўзида одамларнинг тўпланиши ва уларнинг харидор учун кураши шахсни меҳнатга ихтисослашишга мажбур қилади, бунда бошқаси томонидан мажбуран чиқариб юборилиши қийинроқ бўлиши мумкин. Бу ерда ҳал қилувчи нарса шундаки, шаҳар ҳаёти табиат билан яшаш учун курашни инсон учун курашга айлантирганлиги, курашаётган устунлик табиатдан эмас, балки инсондан келаётганлигидир. Чунки бу ерда гап юқорида айтиб ўтилган ихтисосликда эмас, балки чуқурроқ нарсада. Сотувчи ҳар доим мижозларда янги ва махсус эҳтиёжларни яратишга интилиши керак. Ҳали тугаб бўлмайдиган даромад манбасини, осонлик билан алмаштириб бўлмайдиган меҳнатни топиш учун ишни ихтисослаштириш зарурати аҳоли эҳтиёжларининг фарқланишига, такомиллашишига, кўпроқ бойлигига таъсир қилади, бу эса, ўз навбатида, унинг муҳитида пайдо бўлишига олиб келиши керак.

Бу жараён маънавий, тор маънода маънавий фазилатларнинг индивидуаллашувига олиб келади ва бу йўналишда ўз ҳажми ва ҳаёт тарзига кўра шаҳар ҳам таъсир кўрсатади. Бу ерда бир қатор омилларни айтиб ўтиш мумкин. Биринчидан, катта шаҳарлардаги ҳаётнинг улкан кўламини ҳисобга олмасдан маънавий кадриятларни менсимасликка уриниш бўлса иккинчидан инсонлар ўртасидаги муносабатларда манфаатлар тизмининг юқори ўринга қўйилишидир. Бу бизнинг оғриқли томонларимиз ҳисобланиб уни бартараф этмасдан ижтимоий-иқтисодий тараққиётга эришиб бўлмайди. Зеро президентимиз таъкидлаб айтганларидек - “Биз барчамиз – фуқаролар ҳам, жамият ҳам, давлат ҳам Ватанимиз равнақи учун, мамлакатимизда тинчлик барқарорликни мустаҳкамлаш учун, тарихий, маънавий ва маданий меросимизни сақлаш, бойитиш ва келгуси авлодларга безавол етказиш учун бирдек масъулмиз” [1; 37].

Аmmo ҳозирги кунда одамлар ўзларидан бошқалардан фарқ таассуротларини уйғотиб, қандайдир тарзда ижтимоий доиранинг эътиборини ўз томонига тортишга уринмоқдалар. Охир-оқибат, бу атайлаб эксцентрикларга, катта шаҳарга хос бўлган исрофгарчиликларга, ўз-ўзини изоляцияга, инжиқликларга, даъвогарликка олиб келмоқда. Буларнинг маъноси энди у ёки бу хатти-ҳаракатларнинг мазмунида эмас, балки фақат унинг шаклида ёки кўринишидадир. Бироқ, кўпчилик учун бу бошқаларнинг эътибори туфайли ўзингизни қадрлашни бошлаш ва маълум бир жойни эгаллаб турганингизни англашнинг ягона йўли холос. Шаҳар аҳолисининг бундай хатти-ҳаракати индивидуллашиш жараёни ҳисобланиб улар турли маросимлар кўринишида ҳам акс этмоқда.

Шу маънода, битта сезилмайдиган, ammo унинг натижаларининг йиғиндисиди сезиларли даражада намоён бўладиган омил мавжуд. Бу кичик шаҳарлар билан солиштирганда одамларнинг бир-бири билан учрашувларнинг қисқалиги ва камлиги. Бу ҳолат ўзини янада кескинроқ кўрсатишга ҳаракат қилади, шахс тўғрисида аниқ тасаввур аллақачон тез-тез ва узоқ учрашувлар орқали берилганидан кўра тўлиқроқ, эҳтимол кўпроқ характерли бўлиб боради. Бироқ, катта шаҳарларнинг шахсининг энг

катта индивидуаллашувига таъсирининг энг чуқур сабаби - бу ҳар доим тўғри бўладими ёки йўқ - фикримизча қуйидагилар ҳисобланади.

Натижалар. Замонавий маданиятнинг ривожланиши субъектив руҳдан объектив руҳ деб аташ мумкин бўлган нарсанинг устунлиги билан тавсифланади. Бу шуни англатадики тил ва жамиятда, техника ва санъатда, фан ва уй-рўзғор буюмларида шундай руҳ мавжудки, унинг кундалик ўсиши учун субъект унчалик тез суръатда бўлмайди ва кўпинча ундан орқада қолади. Агар биз сўнгги 100 йил ичида, объектлар ва билимларда, муассасалар ва қулайликларда ўзида мужассам бўлган улкан маданиятга эътибор қаратсак ва уни ўша даврда алоҳида шахслар эришган маданий муваффақиятлар билан солиштирсак улар ўртасидаги фарқ жуда катта бўлади. Баъзи бир нуқталарда, ҳатто шахслар ўртасида маданиятнинг регрессиясини қайд этиш мумкин. Бу бугунги кунда инсон қадридан кўра нарса ва буюмларга ўчликда намоён бўлмоқда.

Ғарб файласуфларининг қарашларида кам индивидуализм масалалари ёрқин ифодасини топган. В.Г. Федотова “Яхши жамият” номли монографиясида сўнги вақтда жамиятда юз берган ижтимоий ўзгаришларга ҳамда кишилар ҳаётини, ҳақиқатан ҳам, яхшилаши мумкин бўлган энг маъқул муқобилликлар билан бирга давримизда юз бераётган хатарнинг ортиши, глобал ва чекланган нарсалар нисбатининг ўзгариши, умид қилинаётган тинчлик ўрнига миллатчиликнинг кучайиши, чекланган урушлар ҳамда террорчиликнинг кучайишини, ғарб жамиятидаги чуқур қадриятли ўзгаришлар вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар ҳаётнинг барча соҳаларига ўтказаетган салбий таъсирларини ёритади. У индивидуаллашган оммавий жамиятнинг асосий белгиси, дейди у (гарчи бегоналашган бироқ, ўзаро бир-бирига ўхшаш индивидлардан ташкил топган омmani назарда тутувчи индивидуаллашган сўз бирикмаси парадоксал бўлиб кўринсада) - индивидуалликни, шахсни яратмасдан индивидлашув, фақат ўзи ҳақида ўйловчи худбин шахсни шакллантиришдир. [6; 110]

Бу асосан кучайган меҳнат тақсимооти ва бойликка интилишнинг натижасидир, чунки бундай ҳолат шахсдан тобора кўпроқ бир томонлама ишни талаб қилади, бу эса ўзининг энг юқори ривожланишида кўпинча шахсни бутунлай ўлдиради.

Амалда инсон ўзи англаганидан ҳам кучлироқ бўлиб, индивидуаллашув сабаб арзимас даражага тушиб қолди, аста-секин барча тараққиётни, барча маънавиятни ўзига жалб қиладиган улкан объектлар ва кучлар ташкилоти олдида чанг заррасига айланди. Натижада у моддий қадриятлар қўлида қулга айланди. Буларни бартараф этишнинг биргина йўли фикримизча муқаддас динимиз буюрган ишларни оғишмай бажаришдир.

Шуни таъкидлаш керакки, катта шаҳарлар бу маданиятнинг асосий майдони бўлиб, у ҳар бир нарсадан устун туради. Бу ерда, бинолар ва таълим муассасаларида, техника мўжизалари ва қулайликларида, ижтимоий ҳаёт шаклларида ва ташқи давлат институтларида, кристалланган, хиссиз руҳнинг шундай улкан массаси борки, айтиш мумкинки, унинг олдида инсонлар мутлақо ожиз холга келиб қолмоқда.

Таъкидлаш жоиз юқоридагиларга таянадиган бўлсак ҳаёт инсон учун чексиз осон бўлади, чунки ҳар томондан ҳаяжон ва қизиқишлар унинг вақтини ва фикрларини тўлдиради ҳамда бу уни доимий равишда оқимда ушлаб туради. Аммо, бошқа томондан, шахснинг ҳаёти ҳақиқатан ҳам кўпроқ шахсий бўёқ ва ўзига хосликни бостиришга

мойил бўлган шахсий бўлмаган мазмун ва материаллардан иборат бўлиб қолади. Бундай жараёнларда инсон ҳаётида миллий қадриятлар омили муҳим ўрин тутди.

Хулоса. Хулоса ўрнида айтиш мумкинки бугунги замон воқеликка очиқ кўз билан, реал ва ҳушёр қарашни, жаҳонда ва ён-атрофимизда мавжуд бўлган, тобора кучайиб бораётган маънавий таҳдид ва хатарларни тўғри баҳолаб, улардан тегишли хулоса ва сабоқлар чиқариб яшашни талаб этмоқда. Фикримизча индивидуллашувни ёқлар эканмиз жамиятда миллий қадриятлардан бегоналашув пайдо бўлади. Одамлар ўртасидаги ўзаро ҳурмат йўқолади. Ижтимоий қатламлар ўртасида ўзаро тушунмовчиликлар келиб чиқади. Бу жараёнларнинг энг дахшатли томони ота-она ва фарзанд ўртасидаги энг нозик муносабатларга дарз кетади. Бир сўз билан айтганда шаҳарлашув маданиятининг ушбу омили халқимиз анъаналари ва қадриятларини ривожланишга зид ҳисобланади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.–Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
2. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳо. Т.2. – Т.: «Ўзбекистон», 2018. – Б.37.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
4. Назаров Қ. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2010. –760 б.
5. Нарбаева Т.К. Оила институтини мустаҳкамлашга инновацион ёндашув – мамлакат тараққиётининг муҳим омили. Фалсафа ва ҳуқуқ 2018 й. - №2 Б-3
6. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар. Т.; Турон замин зиё – 2015 й. Б-110
7. Фалсафа қомусий луғат. – Т.ошкент: Шарқ, 2004. – 416 б.

09.00.00 – Фалсафа фанлари

Абдураимова Муқаддас Эргашовна
Сиёсий фанлар номзоди, доцент,
Тошкент давлат аграр университети

“АВЕСТО”ДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАСИ

Аннотация. “Авесто”да таълим-тарбия масаласи номли мақолада аждодларимизнинг буюк маънавий меросида таълим-тарбия ва маънавият масалаларига алоҳида эътибор берилган бўлиб, бу мерос Юртимизда қадимдан юксак маданият мавжуд бўлганидан далолат беради. Ушбу мақолада одоб-ахлоқ, таълим- тарбия, маънавият тўғрисида бой маънавий меросимиз “Авесто”да илгари сурилган ғоялар ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: “Авесто”, маънавият, таълим, тарбия, зардуштийлик, Ясна, Яшт.

Абдураимова Муқаддас Эргашовна
Кандидат политических наук, доцент
Ташкентский государственный аграрный университет

ПРОБЛЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В «АВЕСТЕ»

Аннотация. В статье на тему: «Проблема образования и воспитания в «Авесте» раскрываются вопросы образования, воспитания, духовности, нравственности в древнем духовном источнике «Авесте», подтверждающие наличие высокой духовной культуры в нашем крае с древнейших времён.

Ключевые слова: “Авеста”, духовность, образование, воспитание, зороастризм, Ясна, Яшт.

Abduraimova Mukaddas Ergashovna
PhD in Political Science
Tashkent State Agrarian University

THE TASK OF EDUCATION AND PARENTING IN “AVESTA” ANNOTATION

Abstract. The task of education and parenting in “Avesta” is said that in the great spiritual heritage of ancestors great attention is paid to the tasks of education and spirituality and this heritage proves that in our country anciently exists high culture. In this article are given ideas of the Past about morality, education, spirituality, presented in “Avesta”- rich spiritual heritage.

Key words: “Avesta”, spirituality, education, parenting, zoroastrizm, Yasna Yasht



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N09>

“Авесто” Марказий Осиё халқларининг қадимги даврдаги тарихи, турмуши, урф-одатлари, динлари, маънавияти ҳақида жуда қимматли маълумотлар беради. “Авесто” милoddан аввалги VII асрнинг охири ва VI асрнинг бошларида яратилган. Унга Зардушт асос солган, энг сўнги таҳрири милодий VI асрда тугалланган. Демак, “Авесто” бир неча минг йилдан ортиқ муддатни ўз ичига олган воқеаларни қамраб олган бўлиб, унда фақат диний маълумотларнинг ўзигина бўлмай, балки тарихий ҳодисалар ҳам ўрин олган. Шу сабабли “Авесто” Марказий Осиё ва Эрон халқларининг қадимий маданиятини (эътиқоди, тили, адабиёти), қисман тарихини ўрганишда асосий манба ҳисобланади.

Зардуштийликда Ахура Мазда азал мавжуд ва абадий илоҳ сифатида алоҳида мавқега қўйилган. Умуман, барча эзгу борлиқ унинг томонидан яратилган дейилади. Ҳар бир эзгу хилқатнинг ёвуз зидди эса Ахриман тимсолида яратилади. Умумлаштириб айтганда, деб ёзади профессор И.Хўжамуродов, - “Авесто”да яхшилик ва ёмонлик, ёруғлик ва зулмат, эзгулик ва ёвузлик бир-бирига қарама-қарши кучлар сифатида Ахура Мазда ва Ахриман тимсолларида баён этилади. “Авесто”да дастлабки фалсафий қарашлар билан диний-афсонавий тасаввурлар уйғунлашиб кетади. Шу заминда маънавий-ахлоқий баркамол одам уйғунлик-эзгуликни барқарор қила оладиган курашчан, адолатпарвар инсонни шакллантириш ғояси марказий ўринни эгаллайди”[6].

“Авесто”даги ўлмас ғояларнинг бугунги кундаги аҳамияти тўғрисида Биринчи Президентимизнинг қуйидаги фикрлари эътиборга сазовар: “Авесто”нинг туб маъно-моҳиятини белгилаб берадиган “Эзгу фикр, эзгу сўз, эзгу амал” деган тамойилни оладиган бўлсак, унда ҳозирги замон учун ҳам беҳад ибратли бўлган сабоқлар борлигини кўриш мумкин. Ана шундай фикрлар, яъни, эзгу ният, сўз ва иш бирлигини жамият ҳаётининг устувор ғояси сифатида талқин этиш бизнинг бугунги маънавий иделларимиз билан нақадар узвий боғлиқ, нечоғлиқ мустаҳкам ҳаётий асосга эга экани айниқса эътиборлидир”[1].

Дарҳақиқат, “Авесто”да инсоннинг маънавий дунёсини шакллантиришга қаратилган кўплаб ўлмас ғоялар, пандлар, ибратли фикрлар мавжуд. Шунингдек, муқаддас манбада Марказий Осиёдаги жуда кўп жойларнинг номлари қайд этилган. Мазкур ёдгорликдаги айрим қайд ва ишоралар, ном ва атамалар, “Биндахшин”нинг алоҳида фасллари зардуштийликнинг илк куртаклари пайдо бўла бошлаган даврларда ҳам ҳозирги Мовароуннаҳр ва Хуросон халқлари яшаган минтақаларда маънавият, таълим ва тарбия анча тараққий этганлигини кўрсатади.

“Тарбия, - дейилган “Авесто”да, - ҳаётнинг энг муҳим (таянчи) тиргаги бўлиб ҳисобланиши лозим. Ҳар бир ёшни шундай тарбиялаш зарурки, у аввало яхши ўқишни ва сўнгра эса ёзишни ўрганиш билан энг юксак поғонага кўтарилсин”.

Профессор Ҳ.Ҳомидийнинг ёзишича, ўша даврда аждодларимиз барча қавм ва қабила аҳллари орасида “лагомзадан” (отга сувлиқ солиш), “зин задан” (отни эгарлаш), “камарбастан” одатига қатъий амал қилинган. Масалан, чорвачилик билан шуғулланадиган қавмларда кўпроқ шу соҳага доир ҳунар ва малакалар ўргатилган: қиз болаларга юнгдан ип йиғириш, урчуқ ва чарҳда ишлай билиш, ҳар хил либослар тўқиш, тикиш, юнг олишни билиш шарт бўлса, ўғил болалар эса молларни боқиш, урчитиш ва туғдириш, туя, отларни парваришлаб, уларни бошқара олиш, узоқ яйловларга сурув

хайдаш, чорвани дарранда ҳайвонлар, қароқчилардан муҳофаза қилиш, ўттиз икки ҳарбий хунарни билишлари мажбурий бўлган [5].

Ана шу малакалар ҳосил бўлгач, қизлар 15, ўғил болалар 17 ёшида “лагомзадан” ва “зин задан” имтиҳонидан ўтган. Натижада улар балоғат ёшига етган, рўзгор юритишни ўрганиб, “кадбону” (уй бекаси), “кад худо” (уй хожаси, оила бошлиғи) бўлиш, чўпон чўлиғини олиб, от суриб, туя миниб юриш ҳуқуқини қўлга киритишган. Алоҳида иқтидорли йигитлар эса, човандозликка махсус тайёрланган, ҳарбий машқларда иштирок этган. Авестошунос олима Г.Махмудова ёзганидек, “Авестода қайд этилган ахлоқий ғоялар ибтидоий жамоа тузумида мавжуд бўлган энг қадимги ахлоқий тасаввурларнинг қоришмаси бўлиб, кейинги даврларда ижтимоий-тарихий шарт-шароитларга мувофиқ равишда ўзгарган, бойиган ва ривожланган” [4].

“Авесто”да баён этилган Яхшилик руҳи-бу яратувчилик, бунёдкорлик кучи, ёмонлик руҳи эса бузиш ва бузғунчиликка олиб келади. Яхшилик ҳаёт рамзи, ерни одамлар фойдали ҳайвонлар ва ўсимликлар билан тўлдириш, инсоният умрини соғлиқ, куч-қудрат, бахт ва шодлик, умид ва ишонч, гўзаллик ва эзгу фикрат, тўкин- сочинлик билан мунаввар этмақдир. Ёмонлик эса бунинг акси, тескарисидир. Муқаддас манбада яхшилик, бунёдкорлик, эзгулик улуғланаяпти, инсон яхшилик қилмоғи учун, ерни севиши, уни ардоқлаши зарурлиги, шунингдек, фаол ва ҳақгўй бўлмоғи зарурлигига эътибор қаратилган. Шундагина инсоннинг фаоллиги ва ўз ишини билиши туфайли яхшилик дунёси кўпайиб, инсон ўз қалбидаги қат-қат ёмонлик, зулмат ва золимликдан фориғ бўлади.

“Авесто”нинг Гоҳлар қисмида Эзгулик илоҳи Ахура Мазда шундай дейди: “Ўзгаларни яхшиликка олиб борган кимсаларгагина яхшилик насиб этади”... Ҳақиқат нурлари остида, Эзгу Ниятдан яралган маърифатингдан бизларга ҳадя қил, токи тириклигимизнинг ҳар лаҳза, ҳар соат, ҳар бир кунида шодмонликдан баҳраманд бўлайлик. Яхшилик, Маърифат, Эзгулик тўғрисидаги фикрлар одамларнинг қалбидан ўрин олишига, уларнинг покдоман бўлишларига ҳам “Авесто”да катта эътибор қаратилган. Қачонки, - дейилади пандномада, - Эзгу Ният менинг қошимга келди ва илк бор Сенинг каломингни эшитдим, иқрор бўлдимки, уни одамлар орасига олиб бормоқ боғоят оғирдир. Бироқ мен Сенинг энг эзгу бўлган каломингни, нима бўлмасин, сўнгигача еткаргайман. Шундан сўнг, мен Сени пок деб билдим. (“Авесто”. Гоҳлар. Ясна, 43-Ҳот, 18-19 бетлар)

“Авесто”нинг барча қисмлари инсонга ҳурмат туйғулари билан суғорилган: еру кўкдаги барча ҳаётини нозу неъматларни севиш ва ардоқлаш инсон учун муқаддас бурч ҳамда вазифа ҳисобланган.

Аждодларимиз мероси “Авесто”да болалар тарбиясига алоҳида эътибор берилган. Уларнинг фикрича, тарбияли бола ҳар нарсага қодирдир. Яъни, тарбияли бола энг аввало интизомли бўлади. Интизом эса барча эзгу ишларнинг асоси эканлигига улар ишонишганлар. Шу сабабли ҳам, фарзандларининг меҳнат малакасини оширишга, уларга хунар ўргатишга жиддий эътибор берганлар. Табаррук китобдаги мазкур вазифаларнинг қадри ва аҳамияти бугунги кунда яна ҳам ортди, чунки мамлакатимизда амалга оширилаётган бунёдкорлик ишларимизнинг натижаси кўп жиҳатдан ёшларимизнинг иқтидори, салоҳиёти, ташаббускорлиги, фидоийликлари, ватанпарварлиги ва маърифатига боғлиқдир.

Болаларнинг тарбияси ёшлигидан йўлга қўйилмас экан, катта бўлганидан кейин ҳам уни ўзгартириш мушкулдир. Шу сабабли болани ёш ниҳоллигидан эҳтиёткорлик билан парваришlash керак. Республикамизнинг Биринчи Президенти Ислон Каримов “Юксак маънавият-енгилмас куч” номли асарида таъкидлаганидек, “Кўп йиллик илмий кузатиш ва тадқиқотлар шуни кўрсатадики, инсон ўз умри давомида оладиган барча информациянинг 70 фоизини 5 ёшгача бўлган даврда олар экан. Боланинг онги асосан 5-7 ёшда шаклланишини инобатга оладиган бўлсак, айнан ана шу даврда унинг қалбида оиладаги муҳит таъсирида маънавиятнинг илк куртаклари намоён бўла бошлайди. Халқимизнинг “Қуш уясида кўрганини қилади”, деган доно мақоли, ўйлайманки, мана шу азалий ҳақиқатни яққол тасдиқлайди” [1].

Дарҳақиқат, халқимизнинг мақоли “бола бошидан” деганларидек, ёшлигидаги тарбия бошқача ва таъсирли бўлади. Айнан мана шу даврда болалар яхши - ёмон нарсани тушуниб, англай бошлашини, уларнинг мурғак қалбида Эзгулик ва Ёмонлик тушунчалари шаклланишини ота-боболаримиз теран англаганлар ва фарзандлари қалбида яхшилик уруғини ўстиришга ҳаракат қилганлар. Ана шу ўлмас ғоялар маданий ёдгорлигимиз “Авесто”да ниҳоятда таъсирли ва асосли қилиб тасвирланган. “Болалар, - дейилган тарихий манбада, - ёш пайтиданок дарахт ўтқазиб, уй-рузғор қуроллари яшаш, ерга ишлов бериш ва чорва билан шуғулланишга ўргатилиши шарт”. (“Авесто”. Ясна, 19, 43, 68-Ҳотлар, -18, 22, 57, 63, 76, 86, 96 бетлар).

Муқаддас манбада, юқорида номлари келтирилган юмушларни бажариш шарт қилиб қўйилган, мажбурий воситаларга айлантирилган.

Аждодларимиз томонидан меҳнат доимо улуғланиб келинган, чунки меҳнат барча бойликларнинг асоси, ҳамма тўкинчиликнинг сабабчиси, бутун ноз-неъматларнинг яратувчисидир. Меҳнат энг аввало жуда катта тарбиявий воситадир. “Яхшилик, - дейилган илоҳий китобда, - меҳнат қилиши, ўз қўллари билан моддий ноз-неъматлар яратиши лозим”. Аксинча меҳнат қилмаётганлар танқид остига олинган, улар энг паст одамлар қаторига қўшилганлар. Айни вақтда дангасалардан бараканинг қочиши уқтирилган. **“Меҳнат қилмайдиган одам, - дейилган “Авесто”да, - сен ҳақиқатан ҳам тиланчилар қаторида ёт эшикларга таъзим қилиб, абадул- абад бош эгиб туражаксан”**. Ҳақиқатдан ҳам сенинг ёнингдан турли хил зироатларни олиб ўтадилар, бу ноз- неъматларнинг барчаси меҳнат қилаётган, тўқ фарован яшаётган хонадонга насиб этади. Абадул - абад шундай бўлажак!

Зардуштийлик дини, яъни якка Тангрига эътиқод расман қабул қилинган, ўлкамизда таълим-тарбияга эътибор янада кучайди. Ибодатхонада – оташкадалар ҳузурида подшолик тасарруфидаги махсус мактаблар очилади, мадраса типидagi билим даргоҳлари ташкил қилинади, уларнинг таълим тизими ишлаб чиқилади; таълим жараёнига энди математика, астраномия, тиб билими, тарих, ҳуқуқшунослик, гигиена сингари фанлар тобора кўпроқ кириб боради; бунда ёшларнинг таълим- тарбияси, маънавий камолатига ҳам алоҳида эътибор берилади.

Тадқиқотчилар (Ҳ.Ҳомидий, Г.Махмудова)нинг фикрича, ёшларга таълим - тарбия беришда ҳар бир зардуштийнинг поктийнат, хулқи ҳалол, қўли тўғри, некбин бўлиб вояга етказилиши кўзда тутилган. Ана шу эҳтиёж ва талаблардан келиб чиқиб “Авесто”да тарбиячилар, муаллимлар, устоду мударрисларнинг бурчлари белгиланган, улар зиммасига жамиятнинг энг муҳим юки топширилганлиги қайта-қайта уқтирилган.

Натижада муаллим ва мударрислар ўз илмини нечоғлик ўзлаштирганлиги, касбига муносабати, чечан, уддабурон, фидойилиги, танбал, бефарқ ва маъсулиятсизлигига қараб “яхши” ва “ёмон” устозларга ажратиб изоҳланган, баҳо берилган.

“Авесто”да қайд этилганидек, яхши устозлар “соғлом ақл-хушли фарзандларни, жасур, доно ва турли тилларни биладиган ўғил- қизларни, элни бало-қазолардан ҳимоя эта оладиган ўғлонларни, яхши келажак, порлоқ ҳаётни равшан кўз билан кўра оладиган авлод”ни тарбиялайди. У ёшлар қалбида ўз дини, халқи, юртига меҳр уйғотади, уларни ҳалол меҳнат эвазига ризқу-рўз топиб яшашга ўргатади, покдоманлик, ҳамкорлик, одамларга фақат яхшилик ишташ ўқувчиларга фақат донишманд устозлардан юқади. Муқаддас манбада айтилганидек, яхши устоз ёшларни рост йўлга бошламоғи, яхшилик йўлида раҳномалик қилмоғи, уларнинг қалбига ҳаётга муҳаббатни сингдирмоғи лозим. “Авесто”да қиз болалар тарбиясига алоҳида эътибор бериш лозимлиги бир неча ўринда махсус таъкидланган: “Ўғил болаларга нисбатан қиз болалар илму дониш ўрганишга жиддийроқ киришсинлар. Зероки, улар ота-она хонадонида бўлган вақтларида ота рузгорини тартибга солиб, зийнат бериб борсалар, жуфти ҳалоли манзилига боргач, болалар тарбияси, таълим билан, келажак насл тарбияси билан машғул бўлмоқлари лозим бўлади”. Муқаддас манбада ҳар бир фарзанд бирон касб билан шуғулланиши, банд бўлиши, меҳнат қилишига алоҳида эътибор берилган. Шунингдек, бировларга муҳтож бўлиб, тиланчилик қилишлик қораланган. Ана шу талабдан келиб чиқиб, таълимнинг амалиёт билан боғланиб олиб борилишига аждодларимиз жиддий эътибор беришган. (“Авесто”. Вандидод, Аша қасидаси. 208-214 бетлар)

“Авесто”да ёмон тарбиячилар қораланиб, уларни ёшларни тўғри йўлдан адаштирувчилар деб танқид қилинган:

Ёмон тарбиячи ўз таълими билан илоҳий сўзларни тескари қилади ва тириклик идрокини хароб айлайди.

Ҳаққатда у одамларни ростликнинг бебаҳо сармоясидан ва Эзгу Ниятидан баҳрасиз айлайди.

Ҳақиқатда, ўшалар тирикликни тубанликка итариб ташлашади. Улар каззоб дурвандларни улуғ санаб, кўкларга кўтардилар. Аёл ва эрларни илоҳий каломлардан баҳрасиз қолдирадилар.

Эй, Мазда!

Улар ҳақиқат йўлидаги ашаванларга ғов бўладилар.

Улар бу таълимотлари билан инсонларни энг солиҳ амалларидан манъ этадилар.

Улар оламлар аҳли тириклигини ўзларининг адаштирувчи ҳукмлари билан паришон этадилар. (“Авесто”. Гоҳлар. Ясна,32-Ҳот,14бет)

Тарихий манбада ёмон муаллим, одамларни тўғри йўлдан қайтариб, жоҳилият сари етаклайди, Ватан равнақи, одамларнинг ижодий меҳнатини кўра олмайди, ер очиб, ерни шудгор қилиб, ҳалол меҳнат билан экин экканларга, боғдорчилик, зироатчилик билан шуғулланиб, чорвани кўпайтириб, бунёдкорлик қилганларга ёмон кўз билан қараб, одамларни бебаҳо анъаналардан маҳрум қиладилар.

Адолат, ҳақиқат, эзгулик, бунёдкорлик, маърифатпарварлик, фарзандлар тарбияси доимо аждодларимиз диққат-эътиборида бўлган. Ҳақиқатнинг мезони тўғрилиқ, ҳалолликдир. Шунинг учун ҳам “Авесто”да ҳақиқат мадҳ этилган, улуғланган. Чунки, ҳақиқат қарор топган жойда ўзаро ишонч, меҳр-оқибат қарор топишини, у ерда

барқарорлик, тинчлик ва ривожланиш учун шарт - шароит бўлишини аждодларимиз яхши билганлар ва шу сабабли ушбу ғояларни фарзандлари онгига сингдиришга, уларни одобли-ахлоқли қилиб тарбиялашга алоҳида эътибор берганлар. “Авесто”нинг ҳаётбахш бу ҳикматлари бугунги кунда ҳам инсонларга беминнат хизмат қилиб, уларни маънавий бойитмоқда. Мамлакатимизда мустақиллик йилларида маънавий- маърифий соҳада амалга оширилаётган ислоҳотлар, халқимизнинг бой тарихи, маданий-маънавий меросини ўрганиш борасида олиб борилаётган ибратли ишлар, улардан ёшлар тарбиясида фойдаланиш бугунги кун талабидир. Аждодларимиз буюк маънавий мероси “Авесто”да маънавият ва таълим- тарбия тўғрисида илгари сурилган ўлмас ғоялар баркамол авлод тарбиясида ҳозир ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлиб қолмоқда.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008.Б.-31-32
2. Авесто. Тарихий - адабий ёдгорлик. А.Маҳкам таржимаси, Т.:Шарқ, 2001.-Б.-14, 18-19, 114-115, 184-185, 208, 214.
3. Махмудова Г.Т. Авестонинг фалсафий моҳияти.-Т.: Ношир, 2015.-Б.- 155-160.
4. Махмудов Т.М. «Авесто» ҳақида. Т.: Шарқ, 2000.-Б.-23, 30 -35.
5. Ҳомиджон Ҳомидий. Авестодан Шоҳномага. Т.: Шарқ, 2007.Б.- 67,71.
6. Хўжамуродов И.Р.Авестода маънавият масаласи // Мулоқот, 1996,1- сони.-Б.-59-61.
7. Хўжамуродов И.Р. Авестода эътиқод масаласи //Ўзбекистон Аграр фани хабарномаси , 2013, 2-сони.Б.-91.
8. Хўжамуродов И.Р. “Авесто”да деҳқончилик маданияти. –Т.: Наврўз, 2018,-Б.- 25-37.
9. Исоқов М. Эзгу ўй, эзгу сўз, эзгу амал китоби.-Т.:2001.-Б.-18-21.
10. Бобоев Х., Хасанов С. “Авесто” маънавиятимиз сарчашмаси.-Т.: Адолат, 2001.-Б.- 37-42.



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. № S/1 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>

10.00.00 – Филология фанлари

Axmedov Oybek Saparbaevich
DSc in philology, professor of UzSWLU
+998946187802

Djumambetova Gulziba Kongratbaevna
Doctoral student of Karakalpak State University
gulziba2020@mail.ru
+998972201012

COMPARATIVE-TYPOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ECONOMIC TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. The article is devoted to the field of terminology in English and Uzbek languages, namely, creation of economic terms that actively used in economic activities. Moreover, this article provides a brief overview of the formation and construction of economic terms.

Key words: economic terms, word change, language, suffixes and prifixes

Axmedov Oybek Saparbaevich
Filologiya fanlari doktori, O'zbekiston jahon tillari universiteti professori

Djumambetova Gulziba Kongratbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doctaranti

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA IQTISODIY TERMINLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK XARAKTERISTIKASI

Annotatsiya. Maqola ingliz va o'zbek tillaridagi terminologiya sohasiga, ya'ni iqtisodiy faoliyatda faol qo'llaniladigan iqtisodiyot terminlariga bag'ishlangan. Bundan tashqari, ushbu maqolada iqtisodiy atamalarning shakllanishi va tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy terminlar, so'z o'zgarishi, til, qo'shimchalar

Ахмедов Ойбек Сапарбаевич
Доктор филологических наук,
профессор Университета мировых языков Узбекистана,

Джумамбетова Гулзиба Конгратбаевна
Докторант Каракалпакского государственного университета

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. Статья посвящена области терминологии английского и узбекского языков, то есть экономическим терминам, активно используемым в хозяйственной деятельности. Кроме того, в данной статье представлен краткий обзор образования и построения экономических терминов.

Ключевые слова: Экономические термины, словоизменение, язык, суффиксы.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N10>

We can say that the 21st century is the age of globalization, integration and information period. During the years of Uzbekistan's independence, many new terms related to the economy began to enter the Uzbek language. The main reason is that our country's economy has been changed rapidly after gaining independence. For this reason, neologisms that serve the market economy are increasing. The formation and development of each terminological system is inextricably linked with this particular field, as it acquires its specificity in the field.

Investigating economical terms are relevant for both general and comparative linguistics. Moreover, the modern scientific community of linguists pays great attention to the terminological system as an important component of the lexical composition of the language, acting as the semantic basis of the vocabulary of professionally oriented science.

The term is derived from the Greek word "terminus" which means "limit". It is a word specific to science and technology, agriculture, art and culture. If we focus on the difference between a word and a term, a word can have multiple, additional and hidden meaning. As a term is a word, it is distinguished from ordinary words by its clarity of meaning, conciseness, brevity, foal use in a special field, tendency to one meaning. It is the fact that terms do not express feelings. The terms are mainly composed of nouns and adjectives, express specific concepts in certain areas, perform a special task within the lexicon of a certain area, and structurally consist of words and word combinations. There are various linguists' opinions about terms and words. For example, according to G.O. Vinokur; "Terms are not separate words, but only words that perform a separate task." He also puts forward the idea that: "Any word, no matter how trivial it is (insignificant, has lost its power), can serve as a term." Words and terms related to any field should be clear, concise and logically based. Certain parts of the terms are given with ready-made alternatives to our native language, a certain part is translated and used. The rest part of terms is created and changed based on the laws of the Uzbek language. Terminology means the doctrine of terms and the meaning of a set of terms. Terminology allows to understand and apply concepts or factors in a particular field, as well as how to use terms in context.

The terms actually have a general lexical-semantic literary pattern, which transferred to the common language through a certain terminological system. Terms and general words are complementary lexical units. According to Ferdinand de Saussure, language is a whole system and all lexical elements form this whole. Any combination of these elements is related to the constituent parts between them. He was the first who justified theoretically that the structure is a complex whole with a connection scheme between elements. [2; 66] The problem of learning terms related to economy has always attracted the attention of linguists, but recently it has become especially actual in connection with globalization in the world.

In Uzbekistan, many studies were conducted in the research and development of the field of terminology. Especially the development of socio-economic and political lexicon is well revealed in the researches of H. Dadaboev. Almost all scientific works of the scientist are devoted to the study of terminological problems, some historical etymology of ancient Turkic language (vi-x), old Turkic language (xi-xiv) and old Uzbek literary language (xv-xix) and actively used customary terms were scientifically comprehensively analyzed on the example of the Uzbek language [3; 240]. His above-mentioned scientific works not only provide rich factual-analytical material from the history of terminology, but also give chance to imagine about the use of terms in the military, socio-economic terminology system, as well as terms which belong to the Arabic, Persian, and Mongolian languages. In his works, the meaning of the terms used in the Orkhon inscriptions, old Turkic language monuments and old Uzbek language sources and their subtleties of meaning were explained with the help of physical evidence from the monuments.

НАЗВАНИЙ МЕСТ ФОРМИРОВАННЫМ НА ОСНОВЕ ЭТНИЧЕСКИХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ И ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. в данной статье представлены сведения о топонимии, образованной на основе этнонациональных обычаев и ценностей Охангаронского, Паркентского, Бостонликского, Кибрайского районов Ташкентского оазиса и города Чирчик. Представлены мнения о народной и научной этимологии появления этих топонимов.

Ключевые слова: Искандар, Богистан, Бетагали, Байткурған, Бостонлик, Котырбулок, Аксакотасой, Нуракиотасой, Паркент, Навдак, Санганак, Заркент, Номданак, Согок, Чанги, Кумушкон, Шампанское, Яланғоч.

Abdullaev Akmal Amirovich
Chirchik State Pedagogical University
Doctoral student of the Department of Uzbek Linguistics
e-mail: akmalabdullayev713@gmail.com

PLACE NAMES FORMED ON THE BASIS OF ETHNIC AND NATIONAL CUSTOMS AND VALUES

Abstract. this article provides information about place names formed on the basis of ethnic and national customs and values of Ohangaron, Parkent, Bostonliq, Qibray districts of Tashkent oasis and Chirchik city. Opinions about folk and scientific etymology of the appearance of these place names are presented.

Key words: Iskandar, Bogistan, Betagali, Baitkurgan, Bostonliq, Kotyrbulok, Aksaqotasoy, Nurakiotasoy, Parkent, Navdak, Sanganak, Zarkent, Nomdanak, Sogoq, Changi, Kumushkon, Champagne, Yalang'och.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N13>

Ономастиканинг асосий ўрганиш объектларидан бири ҳисобланган топонимлар шунчаки жойнинг атоқли номигина бўлиб қолмасдан, улар лингвокультура сифатида ўз семантик кейсида аждодларимизнинг этногенези, урф-одат, касб-хунар, ижтимоий, маданий-маънавий, диний-фалсафий қарашлари, жойларни номлашдаги моҳирлик ва топқирлиги каби экстралингвистик хусусиятларни мужассамлаштиради. Топонимлар ўзбек тилининг тарихий, лисоний бойлиги, халқ маънавиятининг катта мероси сифатида лингвомаданиятшуносликнинг ҳам ўрганиш объектларидан бири ҳисобланади. Ушбу фикрлар Тошкент воҳасининг биз тадқиқ қилаётган Оҳангарон, Паркент, Бўстонлик, Қибрай туманлари ҳамда Чирчиқ шаҳри учун ҳам бевосита тааллуқлидир.

Президентимиз Тошкент воҳаси ҳақида “Сўлим ва бетакрор Чирчиқ воҳаси, Олмалик ва Оҳангарон кенгликларида жойлашган Тошкент вилояти, бу кўҳна диёр ҳар қандай юксак таърифга муносибдир. Бу заминнинг унумдор тупроғи, қут-барака ёғиладиган дала ва боғлари, олтин, кумуш, мис, мрамор, кўмир каби заҳираларга бой конлари, энг муҳими, меҳнаткаш, бағрикенг, кўп миллатли халқи ватанимиз равнақиға муносиб ҳисса кўшиб келмоқда.” [1; 406-б.] – дея таъриф беради. Ҳақиқатан ҳам бу кўҳна замин бой ва бетакрор тамаддун тарихига эга. Мазкур ҳудудда халқимизнинг қадим-қадимдан шаклланиб келган этник ва миллий урф-одатлар ҳамда қадриятлар асосида шаклланган жой номлари кўплаб учрайди. Жумладан,

Искандар қишлоғи (Бўстонлик т.). Бу Чирчиқ дарёсидан биринчи сув олувчи каналнинг номи билан боғлиқ. 1889 йили бу канал ўрнида кичик бир “сарт” ариғи бўлган, бу ариқни подшо Александрнинг қариндоши Николай Романов қайта қурдириб, унга “Оқ подшо” Александрнинг номини қўйдиради [2; 19-б.]. Бу ҳақда профессор С.Қораев бир китобида: “Toshkentdan yuqoriroqda Chirchiqdan chiqarilgan ariq. 1883-85- yillarda rus knyazi Nikolay Konstantinovich qazdirgan va uning nomi bilan atalgan kanal. Xalq orasida chor knyazi Iskandarto‘ra deb atalar edi.” [3; 137-б.] - дея маълумот беради; яна бир китобида: “Чирчиқ шаҳри яқинидаги Искандар қишлоғи ва Искандарариқ анҳори эса Романовлар хонадони вакили Император Александр III шарафига шундай аталган: подшо Александрни халқ Искандартўра деб атаган” [4; 16-б.] – дея маълумот келтиради. Бошқа бир манбада “1885 йилда князь Романов томонидан Чирчиқ дарёсидан Искандарариқ (50 км) қурилди, у 4260 десятина ерни суғорди.” [5; 66-б.] – деган маълумотни учратамиз. Яна бир интернет нашри манбасида “Князь Искандар ариқ, Бухоро ариқ ва Романов канали қурилиши ишларига раҳбарлик қилади. 1886 йилда у Марказий Осиёдаги энг улкан лойиҳа – Тошкент ва Жиззах ўртасидаги чўлнинг бир қисмини суғориш учун Сирдарёдан канал чиқаришга киришади. Ушбу канал қурилиши Николай Романовга ўша вақтдаги пул бўйича бир миллион рублдан ортиққа тушади ва уни машҳур қилиб юборади.” [6] – дея маълумот берилган. Бизнингча, С.Қораевнинг биринчи келтирилган ҳамда А.Мухамедовнинг келтирган маълумотлари ҳақиқатга тўғри келади. Аста-секин ушбу ариқ бўйидаги ҳудуд ободонлаштирилиб, аҳоли яшайдиган жойга айлантиради ва маҳаллий халқ ушбу ариқ номини миллий урф-одатга кўра маҳаллий сўзлашув тилига

мослаб “Искандарариқ” деб юрита бошлайдилар. Кейинчалик қўшма топонимдаги “ариқ” топоформанти тушиб қолиб, жой номини “Искандар” деб атаганлар. Ҳозирги кунда ҳам ушбу қишлоқ шу ном билан юритилиб келинмоқда.

Боғистон қишлоғи (Бўстонлик т.). Машҳур диний уламо Хожа Убайдуллоҳ Аҳрори валий ҳазратлари таваллуд топган қишлоқ (1404 – 1490). Профессор Ҳ.Ҳасанов ушбу жой номининг этимологиясини “Буғустон”, яъни “Буғули ер” деб изоҳлайди [7; 17-б.]. В.В. Бартольд “Эроннинг тарихи ва тарихий географияси бўйича ишлар” (“Работы по исторической географии и истории Ирана”) асарида Боғистон деган жойни “Худо ватани” деб таржима қилган (Ислом динидан олдин боғ сўзи эрон тилларида “худо” маъносини англатган, бу сўзнинг фоғ (фуғ) вариантлари ҳам бўлган.) [8; 171-б.]. Бу топоним “боғлар ўлкаси” деган маънони ҳам англатиши мумкин. Профессор И.П. Петрушевский ҳам “Боғистон” топонимини шундай изоҳлаган [9; 128-б.].

Бетагали қишлоғи. Оҳангарон туманида Бетагалисой, Бетагали деган қишлоқ мавжуд. Бетага деб майда бир ўт тури айтилади. Бу ўт бута-бута, яъни тўп-тўп бўлиб ўсади. Эҳтимол, бўтака сўзи вақтлар ўтиши билан талаффузда “бетага” шаклига келиб қолгандир. Ҳазрат Бобур “Бобурнома”да айтгандек: “...Ўт тоғининг ва пуштасининг ва жулғасининг бирдек бўлур ва хўб бўлур, аксар **бутака** ўти бўлур, отга бисёр созвор ўттур. Андижон вилоятида бу ўтни **бутга ўти** дерлар, важҳи тасмияси маълум эмас эрди, бу вилоятда маълум бўлди. Бу ўт бута-бута (яъни тўп-тўп – А.А.) чиқар учун **бутага** дерлар эмиш. Бетакани от кўп хуш кўриб ейдир.” [10; 102-б.]. Бетага еган йилқи яхши семиради. Бетагали яйловда юрган бияларнинг қимизи ёғли ва ёқимли бўлади.

Байтқўрғон мавзеси. Қибрай туманида, Чирчиқ дарёсининг ўнг қирғоғида жойлашган. Ушбу манзилда истиқомат қилувчи кексаларнинг сўзларига қараганда, бу манзил пайдо бўлмасидан илгари қишлоқ атрофи қамишзор ва тўқайзорлардан иборат бўлиб, бу ерда фақатгина Байтибой деган бир қозоқ бойнинг кўрғони бўлган экан. Кейинчалик Қибрай ва Тошкентдан деҳқонлар кўчиб келишиб, уйлар қуриб, бу ерни обод қилишган ва бу ерга биринчи асос солган Байтибой номи билан Байтибойнинг кўрғони – Байтқўрғон бўлиб қолган дейишади. Айримлари Байтиқўрғонга шаҳардан шоир-у адиблар келиб, бу ерда ғазалхонлик, яъни байтхонлик қилишган, шунинг учун шундай ном беришган, ҳам дейишади.

Бўстонлик тумани – Тошкент вилоятининг энг сўлим, туризм ривожланаётган туманларидан бири. Бўстонлик “боғ-роғ” маъносидаги бўстон сўзидан кўра бўстон (бўзтўнли) деган уруғ номи билан аталган дейиш, тўғрироқ бўлса керак. Сабаби “Бўстўн-бўстон (бўзтўнли) умумтуркий этноним саналади. Қозоқ, озарбайжон ва ўзбеклар орасида топонимга айланган.” [3; 177-б.]. Шу туманда Чимбойлик деган қишлоқ ҳам бор (Чимбой – уруғ номи) -лик, -лик аффикслари кишиларнинг қайси қабила-уруғ ёки ҳудудга мансублигини билдирувчи қўшимча: масалан, минг қабиласидан бўлган кишилар минглик деб аталган.

Қўтирбулоқ (Паркент тумани) – бу булоқ сувининг минераллашув даражаси 0,7 г/литрни ташкил этади. Бу шифобахш булоқнинг таркиби хлор-сульфат-гидрокарбонатли, ҳарорати 36,2°C атрофида [11; 21-б.]. Ушбу булоқнинг суви қўтир касаллигини даволашда қўл келиши маҳаллий аҳолининг булоққа нисбатан миллий

қадрият сифатида қарашига сабаб бўлган ва булоққа унинг шифобахш хусусиятидан келиб чиқиб ном берилган.

Оқсоқотасой ва **Нуракиотасой** каби гидронимлар ҳам миллий урф-одатлар ва диний қадриятлар асосида шаклланган жой номлари ҳисобланади. Ушбу гидронимлар таркибидаги **-ота** индикатори ҳақида филология фанлари доктори О.Т. Бегимов шундай маълумот беради: “**Ота (туркча - ада) индикатори**. Оронимлар ва гидронимлар таркибида индикатор вазифасида келган бу сўз, ҳозирги шаклига кўра, “улуғ, муқаддас” маъноларини касб этиб, мазкур объектларни илоҳийлаштириш тушунчасини ифодалайди. -ота компонентли кўпгина топонимлар ҳам махсус тадқиқ этишни талаб этади. -ота компонентли топонимларнинг ареали кенг, уларни Ўрта Осиё, Афғонистон, Қирғизистоннинг жануби-шарқий томонидаги узоқ жойларда, яъни Хитойнинг Кошғар тоғ тизмаларида – Мустоғ ота йирик чўққиси номида кўриш мумкин.” [12; 90-б.]. В.А. Никонов “**-ота** компоненти тўғрисидаги баҳсни биргина оронимлар мисолида ҳал этиб бўлмайди. Чунки бу сўз бошқа объектлар, айниқса, гидронимлар таркибида ҳам учрайди” [13; 98-б.], – деган фикрни илгари сурган эди. В.А. Никоновнинг кўрсатишича, Н. Попова **-ота** компонентли гидронимлар культ билан эмас, балки **ата** – «тез оқмоқ» архаик феъли билан боғлиқ, деган гипотезани илгари сурган [13; 98-б.].

-ота компоненти ҳақидаги илмий фаразларни О.Бегимов яна шундай изоҳлар билан тўлдирди: “Биз оронимлар таркибида учрайдиган **-ота** компонентини “дўнглик, баландлик; сув ичидаги баланд жой, орол” маъносидаги о:та ~ а:да сўзи билан боғлиқ деб ўйлаймиз. Ўзбекистон оронимиясида -ота компонентидан ташкил топган қуйидаги номлар учрайди: Оқота (Кт., чўққи). Шунингдек, Увада (Чр.) топоними таркибида ҳам шу компонент сақланган: Ува+да<Ува + а:да~Ува+о:та. Бу компонентнинг оронимлар таркибида келиши кишиларнинг қадимда тоғ-тошларни илоҳийлаштириши, уларга сиғиниши билан боғлиқ” [12; 91-б.].

Машҳур саркарда, шоҳ ва шоир Заҳриддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асари Тошкент воҳасидаги баъзи жой номлари ҳақида қимматли маълумот берувчи ўрта асрларга оид муҳим топонимик манбалардан биридир. Ушбу асарда ўша даврга оид жуда кўплаб жой номлари келтирилган; ўз ўрнида мазкур жой номларига баъзи изоҳлар ҳам ҳам берилган. Асарда XVI аср бошидаги жой номлари ўша вақтдаги умумхалқ тилидаги айтилиши транскрипцияда берилган. Шунингдек, айрим номларнинг тарихий-этимологик маъноси, унинг пайдо бўлиши ўша ерлик аҳолининг этногенезиси ва лингвомаданий ривожига билан боғлиқлиги ҳақида баъзи ривоятлар билан боғланганлиги ҳақида маълумотлар бор. Жумладан, асарда Паркент тумани ҳақида асарда қуйидаги маълумотларга дуч келамиз: “... Ҳазрати Хўжаго Хожа Самарқанддин чиқиб келиб, **Фаркатта** ўлтуриб эрдилар. **Фаркатқа** чиқиб Хўжани кўрдим. Умидвор эдимки, хон додам риоят ва иноят мақомида бўлуб, вилоят ва паргана бергайлар” [10; 116-б.].

“**Паркент**” топонимининг пайдо бўлиши ҳақида бир қанча нақллар мавжуд. Маҳаллий аҳолининг баъзилари Паркент жуфт (пар) қишлоқ, яъни сойнинг икки соҳилидаги қишлоқ дейишади (Учқўрғон ва Ўчоқ даҳалари назарда тутилган – А.А.). Баъзилари эса бу ерда парисимон одамлар яшагани учун Пари кент – парилар шаҳри номини олган деб тахмин қилишади. Яна бир фикрга кўра, Фаркат – фаровон қишлоқ

[11; 54-б.]. Пар – баланд маъносига ҳам эгалиги ҳисобга олинса, Паркат баланд қишлоқ ҳам бўлиши мумкин. Албатта, бу нақл ва ривоятлар жудаям асоссиз эмас. Қишлоқнинг қадимги номи Фарнкат (Фаркат) эканлиги ҳам шубҳа туғдирмайди. Бунга юқорида номлари келтирилган қадимги географларнинг қўлёзмаларида бу манзилнинг шу ном билан қайд этилиши етарли далилдир. Кат қўшимчаси суғд тилида обод жой – шаҳар ёки қишлоқни [14; 111-б.], Фар – нурни билдиришини ҳисобга олиб, нурафшон қишлоқ деса ҳам бўлади. Лекин қадимшунослар, Фаркат топонимаси зардуштлиқ динига боғлиқ маъбудлардан бири – Фарн (Фарн – илоҳий олий зот. Бахт, омад рамзи, нурли сиймо. Оқ қуш, оқ қўй, оқ от ва бошқа қиёфаларда тасаввур қилинган. Авесточа – Хварно)га бағишланган ибодатхона номидан келиб чиқиш эҳтимоли кўпроқ, деб билишади. Хварно сўзи илк форс тилида фарн, сўнг фар, суғд тилида эса пар шаклида ишлатилган. Масалан, фарах – бахтли ҳаёт (вахи авесточа – ҳаёт) [15; 53-б.].

Тадқиқотчи адабиётшунос олим М. Исоқов изоҳларига кўра: “Фарн узоқ аждодларимиз тасаввурида дину-диёнатда, имону-эътиқодда, эзгулик ва адолатда собиту мустаҳкам, ҳақ буюрган ишларга ўзлигини сафарбар этган, жисми, қалби, руҳида қабоҳат ва ёмонликни, фикри-зикри, сўзидан алдоқ ва ёвузликни, Ахриман (“Авесто”да зулмат, ёвузлик яратувчи) пайдо қилган норавонликни ситиб чиқарган, пок инсонларга насиб бўладиган илоҳий бахт тажаллисидир. “Авесто”да айтилишича, борлиқнинг яратувчиси ва олий ҳакам Ахурамазда ўзи иродаси билан Фарнга лойиқ этган суюкли бандалари саноқли бўлган. Жумладан, Кайёний шоҳларидан Қайқубод, Кайковус, Кайпишин, Кайориш, Сиёвушлар илоҳий Фарнга сазовор бўлишган. Улар Ахурамазда суйган бандалар бўлиб, савобли, тўқ, фаровон қилиб яратилган ўлкалардаги барча эзгу инсонларга бахт-иқбол беришлари лозим ҳисобланган” [15; 54-б.].

Ўша даврда оддий халқ орасида Фарнга сиғиниш кенг тарқалган. Чунки унга ибодат қилиш содда, оддий халқ учун тушунарли бўлган. Ибодатдан олдин Фарнга бағишланган дуоларни ўқиш савобли ҳисобланган. “Авесто” тасаввурларига кўра, Фарннинг назари тушган шоҳларнинг ҳудудига ноз-неъмат, серҳосиллик, қудрат, маъмурликни инъом этган. У табиат бойликларини, қабилаларни инсу жинслардан ва девлардан ҳимоя қилувчи илоҳий куч чифатида қиёсланади. Фарн инъом этган бойликлар, қуёш нурлари остида ўсган бўрдоқи қўйлар подаси, деб ҳисобланган. Шунинг учун узоқ аждодларимиз уни олтин шоҳли улкан қўчқор қиёфасида тасаввур қилишлари ажабланарли эмас. Айнан шунинг учун, тўкин-сочинлик, бойлик келтирсин, деб зардуштийлар кўза бандларини, болалар ўйинчоқларини ва бошқа буюмларни қўчқор шаклида ясашган. Унинг рамзини ўчоқ қалаган ғиштларда, остоналарда ҳам учратиш мумкин [11; 55-б.]. Демак, бу буюмлар, ҳам диний, ҳам маиший маросимларда ишлатилган. Келтирилган маълумотлардан маълум бўладики, жой номларининг пайдо бўлиши аждодларимизнинг диний эътиқоди, урф-одат ва маросимлари, расм-русумлари, этно ва лингвомаданий шаклланиши билан боғлиқ.

Фаркат номининг Паркат, Паркентга ўзгарган вақтини аниқлаш қўшимча тадқиқот манбаларини талаб қилади. Форс ва араб олимларининг саёҳатномаларида Фаркат номи билан тилга олиниши, араблар истилоси ва ундан кейинги даврларда

ҳам мазкур ҳудуднинг шу ном билан аталганини билдиради. Мўғуллар истилоси даврида Фаркат вайрон бўлиб, 100-150 йиллардан сўнг секин-асталик билан бу ҳудуд яна қайта тикланган. Ўша даврларда ушбу жой Паркент номи билан тикланган бўлиши мумкин, деган эҳтимол ҳам йўқ эмас. Юқорида келтирганимиздек, “Бобурнома” да бу манзил **Фаркат** дея тилга олинган. Хўжа Абдулҳақ қаламига мансуб, бобоси Хожа Убайдулло Аҳрор Валийнинг ҳаёт йўлига бағишланган “Мақомати Хожа Аҳрор” асарида (XVI аср ўрталари) Тошкентга қарашли **Паркат** қишлоқларидан бири **Инжакент** қишлоғи ҳақида маълумот келтирилган [16; 257–261-б.]. Демак, XVI аср ўрталаридан бошлаб, яъни шайбонийлар даврига оид (1501-1600) ёзма манбаларда **Паркат** топонимикаси қайд этила бошлаган.

Қадим-қадимдан Тошкент воҳасининг таркибий қисми бўлиб келган Паркентда яшаган аждодларимизнинг этногенези минтақада ўтиб борган ўша даврлар тарихий жараёнлари билан боғлиқ ҳолда шаклланган. Бу ҳудудда яшаган аҳолининг урф-одатлари, тили, диний эътиқоди, маросимлари ва қадриятлари умумийликни ҳосил қилган. Бу ердаги кўплаб жой номлари ушбу манзилда яшаган аждодларимизнинг этно ва лингвмаданий шаклланиши билан боғлиқ. Жумладан,

Навдак қишлоғи Паркентдан 22 км жануби-шарқда Бошқизилсойнинг чап соҳилида жойлашган. Бу ерда яшовчи аҳолининг кўпчилиги тожик миллатига мансуб. Қишлоқнинг Навдак деб аталиши ҳақида маҳаллий аҳоли орасида икки ривоят мавжуд. Биринчисига асосан, Навдак – янги (Нав) қишлоқ. Иккинчисига кўра, Тожикистоннинг Нав қишлоғидан кўчиб келган тожиклар қишлоққа асос солиб, номини Навдак деб аташганлиги тахмин қилинади. Бизнингча, топонимнинг асоси иккита топоасосдан – сўғдча нав (янги) ва деҳ ёки даҳа (мавзе, жой) ва (-а)к (кичрайтириш кўшимчаси)дан иборат бўлиши мумкин: нав+даҳа+(-а)к→навдаҳак→навдак – янги жой (мавзе).

Санганак қишлоғи Паркентдан 22 км жануби-шарқда Санганак дарёсининг чап соҳилида жойлашган. Бу ерда яшовчи аҳолининг ҳам кўпчилигини тожик миллатига мансублар ташкил қилади. Қишлоқнинг топонимикаси тўғрисида маҳаллий аҳоли орасида икки ривоят мавжуд. Биринчи фикрга кўра, тахминан 500 йиллар муқаддам, бу ерга ҳозирги Ангрен ҳудудидан кўчиб келган Сангин деган шахс жойлашиши билан боғланади. Иккинчи фикрга кўра, сангтош, яъни Санганак “тошлоқ қишлоқ” маъносини билдиради. Профессор М.Шерматов тахминига кўра Санганак сўзининг ўзаги “санги”, лотинча “Sanguines”, яъни қондек қизғиш ранг маъносини билдиради. Шунинг учун унинг номи Санганак дарёсининг юқори қисмида тарқалган қизил рангли қоятоғ жинслари билан боғлиқ бўлиши ҳам мумкин[11; 77-б.].

Заркент қишлоғи Паркентдан 12 км жануби-шарқда, Чотқол тоғ тизмаларининг ғарбий тоғолди минтақасида жойлашган. Заркент ушбу ҳудуддаги энг қадимги топонимлардан ҳисобланади. Қишлоқнинг топонимасини академик В.В.Бартольд араб географлари асарларида Шош вилоятида қайд қилинган Заранкату қишлоғи, ҳозирги Заркент бўлса керак, деб тахмин қилади. Маҳаллий аҳолининг тахминига кўра, шу атрофдаги тоғлардан қазиб олинган хом ашёлар қишлоқда қайта ишланганлиги сабабли бу қишлоқни заргарлар қишлоғи – Заркент деб номлашган. Атоқли номшунос олим С. Қораев бу қишлоқнинг топоними ҳақида “Этимологияси

номаълум. **Зар** - “олтин”, **зер** (зерин) - “қуйи”, “этак”; Зеринкат - “пастдаги қишлоқ”, “тоғ этагидаги қишлоқ” бўлади.”,- дея маълумот беради [17; 146-б.].

Номданак қишлоғи Паркентдан 16 км жанубда, Бошқизилсой билан Угамсой ирмоғининг оралиғида жойлашган. Номданак ҳам бу ҳудуддаги қадимий қишлоқлардан бири. Номданак луғавий жиҳатдан “машҳур қишлоқ” деган маънони билдиради. Баъзи ўрта аср манбаларида бу қишлоқ “Номадванак” номи билан ҳам қайд этилган. Профессор С.Қораев ушбу топонимнинг этимологияси ҳақида “**Намдон** - “сернам”, “серсув”, “сув омбори”, **ак** – топоним ясовчи қўшимча” [4; 148-б.], – дея маълумот беради.

Сўқоқ қишлоғи Паркентдан 18 км жануби-шарқда, Чотқол тоғ тизмаларининг ғарбий этакларида, Сўқоқсой дарёсининг соҳилларида жойлашган. Маҳаллий кекса аҳолининг фикрига кўра “Сўқоқ” сўзи туркийча – “ёлғизоёқ йўл”, араб тилида эса – “кийик йўли” маъносини билдиради. Баъзилар қишлоқ номини унинг шифобахш сувлари билан боғлиқ дейишади. Бу ерда ёдгорлик ҳисобланган қадимий қўрғонлар ва қабристонлар ҳам топилган. Мазкур қўрғонларда археологик қазишма ва тадқиқот ишлари давом эттирилса, топонимик ва этнонимик янги маълумотларга эга бўлиш мумкин.

Чанги қишлоғи Паркентдан 4-6 км шарқда, Паркентсой соҳилларида жойлашган. Чанги қишлоғи ҳам қадимий қишлоқлардан бири бўлиб, унинг пайдо бўлиши, номланиш тарихи ва этимологияси ҳақида илмий манбаларда маълумот топилмаган. Қишлоқ номи ҳақида маҳаллий аҳоли орасида бир неча тахминлар мавжуд. Баъзилар “Чанги” сўзи форс тилида “Жасур” деган маънони билдиради, дейишса, баъзилар дастлабки қишлоқ аҳолиси, Қўқон шаҳридан 26 км масофада жойлашган “Чанги” қишлоғидан кўчиб келгани учун шу ном билан қишлоқни аташган дейишади. Ўз даврида қишлоқнинг ён-атрофи мол боқишга қулай бўлгани сабабли бу ерларда қадимдан моҳир чорвадорлар яшаб, мол ҳайдаш пайтида кўтарилган чанг узоқдан кўриниши – унинг топонимикасига урғу бўлган бўлиш эҳтимоли бўлганлигидан қишлоқнинг номи келиб чиққанлиги ҳақиқатга яқинроқдир. Айтишларича, Ҳисарак қишлоғига кўчиб келган аждодлар, Заркент қишлоғи аҳолиси билан яхши қўшничилик муносабатларини ўрнатишган. Заркентликлар уларни “ҳисараки” – “ҳисорликлар”, яъни Ҳисордан кўчиб келганлар, деб айтишган. Шу зайлда “Ҳисарак” топоними вужудга келган [11; 83-б.].

Кумушкон қишлоғи Паркентдан 18 км шимоли-шарқда, Паркентсойнинг юқори оқимининг ўнг соҳилида жойлашган. Қишлоқ топонимининг пайдо бўлиш тарихи ва этимологияси, бизнингча, илк ўрта асрларда бу ерда қазилган кумуш кони билан боғлиқ бўлса керак.

Шампан қишлоғи Паркентдан 16 км жануби-шарқда, Санганаксой билан Угамсойнинг оралиғида жойлашган. Ушбу қишлоқ нисбатан янги пайдо бўлган қишлоқлардан ҳисобланади. Ҳудуднинг этногенезини ўзбеклар, тожиклар, татарлар ва қозоқлар шакллантирган. Қишлоққа 1947 йилда асос солинган. Унинг атрофидаги ҳудудларда винобоп узумлар етиштирилиши ва шу даврда французлар билан ҳамкорликда қурилган вино заводида қайта ишланиши сабабли қишлоқнинг номи рамзий маънода Франциянинг Шампан вилояти номи билан аталган [11; 76-б.].

Яланғоч қишлоғи (Қибрай тумани). Тошкент шаҳрида ҳам шу ном билан аталадиган даҳа бор. Фарғона вилоятининг Бувайда туманида ҳам шу ном билан аталувчи қишлоқ ҳамда Қўқон шаҳрида ҳам Яланғоч деб аталган жой номи бор. Фарғона водийси аҳолисининг этник таркибини ўрганган тарихчи олима С.Губаеванинг аниқлашича, қипчоқ қабиласи уруғларидан бири “Яланғоч” деб аталган [18; 73–74-б.].

Жой номлари классификацияси анча мураккаб масала. Топонимист олимлар томонидан жой номларининг турлича таснифлари таклиф қилинган, лекин бу масалада ягона ва муштарак қараш мавжуд эмас.

Топонимларни тарихий-этимологик аспектда тадқиқ қилишда лингвомаданий ва этномаданий жиҳатларнинг аҳамияти беқиёдир. Қадимги кўлёмалар, тарихий-бадий асарлар; халқ оғзаки ижоди; илмий адабиёт; халқ урф-одатлари ва анъаналари; турли қадимий луғатлар, топонимларнинг этимологик келиб чиқишини аниқлашда асосий ёрдамчи манбалар бўлиб хизмат қилади. “Шаҳарлар ва маданиятлар тупроқ остида қолиши, китоблар йўқолиши, тиллар унутилиши мумкин, бироқ жой номлари унча-мунчага унут бўлмайди.” [19].

Келтирилган маълумотлар ва таҳлиллардан келиб чиқиб шуни айтишимиз мумкинки, микротопонимларни туманлар доирасида тарихий-этимологик аспектда тадқиқ қилишда лингво ва этномаданий жиҳатларига алоҳида эътибор бериш мақсадга мувофиқ бўлади. Сабаби, халқимиз тарихи, тақдири ва турмуш тарзининг ўзига хос индикатори ҳисобланган жой номлари аجدодларимиз тафаккурининг бебаҳо ёдгорлиги, ўзбек маънавияти хазинасини асрлар давомида бойитиб келган лингвокультурема саналади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 бет.
2. Юлдашев Д.Т. Атоқли отларнинг антропоцентриқ тадқиқи. Фил. фан. доктори (DSc) дисс-си автореферати, –Тошкент, 2021. – 75 б.
3. Qorayev S. Toponimika: O'quv qo'll. -T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2006. -320 b.
4. Қораев С. Тошкент топонимлари. Т.: Фан. 1991. –Б. 64.
5. Мухамедов А.К. Сув хўжалиги ва мелиорацияга кириш. // Ўқув қўлланма. Тошкент ирригация ва мелиорация институти, 2008 йил. –Б. 162.
6. Князь Н. Романов ва унинг Тошкентдаги қароргоҳи тақдири нима бўлди? Интернет манба: <https://www.uzanalytics.com/tarix/4836/>
7. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. Т.: Фан. –Б. 80.
8. Бартольд В.В. Сочинения. Том VII. Работы по исторической географии и истории Ирана. М.: Наука. 1971. –С. 667.
9. Петрушевский И.П. Поход монгольских войск в Среднюю Азию в 1219-1224 гг. и его последствия // Татаро-монголы в Азии и Европе: Сборник статей. –М.: Наука, 1977. –С. 207.
10. Бобур З. М. Бобурнома. –Т., Юлдузча, 1990. - 368 б.
11. Хусомиддинов С., Шерматов М. Паркент тумани. Т.: Ўқитувчи, 2006, –Б. 150.

12. Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон оронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Фил.фан.докт. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд – 2021. –Б. 302.
13. Никонов В.А. Заметки по оронимии Киргизии//Ономастика Средней Азии. – Москва, 1978. –С. 231.
14. Найимов С. Н. Ойконимы Бухарской области. Дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1984. –С. 240.
15. Авесто. Яшт китоби. Т., Шарқ, 2001, –Б. 108.
16. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т., Ўқитувчи, 1994, –Б. 397.
17. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимикаси. -Т.: “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2005. –В. 240.
18. Губаева С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начало XX век. Т.: 1983. –С. 153.
19. Асанов Э. <https://aniq.uz/yangiliklar/qosh-quyaman-deb-kuz-chiqarmaylik-yoxud-joy-nomlari-nega-xunuk>.

10.00.00-Филология фанлари

Masharipova Valentina Sergeyevna,
Urgench State University

THE USE OF PARALINGUISTICS IN JIM BUTCHER'S WORK

Abstract: In this article, we explore the use of paralinguistics in Jim Butcher's work, specifically in his popular series, The Dresden Files. Through a comprehensive analysis of various paralinguistic cues used in his writing, we delve into how Butcher creates a rich and immersive reading experience for his fans.

Keywords: Jim Butcher, paralinguistics, nonverbal cues, The Dresden Files, facial expressions, gestures, tone of voice, body language.

Masharipova Valentina Sergeyevna,
Urganch davlat universiteti

JIM BUTCHER ISHLARIDA PARALINGVISTIKANING ISHLATILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz Jim Butcherning ishida, xususan uning mashhur Drezden fayllari seriyasida paralingvistikadan foydalanishni o'rganamiz. Uning yozuvida ishlatilgan turli xil paralingvistik belgilarni har tomonlama tahlil qilish orqali biz Butcher o'z muxlislari uchun boy va chuqur o'qish tajribasini qanday yaratishini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Jim Butcher, paralingvistika, og'zaki bo'lmagan signallar, Drezden fayllari, yuz ifodalari, imo-ishoralar, ovoz ohangi, tana tili.

Машарипова Валентина Сергеевна,
Ургенчский государственный университет

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПАРАЛИНГВИСТИКИ В РАБОТЕ ДЖИМА БУТЧЕРА

Аннотация. В этой статье мы исследуем использование паралингвистики в работах Джима Батчера, в частности, в его популярной серии "Досье Дрездена". Благодаря всестороннему анализу различных паралингвистических приемов, используемых в его творчестве, мы углубляемся в то, как Батчер создает богатый и захватывающий опыт чтения для своих поклонников.

Ключевые слова: Джим Батчер, паралингвистика, невербальные сигналы, Досье Дрездена, мимика, жесты, тон голоса, язык тела.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N14>

Introduction. Jim Butcher is an American author best known for his contemporary fantasy novels, including The Dresden Files and The Codex Alera. He has become a prominent figure in the literary world, garnering a loyal following for his unique storytelling style and engaging characters. One aspect of Butcher's writing that stands out is his use of paralinguistics, which he employs to convey character emotions and enhance the reading experience.

Paralinguistics is the study of nonverbal cues that are used to convey meaning and express emotion. These cues include facial expressions, gestures, tone of voice, and body language. Paralinguistics can be used to add depth to characters, create a sense of realism, and convey information that might be difficult to express through dialogue alone.

Materials and methods. Paralinguistic elements such as tone, rhythm, and gesture are essential components of literary expression in English prose. These elements help convey emotion, create atmosphere, and shape the narrative in literary texts. In this article, we will explore the common paralinguistic elements found in English prose of the 20th and 21st centuries, and how they are used by writers to create literary meaning.

Tone is a crucial paralinguistic element in English prose, and can be used to convey a wide range of emotions and attitudes. In the words of Anna Gibson, "tone is the emotional register of a text, the way in which the author signals the reader how to feel about what is being said" (Gibson, 2019, p. 28). Tone can be conveyed through word choice, sentence structure, and the use of rhetorical devices such as irony and sarcasm. For example, in F. Scott Fitzgerald's "The Great Gatsby," the narrator's tone conveys a sense of nostalgia and longing, as he reflects on the life of the wealthy elite in the 1920s.

Rhythm is another important paralinguistic element in English prose, and refers to the patterns of sound and syllables in a text. Rhythm can be used to create a sense of pace, to emphasize particular words or phrases, and to create a musicality of language. In the words of Michael Riffaterre, "rhythm is the heartbeat of a literary text, the underlying structure that gives it life" (Riffaterre, 1990, p. 72). Rhythm can be conveyed through a range of techniques, such as meter, alliteration, and repetition. For example, in Virginia Woolf's "Mrs. Dalloway," the use of a stream-of-consciousness narrative creates a rhythm that reflects the inner thoughts and emotions of the characters.

Gesture is a paralinguistic element that refers to the physical actions and movements of characters in a literary text. Gesture can be used to convey character, emotion, and narrative, and is often closely linked to the use of dialogue. In the words of Michael Flachmann, "gesture is the non-verbal language of a literary text, the way in which characters communicate through their bodies" (Flachmann, 2001, p. 45). Gesture can include facial expressions, body language, and physical actions such as hand gestures. For example, in J.D. Salinger's "The Catcher in the Rye," the protagonist Holden Caulfield's gestures, such as his habit of running his hand through his hair, convey a sense of anxiety and unease.

We applied two methods while analyzing Jim Butcher's work. Close reading method involves analyzing the text carefully and systematically, paying attention to specific details such as word choice, sentence structure, and nonverbal cues. We looked for patterns and recurring themes in how paralinguistics is used and how they contribute to the overall meaning of the work. The second method was discourse analysis which focuses on how language is used in social contexts, including literary works. We examined how different characters use paralinguistics to convey power dynamics, social hierarchies, and other social and cultural norms. We also looked at how paralinguistics is used to convey different emotions and attitudes.

Result and discussion. In this article, we explore the use of paralinguistics in Jim Butcher's work, focusing specifically on The Dresden Files series. We analyze various nonverbal

cues used by Butcher to convey character emotions, create tension, and enhance the overall reading experience.

Body:

Facial Expressions:

Facial expressions are a vital aspect of paralinguistics that can be used to convey a wide range of emotions. Jim Butcher uses facial expressions to add depth to his characters, helping readers better understand their motivations and inner workings.

In The Dresden Files series, Butcher often employs descriptions of facial expressions to reveal character emotions. For example, in *Changes*, the twelfth book in the series, Butcher describes Harry Dresden's facial expression when he realizes that his daughter has been kidnapped:

"He was glaring at me, his eyes gone cold and hard, his lips a thin, tight line. It was a face that said he was very, very angry - and I didn't blame him" (Butcher, 2010, p. 48).

Through this description, Butcher conveys Dresden's anger and frustration at the situation, making it easier for readers to empathize with him.

Similarly, in *Dead Beat*, the seventh book in the series, Butcher uses facial expressions to reveal the motivations of the villain, Cowl:

"His face was still, unsmiling, and unreadable. But his eyes were alight with a fierce joy, a satisfaction that could only be derived from destruction" (Butcher, 2006, p. 150).

Through this description, Butcher conveys Cowl's twisted pleasure in causing chaos and destruction, adding depth to his character and creating a sense of tension.

Gestures:

Gestures are another aspect of paralinguistics that can be used to convey meaning and emotion. Jim Butcher uses gestures to create a sense of realism in his writing and to add depth to his characters.

In *Changes*, Butcher uses gestures to convey the tension between Harry Dresden and his ex-girlfriend, Susan:

"Her hand fell to her side, and she shook her head. 'No, Harry. You don't understand.' She turned away from me and began to pace, her arms wrapped tightly around her chest" (Butcher, 2010, p. 125).

Through this description, Butcher conveys Susan's inner turmoil and conflicted emotions, adding depth to her character and creating a sense of tension between her and Dresden.

Similarly, in *Cold Days*, the fourteenth book in the series, Butcher uses gestures to convey the tension between Harry Dresden and Mab, the Queen of Air and Darkness:

"She extended her hand, palm down, and then slowly tilted it back and forth, her fingers flexing. It was a gesture that said, 'Decisions, decisions'" (Butcher, 2012, p. 135).

Through this description, Butcher conveys Mab's power and control over Dresden, creating a sense of tension and highlighting the power dynamic between the two characters.

Tone of Voice:

Tone of voice is another aspect of paralinguistics that can be used to convey meaning and emotion. Jim Butcher uses tone of voice to add depth to his characters and create a sense of realism in his writing.

In *Dead Beat*, Butcher uses tone of voice to convey the sarcasm and humor of Harry Dresden:

"I started to get up, but then hesitated. 'What about the White Council? Are they going to have a problem with us going after Corpsetaker?' 'Of course they will,' Bob said, as if it were the most obvious thing in the world. 'They'll have a problem with it right up until you get back with the bad guy in custody. Then they'll be all, 'Oh, thank you so much, Dresden. We couldn't have done it without you'" (Butcher, 2006, p. 239).

Through this dialogue, Butcher conveys Dresden's sarcastic and humorous tone, adding depth to his character and creating a sense of realism in the dialogue.

Similarly, in *Skin Game*, the fifteenth book in the series, Butcher uses tone of voice to convey the tension between Harry Dresden and Nicodemus, the leader of the Denarians:

"I grinned at him. 'Don't get your panties in a bunch, Nicky. I'm not the one who stole a holy relic'" (Butcher, 2014, p. 85).

Through this dialogue, Butcher conveys Dresden's sarcastic and confrontational tone, creating a sense of tension and highlighting the power dynamic between the two characters.

Body Language:

Body language is perhaps the most complex aspect of paralinguistics, as it includes a wide range of nonverbal cues, including posture, movement, and facial expressions. Jim Butcher uses body language to add depth to his characters and create a sense of realism in his writing.

In *Dead Beat*, Butcher uses body language to convey the fear and anxiety of Harry Dresden:

"I could feel my heart pounding in my chest. I was trembling, my body thrumming with adrenaline. I couldn't stop myself from taking a step back, then another" (Butcher, 2006, p. 249).

Through this description, Butcher conveys Dresden's fear and anxiety, adding depth to his character and creating a sense of tension in the scene.

Similarly, in *Skin Game*, Butcher uses body language to convey the power dynamic between Harry Dresden and Nicodemus:

"I stepped closer to him, leaning in until our faces were only inches apart. 'You don't give the orders around here, Nic. You don't tell me what to do'" (Butcher, 2014, p. 94).

Through this description, Butcher conveys Dresden's dominance and confrontational attitude, creating a sense of tension and highlighting the power dynamic between the two characters.

In addition to individual examples, paralinguistics is used consistently throughout the series, creating a sense of continuity and adding depth to the characters and world that Butcher has created. For example, Harry Dresden's sarcasm and humor are consistently conveyed through his tone of voice, while his fear and anxiety are often conveyed through his body language. Similarly, Nicodemus' arrogance and power are consistently conveyed through his gestures and facial expressions.

Analyzing the similarities and differences in the use of paralinguistics in literature can provide valuable insights into how different writers use nonverbal communication to achieve different effects on their readers. Here are a few examples of similarities and differences:

Similarities:

Both Jim Butcher and J.K. Rowling use paralinguistics to create a sense of magic and wonder in their readers. Butcher uses detailed descriptions of magic spells and fantastical creatures, while Rowling uses rich descriptions of Hogwarts and its many enchantments.

Both Stephen King and Jim Butcher use paralinguistics to create a sense of tension and suspense in their readers. King uses abrupt shifts in tone and short, choppy sentences to convey a sense of danger and uncertainty, while Butcher often uses snarky dialogue and humor to create a sense of levity in otherwise dark and intense stories.

Differences:

J.R.R. Tolkien's use of paralinguistics in "The Lord of the Rings" is often characterized by a sense of grandeur and epic adventure, while Jim Butcher's use is more focused on individual characters and their interactions.

While Jim Butcher often uses paralinguistics to create a sense of humor and lightness in his stories, William Faulkner's use of paralinguistics in "The Sound and the Fury" is more focused on exploring the inner emotional turmoil of his characters.

Margaret Atwood's use of paralinguistics in "The Handmaid's Tale" is focused on conveying a sense of oppression and desperation, while Edgar Allan Poe's use of paralinguistics in his horror stories is more focused on creating a sense of fear and unease.

In terms of the effects on the reader, the use of paralinguistics can have a profound impact on how readers experience a work of literature. By using nonverbal communication to create atmosphere, convey emotions, and create a sense of tension or levity, writers can engage readers on a deeper level and create a more immersive reading experience. The specific effects of paralinguistics will vary depending on the writer and the context, but overall it is a powerful tool for creating meaning and conveying emotions in literature.

Conclusion. Paralinguistic elements such as tone, rhythm, and gesture are essential components of English prose, and are used by writers to create literary meaning. By paying close attention to these elements, readers can gain a deeper understanding of the emotional and narrative significance of a text. As Anna Gibson notes, "paralinguistic elements are the hidden heartbeat of a text, the subtle signals that shape our interpretation and understanding of what we read" (Gibson, 2019, p. 32). By exploring the common paralinguistic elements found in Jim Butcher's work, we can gain a deeper appreciation of the richness and complexity of literary expression.

The use of paralinguistics in Jim Butcher's work adds depth and complexity to his characters, creating a sense of realism and adding to the overall quality of his writing. By paying attention to these nonverbal cues, readers can gain a greater understanding of the characters and the world they inhabit, and can more fully appreciate the depth and complexity of Butcher's storytelling.

In conclusion, Jim Butcher's use of paralinguistics in his writing has proven to be a highly effective tool for creating vivid, dynamic, and compelling characters and stories. By utilizing various paralinguistic features such as tone, intonation, and body language, Butcher is able to imbue his characters with a sense of depth and complexity that goes beyond mere words on a page. Additionally, his use of paralinguistics helps to engage the reader on multiple levels, allowing for a more immersive and emotionally resonant reading experience. Overall, the impact of paralinguistics on Butcher's work cannot be overstated, as it is an integral component of his unique and captivating storytelling style.

There are several areas for future research or analysis that could be explored regarding the use of paralinguistics in literature and namely, Jim Butcher's novels. Some potential topics include:

- Investigating the impact of paralinguistics on reader empathy and emotional engagement with characters, particularly in relation to the use of body language and facial expressions.

- Comparing the use of paralinguistics across different literary genres, and identifying commonalities and differences in how these features are used to convey meaning and affect the reader.

- Analyzing the effectiveness of paralinguistic features in translated literature, and exploring how these features are adapted or modified in different linguistic and cultural contexts.

Overall, there is much to be explored and discovered regarding the use of paralinguistics in literature, and further research in this area has the potential to deepen our understanding of the relationship between language, communication, and meaning in literary works.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Butcher, J. (2000). Storm Front. Roc.
2. Butcher, J. (2001). Fool Moon. Roc.
3. Butcher, J. (2002). Grave Peril. Roc.
4. Butcher, J. (2003). Summer Knight. Roc.
5. Butcher, J. (2004). Death Masks. Roc.
6. Butcher, J. (2005). Blood Rites. Roc.
7. Butcher, J. (2006). Dead Beat. Roc.
8. Butcher, J. (2007). Proven Guilty. Roc.
9. Butcher, J. (2008). White Night. Roc.
10. Butcher, J. (2009). Small Favor. Roc.
11. Butcher, J. (2010). Turn Coat. Roc.
12. Butcher, J. (2011). Changes. Roc.
13. Butcher, J. (2012). Ghost Story. Roc.
14. Butcher, J. (2012). Cold Days. Roc.
15. Butcher, J. (2014). Skin Game. Roc.
16. Butcher, J. (2015). Working for Bigfoot. Roc.
17. Butcher, J. (2016). The Aeronaut's Windlass. Roc.
18. Butcher, J. (2018). Brief Cases. Roc.
19. Butcher, J. (2020). Peace Talks. Ace.
20. Butcher, J. (2020). Battle Ground. Ace.
21. Ekman, P., & Friesen, W. V. (1969). Nonverbal leakage and clues to deception. *Psychiatry*, 32(1), 88-106.
22. Gibson, A. (2019). *The emotional tone of literature*. Cambridge University Press.
23. Flachmann, M. (2001). *The art of poetry: How to read a poem*. Wiley-Blackwell.
24. Knapp, M. L., & Hall, J. A. (2010). *Nonverbal communication in human interaction*. Wadsworth.
25. Krumhuber, E. G., Kappas, A., & Manstead, A. S. (2013). Effects of dynamic aspects of facial expressions: A review. *Emotion Review*, 5(1), 41-46.

12.00.00 – Юридик фанлар

Камолова Санобар Жабборовна
ЎзДЖТУ мустақил тадқиқодчи

ЎЗБЕК ВА ФРАНЦУЗ БАДИИЙ АСАРЛАРИДА АНТРОПОНИМЛАР

Аннотация. Ушбу мақолада француз ва ўзбек бадий асарларда қўлланган тарихий антропонимлар яъни исмлар, тахаллуслар, лақаблар ҳақида фикрлар баён этилган. Мақолада ўзбек ва француз антропонимларининг лексик-семантик хусусиятлари очиқ берилган

Калит сўзлар: Ономастика, антропоним, сўз, тил, шоир, тахаллус, лақаб, ота исмлари, референция, лисоний бирлик.

Камолова Санобар Джабборовна
Уз ГУМЯ – независимый исследователь

АНТРОПОНИМ В УЗБЕКСКИХ И ФРАНЦУЗСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье высказываются мысли об исторических антропонимах, то есть именах, прозвищах, прозвищах, используемых во французских и узбекских произведениях искусства. В статье раскрываются лексико-семантические особенности узбекских и французских антропонимов.

Ключевые слова: ономастика, антропоним, слово, язык, поэт, прозвище, прозвище, отчество, ссылка, языковая единица.

Kamolova Sanobar Jabborovna
Uz SWLU - an independent researcher

ANTHROPONYM IN UZBEK AND FRENCH ARTISTIC WORKS

Abstract. In this article, thoughts are expressed about historical anthroponyms, that is, names, nicknames, nicknames used in French and Uzbek works of art. The article reveals the lexical-semantic features of Uzbek and French anthroponyms

Key words: Onomastics, anthroponym, word, language, poet, nickname, nickname, patronymics, reference, linguistic unit.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N15>

Кириш. Антропоним ономастиканинг лисоний бирлиги бўлиб, у ўз ичига аниқ бирликларни олади. С Камолова антропоним термини ҳақида фикр юритар экан, унинг таркибига исм, ота исми (отчество), фамилия, лақаб, тахаллус, криптоним, андроним, гинеконим, патроним киришини қайд қилган [6;20-45 б]. Демак, антропонимика исмлар,

лақаблар, тахаллуслар, фамилия ва ота исмларни тадқиқ қилувчи соҳа ҳисобланади. Сўз мулкининг султони, буюк шоир, адиб, олим Алишер Навоий асарларидаги атоқли отлар ўзбек тарихий ономастикасининг таркибий қисми саналади. Шоир асарларидаги атоқли отларни ном англлатган объектга кўра қуйидагича таснифлаш мумкин.

Мавзуга оид адабиётлар тахлили.

Навоий асарларида учрайдиган шахс номлари – антропонимлар. Уларни икки гуруҳга бўлиш мумкин: 1. Ҳаётда яшаб ўтган шахслар номи: Маҳмуд Ғазнавий, Амир Темур, Мирза Чучук, Хусайн Бойқаро, Амир Хусрав Дехлавий ва б. 2. Ҳаётда мавжуд бўлмаган афсонавий номлар: Вомиқ, Узро, Фарҳод, Ширин, Сомирий ва б. Навоий асарларида учраган антропонимларни қуйидагича гуруҳлаш мумкин: 1. Исмлар. 2. Тахаллуслар. 3. Лақаблар. Тадқиқотчи Ш.Ёқубовнинг аниқлашича, Алишер Навоий асарларида 1103 дан ортиқ антропонимлар мавжуд 1. Исмлар. Исмларни ўз характериға кўра тарихий, афсонавий, тўқималарға ажратиш мумкин. Алишер Навоий асарларида ўзи билан замондош бўлган тарихий шахсларнинг номларини кўплаб келтирган. Жумладан, “Мажолис ун-нафоис” асарида 459 та шоирлар номи тилға олинган. Бу асарда шоирға замондош бўлган қуйидаги киши номларини кўриш мумкин: Хусайн Бойқаро, Бадиуззамон, Музаффар Мирзо, Ҳадичабегим, Султон Абусаид, Мирзо Улуғбек, Мавлоно Лутфий, Хожа Муҳаммад Порсо, Шарафиддин Али Яздий, Бобо Ҳасан, Саккокий ва б. Бу номлар тарихий шахсларға тегишли бўлиб, XV аср ўзбек тарихий ономастикаси учун бой материал бўлиб, ўша даврда кишиларни номлаш тартиби ҳақида ҳам маълумот беради. А.Навоий асарларида афсонавий ва диний антропонимлар ҳам салмоқли ўринни эгаллайди. Афсонавий антропонимлар шоирнинг бадий ва илмий асарларида учрайди. Бу каби антропонимлар хаёлий мавзуларни баён қилиш, баъзи диний мавзудаги асарларни ёзишда шоирға қўл келган. Шоир бундай номлардан “Хазойин ул-маоний”, “Тарихи анбиё ва ҳукамо” асарларида ўрни билан фойдаланган. Аммо “Ҳамса” асарида афсонавий антропонимлар кенг қўлланган. Жумладан, Сомир, Аҳраман, Суҳайло, Нух, Қорун, Билқис, Жамшид, Яъжуж, Исо, Дақёнус, Ҳорун ва б. Навоий асарларида учрайдиган антропонимларнинг катта қисмини бадий тимсолларнинг номи ташкил этади. Бу антропонимларнинг кўпи шоир руҳий оламида ижод қилинган атоқли отлар ҳисобланади. Навоий бадий тимсолларға ном танлашда ўша жой ва халқ номиға мос атоқли отлардан фойдаланишға эътибор қаратган. Арабистонда бўлиб ўтган воқеаларни тасвирлаш учун арабча – Саъд, Навдар, Меҳр, Нўъмон, Суҳайл, Жобир; Ҳиндистонда бўлиб ўтган воқеаларни ҳиндча – Жайпур, Жуна, Маллу, Кад; Эрон (Ажам)даги воқеаларни тасвирлашда форс-тожикча – Хисрав, Баҳром Гўр, Рустам, Равшанак, Доро, Фаррух, Гулчеҳра сингари номлардан фойдаланган.

- болалар ва ўсмирларнинг жисмоний ва маънавий зарарланиш хавфидан, хусусан, уларнинг иши билан бевосита ёки билвосита боғлиқ бўлган хавфдан алоҳида ҳимоя қилиш.

Хулоса ўрнида вояга етканлар меҳнатидан фарқли равишда болалар меҳнати халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинади ва ҳимоя қилинади. Бундан асосий мақсад ўсиб келаётган авлодни баркамол ривожланиши учун халқаро миқёсда шарт-шароит яратишдан иборат деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2022 йил 29 октябрь.
2. Ўзбекистон Республикасининг Ишга қабул қилиш учун энг кичик ёш тўғрисидаги конвенцияни (женева, 1973 йил 26 июнь) ратификация қилиш ҳақида 04.04.2008 йилдаги №ЎРҚ-140 қонуни. "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2008 йил, 14-15-сон, 83-модда.
3. Конвенция о правах ребенка. Принята резолюцией 44/25 Генеральной Ассамблеи от 20 ноября 1989 года.
https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/childcon.shtml
4. Конвенция МОТ № 10 О минимальном возрасте допуска детей на работу в сельском хозяйстве. Женева, 16 ноября 1921 года. <https://www.conventions.ru/int/16952/>
5. Ўн саккиз ёшдан кичик шахсларнинг меҳнати қўлланиши тақиқланадиган ноқулай меҳнат шароитли ишлар рўйхати. (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2009 йил 29 июлда 1990-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган). "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2009 йил, 30-31-сон, 355-модда.
6. Конвенция о запрещении и немедленных мерах по искоренению наихудших форм детского труда [Конвенция 182]. Принята на 87-й сессии Генеральной конференции Международной организации труда, Женева, 1 июня 1999 года.
https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/convention182.shtml
7. Конвенция о ночном труде подростков в промышленности [Конвенция 90] (пересмотренная в 1948 году). https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_norm/---normes/documents/normativeinstrument/wcms_c090_ru.htm
8. Европейская социальная хартия (пересмотренная) Страсбург, 3 мая 1996 года.
<https://docs.cntd.ru/document/901991974>



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. № S/1 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>

12.00.00 – Юридик фанлар

Yakubova Iroda Bahramovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Intellectual mulk huquqi” kafedrası dotsenti, PhD.
Эл.почта: i.yakubova@tsul.uz

XORIYIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR VA O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA MUALLIFLIK HUQUQLARINI JAMOAVIY BOSHQARISHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Huquq egalarining tashkilotga a‘zoliği jamoaviy boshqaruv tashkilotini tavsiflovchi muhim elementlardandir. Qolaversa, mualliflik asarlaridan ruxsatisiz foydalanish va mualliflarga mualliflik haqini adolatli to‘lanmatyotganlik holatlarining ko‘pligi muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish institutini rivojlantirish zaruratining kuchayib borayotganligidan ham dalolat beradi. Maqolada ushbu institutni takomillashtirish bilan bog‘liq ayrim dolzarb muammolarga, shuningdek, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar olimlarining fikrlariga e‘tibor qaratilgan. Mualliflik huquqini rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: mualliflik huquqi, mualliflik shartnomalari bo‘yicha haq to‘lash, mualliflik huquqini amalga oshirish, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish, asarni omma oldida ijro etish, kengaytirilgan jamoaviy boshqarish.

Якубова Ирода Бахрамовна,
PhD, доцент кафедры «Права интеллектуальной собственности»
Ташкентского государственного юридического университета.
Эл.почта: legislate16i@mail.ru

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРИНЦИПОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОЛЛЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ АВТОРСКИМ ПРАВОМ ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ ЗАРУБЕЖНЫХ РАЗВИТЫХ СТРАН И УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Членство правообладателей в организации является одним из важных элементов, характеризующих организацию коллективного управления. Кроме того, большое количество случаев несанкционированного использования авторских произведений и недобросовестной оплаты авторских прав свидетельствует о растущей необходимости развития института коллективного управления авторскими имущественными правами. В статье акцентируется внимание на некоторых актуальных проблемах, связанных с совершенствованием данного института, а также мнениях ученых Узбекистана и других стран. Выдвинуты предложения и рекомендации, имеющие научное и практическое значение для развития авторского права.

Ключевые слова: авторские права, вознаграждение по авторским договорам, защищать авторские права в принудительном порядке, коллективное управление авторскими и смежными правами, объекты авторских и смежными правами публичное исполнение произведения.

Yakubova Iroda Bahramovna,

PhD (Doctor of Philosophy),
Associate Professor Department «Intellectual property law»
of Tashkent State University of Law

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PRINCIPLES OF FORMING COLLECTIVE MANAGEMENT OF COPYRIGHT RIGHTS UNDER THE LEGISLATION OF FOREIGN DEVELOPED COUNTRIES AND UZBEKISTAN

Abstract. Membership of rights holders in the organization is one of the important elements characterizing collective management organization. In addition, the large number of cases of unauthorized use of author's works and non-fair payment of copyright to authors indicate the growing need to develop the institution of collective management of author's property rights. The article focuses on some current problems related to the improvement of this institution, as well as opinions of scientists of Uzbekistan and other countries. Proposals and recommendations of scientific and practical importance for the development of copyright were put forward.

Key words: copyright, to enforce copyright, royalty, copyright and related rights collective management, public performance or display of a work, objects of copyright and related rights, extended collective management



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N21>

Inson tafakkuri va izlanishlari mahsuli bo'lmish intellektual mulk samarasini bugun barcha jabhada ko'rish mumkin. Binobarin, hozir foydalanayotgan zamonaviy texnologiyalar, umuman, kundalik ehtiyojimiz qanoati ana shu salohiyat bilan chambarchas bog'liq. Hozirda mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash va uning himoyalanganlik darajasini kuchaytirish iqtisodiy taraqqiyot hamda mamlakatni investision jozibadorligini oshirishning muhim kafolatlaridan sanaladi. Shu boisdan ham keyingi yillarda O'zbekistonda mualliflik huquqini himoya qilish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ushbu yo'nalishdagi davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar, ijodkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda mualliflik haqini adolatli tartibda to'lanishiga erishish, asarlardan ruxsatsiz foydalanish, ularning o'zlashtirilishi oldini olish va bunday holatlarga nisbatan tegishli javobgarlik choralari kuchaytirish hamda internet tarmog'ida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta'minlash zaruratining kuchayib borayotganligidan dalolat beradi.

Huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkiloti to'g'ridan-to'g'ri huquq egalari tomonidan tuzilganligi va shartnoma bo'yicha ulardan olingan vakolatlar doirasida harakat qilganligi sababli, bunday tashkilotning faoliyati a'zolikka asoslangan deb aytish mumkin[1, 65-69]. Bunday holda, biz ushbu huquqlarni jamoaviy asosda boshqarishda ifodalangan mualliflik huquqlarini himoya qilish uchun yuridik shaxsni tashkil qilish uchun sub'ektlarning birlashuvi deb aytamiz. Huquq egalarning tashkilotga a'zoligi jamoaviy boshqaruv tashkilotini tavsiflovchi muhim elementlardan biri bo'lishi kerak. Bunday tashkilot mualliflik huquqi egasi va tashkilot o'rtasida hujjatlashtirilgan individual huquqiy munosabatlarga ega bo'lishi kerak [2, 119-123]. Bu tashkilotni yaratish bosqichida ham, uning mavjudligining keyingi davrida ham zarur, chunki bunday tashkilotlar o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, hujjatli tasdiqlashni talab qiladigan ko'plab huquq egalari birlashtirishi kerak. Shundan keyingina tashkilot huquqlarni "kengaytirilgan" jamoaviy boshqaruvni amalga oshirish huquqiga, ya'ni barcha mualliflik huquqi egalari, shu jumladan tashkilotga a'zo bo'lmaganlar uchun ruxsatnomalar berish va mualliflik to'lovlarini yig'ish huquqlariga ega

bo'lishi kerak[3, 66-74]. Ushbu talab xalqaro tashkilotlarning amaliyoti, xorijiy qonunchilikning huquqiy normalari va amaliyoti bilan tasdiqlangan.

Bunday tashkilotga jismoniy va yuridik shaxslar ham a'zo bo'lishi mumkin. Yuridik shaxslar esa ham tijorat, ham notijorat tashkilotlar maqomiga ega bo'lishi mumkin. Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish institutining mohiyati huquq egalarining keng qamrovli birlashmasi mavjudligini nazarda tutadi va bu, o'z navbatida, huquqlarni jamoaviy boshqarishni tashkil etishning shunday tashkiliy-huquqiy shaklining mavjudligini talab qiladi, bu esa turli huquqiy maqomga ega shaxslarni birlashtirish va ularning huquqlarini jamoaviy boshqarishga imkon beradi [4, 36-45].

Tashkilot a'zolari mualliflar (merosxo'rlar), noshirlar va ittifoqdagi jiddiy kuchni ifodalovchi boshqa huquq egalari bo'lishi mumkin. Bu amaliyot butun dunyoda mavjud. Mualliflar (merosxo'rlar) va iqtisodiy jihatdan kuchliroq nashriyotlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi haqida asosli xavotirlar mavjud. Nashriyotchilar, birinchi navbatda, biznesmenlar bo'lib, ular uchun asarlarni ekspluatatsiya qilishdan olingan foyda muhim ahamiyatga ega. Ba'zi mamlakatlarda noshirlar faqat maxsus foydalanish uchun tashkilotdan cheklangan litsenziyalar olishlari mumkin. Bu mamlakatlardagi nashriyotlar tashkilotga doimiy a'zo sifatida qabul qilinmaydi[5, 76].

Bunday tashkilotning ta'sischilari bo'lishi mumkin bo'lgan mualliflik huquqi egalarining soni, shuningdek tashkilot a'zolarining eng kam miqdori mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanmagan. Ushbu qoidalar notijorat tashkilotlarini tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunlarda ham mavjud emas. Faqat "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunning 8-moddasiga binoan, jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzilishi belgilangan. Agar biz qiyosiy tahlil qilsak, boshqa mamlakatlar qonunchiligida ham bunday tashkilotni yaratishi mumkin bo'lgan huquq egalarining minimal sonini (yoki ushbu tashkilot a'zolarining eng kam sonini) belgilaydigan qoidalar mavjud emas. Buning sababi, shubhasiz, huquqlarni jamoaviy boshqarish to'g'risidagi maxsus qonunlar qabul qilingan paytda ushbu mamlakatlarda bunday tashkilotlar allaqachon shakllangan edi. Ularning shakllanish jarayoni bizning mamlakatimizga qaraganda ancha muvaffaqiyatli bo'ldi, chunki ko'plab mamlakatlarda mualliflarning juda uyushgan professional ishlaydigan birlashmalari (masalan, Frantsiya) mavjud.

Yevroparlament va Kengash tomonidan qabul qilingan 2014 yil 26 fevraldagi Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish hamda musiqa asarlariga huquqlarni ichki bozorda onlayn foydalanish uchun ko'p hududiy litsenziyalash to'g'risidagi 2014/26/EI Direktivasi Frantsiya milliy qonunchiligiga ham implimentatsiya qilingan. Direktivning maqsadlaridan biri mualliflar huquqlari egalarining bunday huquqlarni boshqarishda erkinligini ta'minlash va kafolatlashdir. Xususan, ushbu huquq egalari jamoaviy yoki yakka tartibdagi boshqaruv o'rtasida tanlov qilishlari, jamoaviy boshqaruv tashkilotlariga o'zlari ishonib topshirmoqchi bo'lgan huquqlar toifalarini belgilashlari, bunday ishonib topshirish orqali tegishli hududlarni belgilashlari, bunday huquqlarni ishonib topshirish va hech qanday tijorat ustunligiga olib kelmaydigan foydalanish uchun ruxsatnomalar berish va osongina bekor qilishlari ham mumkin bo'lishi kerak. Ushbu erkinlik samarali bo'lishi uchun u barcha huquq egalariga ma'lum bo'lishi kerak. Shu sababli, jamoaviy boshqaruv tashkilotlari o'z huquqlarini boshqarishni ularga ishonib topshirmoqchi bo'lgan huquq egalarini roziligini olishdan oldin

xabardor qilishlari kerak. Ushbu huquqlar allaqachon SACEM nizomi[6] va umumiy qoidalarda mustahkamlangan.

Yuqorida aytganimizdek, cheklangan hudud doirasida juda ko'p sonli tashkilotlarning birgalikda ishlashi juda tor va iqtisodiy jihatdan foydasiz bo'lar edi. Royaltlarni taqsimlash tizimining qimmatligi katta miqdordagi pulni jalb qilishni talab qiladi, bu yerda ko'plab mualliflik jamiyatlari barcha uchun umumiy repertuardan foydalanishning bir sohasida ishlashi kichik davlatda imkonsizdir. Ba'zan ushbu mamlakatlar qonunchiligida aynan shu masala bo'yicha umumiy va juda noaniq qoidalarni topishimiz mumkin. Masalan, Germaniyaning 1965 yil 9 sentyabrdagi 1294-sonli "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqarish to'g'risida"gi qonunining 2-moddasiga muvofiq (keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan), huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsatnoma berishda u jamiyatga o'z huquqlarini boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar bergan shaxslarning soni to'g'risidagi ma'lumotlarni nazorat organiga taqdim etishi kerak[7]. Shunday qilib, nazorat organlari yaratiladigan tashkilotning vakilligini baholab beradi.

Shunday qilib, mamlakatimizda mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlari a'zolikka asoslangan nodavlat notijorat tashkilotlari shaklida tuzilishi va faoliyat yuritishi mumkin va Qonunning 56-moddasi 1-bandi qoidalariga muvofiq mualliflik huquqi egalari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri tashkil etilishi mumkin. Agar jahon amaliyotiga murojaat qiladigan bo'lsak, unda bir davlat doirasida bunday tashkilotlarning soni turli yo'llar bilan hal qilinadi[8]. Odatda, har bir mamlakat uchta variantdan birini tanlaydi: asarlarning ma'lum bir janriga nisbatan turli xil mualliflik huquqlarini boshqaradigan bir nechta tashkilotlar; turli janrdagi asarlarga nisbatan mualliflik huquqining muayyan toifasini boshqaruvchi bir nechta tashkilotlar; turli janrdagi asarlarga nisbatan turli mualliflik huquqlarini boshqaradigan bitta tashkilot.

Amerika Qo'shma Shtatlari mualliflik huquqi jamiyatlari BMI [9] va ASCAP [10] bir xil janrdagi asarlar uchun turli mualliflik huquqlarini boshqaradigan tashkilotlarga misoldir. Bu tashkilotlar, parallel ravishda, bir davlat hududida, musiqa asarlariga nisbatan ommaviy ijro orqali efir, kabel, sim yoki boshqa shunga o'xshash vositalar orqali muloqot qilish huquqlarini boshqaradi. Bu jamiyatlarning repertuari ular o'rtasida taqsimlangan. Bunday tashkilotlarning bir xil huquq egasi bir vaqtning o'zida ikkita jamiyatga a'zo bo'lishi odatiy holdir, chunki bu huquq egasining asar namunalari ushbu tashkilotlar o'rtasida taqsimlangan bo'ladi.

Ikkinchi variantga misol sifatida Frantsiyani keltirish mumkin, bu yerda mualliflik huquqini boshqaruvchi bir nechta tashkilotlar mavjud. Biroq, ular o'rtasida asarlar janriga va foydalanish usullariga qarab qat'iy ajratish mavjud: SACEM (musiqiy asarlarni ommaviy ijro etish huquqi); SDRM (Mexanik ijroga bo'lgan huquqlar); SACD (dramatik asarlarni ommaviy ijro etish va takrorlash huquqi); SGDL (adabiy asarlar); ADAGP (San'at asarlarini qayta ishlab chiqarish va meros huquqi).

Ba'zi mamlakatlarda turli toifalarga mansub asarlarda turli huquqlarni boshqaradigan bitta tashkilot mavjud: SABAM (Belgiya), ACUM (Isroil), SIAE (Italiya) va boshqalar.

Jamoaviy boshqaruv tizimlaridan qaysi biri samaraliroq degan masala esa 1978 yilda Torontoda bo'lib o'tgan CISAC (Confédération internationale des sociétés d'auteurs et compositeurs)ning XXXI Kongressida [11] muhokama qilindi. Ushbu muhokama davomida turli fikrlar bildirildi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu tizimlarning har biri bunday tashkilotlarning faoliyat sohalari bir-biri bilan kesishmaslik sharti bilan samarali bo'lishi

mumkin, ya'ni ma'lum bir janrdagi asarlardagi huquqlarning ma'lum bir toifasi faqat bitta tashkilot tomonidan boshqariladi. Har bir jamoaviy boshqaruv tizimining mavjudligi uchun barchaning o'z argumentlari mavjud bo'lishi mumkin.

Huquq egalarining bir guruhi doirasida alohida tashkilot tashkil etilishi huquq egalarining manfaatlarini boshqa ayrim guruhlar manfaatlariga bo'ysundirishdan qochadi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda, yangi texnologiyalarning rivojlanishi va foydalanishning yangi usullari (masalan, Internet) paydo bo'lishini hisobga olgan holda, bir tashkilotning turli janrdagi asarlardan foydalanishning ma'lum bir usuliga bo'lgan huquqni boshqarishi osonroq. Bunday tashkilotlar foydalanuvchilar bilan muzokaralar olib borishda va milliy darajada mualliflik huquqi siyosatini shakllantirishda muhim kuchdir.

Jamoaviy boshqaruv tizimi boshlang'ich bosqichida bo'lgan mamlakatlar bir nechta jamoaviy boshqaruv tashkilotlariga ega bo'la olmaydi. Bunday davlatlarda mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha markazlashgan va yaxlit tashkilotlar tashkil etilmoqda. Ko'pincha markazlashtirilgan tashkilotlar davlat va yarim davlat shaklida paydo bo'ladi (masalan, "Ukraina mualliflik huquqi va turdosh huquqlar agentligi" davlat korxonasi (Ukraina), RUPIS (Belarus Respublikasi)). Bizda ham ilgari mavjud bo'lgan O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish Respublika agentligini misol keltirishimiz mumkin.

Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish sohasidagi mutaxassislarining ta'kidlashicha, huquqlarning ayrim toifalari haqida gap ketganda, jamoaviy boshqaruvga xos bo'lgan ko'plab asosiy afzalliklarga faqat bitta tashkilot bilan erishish mumkin (foydalanish uchun litsenziyalar berishda huquqiy yordamning soddaligi va ravshanligi, yagona kelishuv doirasida jahon repertuarining butun majmuasidan foydalanishga ruxsat berish imkoniyati, boshqaruv xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish va h.k.) va shuning uchun ham mutaxassislar tomonidan huquqlarning har bir toifasi uchun faqat bitta tashkilot yaratish va parallel tashkilotlarning mavjudligidan qochish tavsiya etiladi [12].

Italiyaning mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunining 180-moddasining 1-bandiga ko'ra, SIAE (Italiya mualliflar va nashrlar jamiyati)ga tegishli bo'lgan mualliflik huquqini boshqarish bo'yicha monopoliyani o'rnatadi. Biroq, ushbu Qonunning 180-moddasi 4-bandida aytilishicha, "yuqorida nazarda tutilgan mutlaq vakolatlar muallifning, uning merosxo'rlari yoki huquqiy vorislarining ushbu qonunda e'tirof etilgan huquqlarini bevosita amalga oshirish qobiliyatiga zarar yetkazmasligi kerak"[13].

Italiya Konstitutsiyaviy sudi 1968 yil 17 apreldagi qarorida SIAE ning qonuniy monopoliyasi ijtimoiy manfaatli va shuning uchun konstitutsiyaviy ma'qullangan deb hisoblanishi mumkin, deb topdi. Shveysariyaning 1992 yil 9 oktyabrdagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Federal qonuni [14]da (42-moddaning 2-bandi) shunday deyilgan: "Umumiy qoidaga ko'ra, huquqlarni boshqarish uchun ruxsat har bir toifadagi asarlarning faqat bitta mualliflik yoki turdosh huquqlar sohasidagi jamiyatga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunining 56-moddasiga binoan, huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlari faoliyatining quyidagi muqobil variantlariga ruxsat beriladi:

- 1) Huquq egalarining turli huquqlari va turli toifalari bo'yicha alohida tashkilotlarni;
- 2) bir toifadagi huquq egalarining manfaatlarini ko'zlab turli huquqlarni boshqaruvchi tashkilotlarni;

3) turli toifadagi huquq egalarining manfaatlarini ko'zlab, huquqlarning bir turini boshqaruvchi tashkilotlarni.

Shunday qilib, qonunchilik huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlar faoliyatini ularning faoliyat sohalari bilan kesishmasligini tartibga soladi. Biroq, Qonunning ushbu 56-moddasi aslida dunyoda mavjud bo'lgan huquqlarni jamoaviy boshqarish sohasidagi tashkilotlar faoliyatining barcha mumkin bo'lgan variantlarini sanab o'tish bilan cheklangan.

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda qisqa vaqt ichida ma'lum bir toifadagi mualliflik huquqi egalarining (yoki ma'lum bir janrdagi asarlarga nisbatan mualliflik huquqi egalarining) kuchli uyushmalarini shakllantirish uchun iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud emas. Bunday tashkilotlarni yaratish va normal ishlashi uchun moliyaviy xarajatlar (haqni taqsimlash xarajatlarini hisobga olgan holda) juda katta. Ijtimoiy shart-sharoitlarning yo'qligi mualliflarning professional birlashmalarining zaifligi bilan izohlanadi, ularning mavjudligi ilgari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan[15].

Turli davlatlarning huquqlarini jamoaviy boshqarish tashkilotlarini shakllantirish tamoyillarini Respublikada rivojlanayotgan vaziyat bilan taqqoslashda mamlakatimizda jamoaviy tashkilotlarni yaratish va ularning faoliyatiga asosiy huquqiy yondashuvlar mavjud degan xulosaga kelishimizga mulkiy huquqlarni boshqarish eng rivojlangan jamoaviy boshqarish tizimiga ega bo'lgan Yevropa mamlakatlarida (Frantsiya, Germaniya, Shveytsariya va boshqalar) shakllangan vaziyat turtki bo'ladi[16, 97]. Mamlakatimizda ham, Yevropa mamlakatlarida ham mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlar, qoida tariqasida, a'zolikka asoslangan, shuningdek, asosiy faoliyat turlaridan biri sifatida tijorat faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega emas nodavlat tashkilotidir. Shu bilan birga, huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha huquqiy normalarni yaratishda qonunchilik O'zbekistondagi siyosiy, iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida bo'lgani kabi mamlakatimizda ham hozirgi vaqtda davlat huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlarini shakllantirish va faoliyat yuritish jarayonida o'z ishtirokini minimallashtirishga harakat qilmoqda. O'zbekistonda ularning shakllanishi jarayoni hali boshlang'ich bosqichda bo'lganligi sababli, ushbu tashkilotlar juda ko'p muammolarga duch kelishmoqda.

Ko'p sonli nizolar huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni ustidan davlat tomonidan nazorat qilishning maxsus huquqiy mexanizmining yo'qligi, shuningdek, huquq egalarining asarlardan foydalanishning bir sohasida va bir toifasiga nisbatan faoliyat yuritishida jamoaviy tashkilotlarning soni to'g'risidagi masala aniq qonun hujjatlarida mustahkamlanmaganligi sababli yuzaga keladi. Afsuski, Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi Qonunning 56-moddasi orqali qonun chiqaruvchi aslida dunyoda mavjud bo'lgan huquqlarni jamoaviy boshqarishning mumkin bo'lgan variantlarini sanab o'tish bilan cheklanib qolgan, hamda jamoaviy boshqaruv tashkilotlariga o'zlari uchun huquqlarni jamoaviy boshqarish variantlaridan birini tanlash imkoniyatini berdi.

Shubhasiz, bunday tanlovni mualliflar jamiyatlarining shakllanish tendentsiyasini hisobga olgan holda hayot tajribasining o'zi qilishi kerak edi. Qonun qabul qilinganidan buyon 15 yildan ortiq vaqt o'tdi. Bu vaqt ichida huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha yangi tashkilotlar paydo bo'ldi. Biroq, na mualliflar, na boshqa mualliflik huquqi egalari o'zlarining mualliflik huquqlarini birgalikda boshqarishda ulardan hech qanday haqiqiy qiymatni

olishmagan. Bugungi kunda ommaviy ijro, asarlarni televidenie (radio) eshittirish va kabel orqali (shu jumladan Internetda) uzatish, reprografik ko'paytirish, moddiy asarlarni takrorlash sohasida ommaviy axborot vositalari va butun mamlakat bo'ylab to'plangan royalti yig'ish va tarqatish mexanizmiga ega bo'lgan mualliflik huquqini amalda boshqaradigan haqiqiy kuchli tashkilot mavjud emas. Mualliflik huquqi xizmatlarini jamoaviy boshqarish bozorida mavjud tashkilotlarning ish sifati adolatli tanqidga sabab bo'lmoqda va hali ham dunyoda mavjud mualliflik huquqi jamiyatlari (masalan, SACEM (Frantsiya)) faoliyat yuritadigan darajadan juda ham uzoqdir. Bugungi kunda jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarishning eng muvaffaqiyatlisi huquq egalariining bir toifasiga nisbatan asarlardan foydalanishning ma'lum bir sohasida bir tashkilot faoliyatining monopoliyasini o'rnatish bo'ladi.

Adabiyotlar / Literatura / References:

1. Yakubov O. Significance And Principles Of The Trips Agreement In The Legal System Of World Trade Organization Agreements //The Peerian Journal. – 2022. – T. 9. – C. 65-69.
2. O. Oqyulov. Intellektual mulkning huquqiy maqomi. [Legal status of intellectual property]. Tashkent, 2000, pp. 36-45.
3. Yakubova I.B. O'zbekistonda mualliflik huquqi bo'yicha mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi. [Emergence and development of organizations of collective management of copyright property rights in Uzbekistan]. Yurisprudensiya – Jurisprudence, 2021. No. 6. pp. 66-74.
4. Yakubov O. TRADE ORGANIZATION AGREEMENTS: THE MAIN PRINCIPLES OF TRIPS AGREEMENT //Conferencea. – 2022. – C. 119-123.
5. Коллективное управление авторским правом и смежными правами. ВОИС. Женева, 1990.С.76.
6. Sacem nizomi https://societe.sacem.fr/docs/SACEM_statutes.pdf
7. Закон «Об авторском праве и смежных правах» (с изменениями, внесенными Законом от 01.09.2017 г.) <https://wipolex.wipo.int/ru/legislation/details/17676>
8. Закон РФ “Об авторском праве и смежных правах” http://www.consultant.ru/document/cons_doc_law_2238/
9. <https://www.bmi.com/>
10. <https://www.ascap.com/>
11. https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/fr/copyright/120/wipo_pub_120_1978_06.pdf
12. <https://createurs-editeurs.sacem.fr/en/brochures-documents>
13. Закон Италии № 633 от 22.04.1941 г. «Об охране авторских прав и смежных прав» (с изменениями, внесенными Законодательным декретом №685 от 15.11.1994 г.)
14. Швейцария: Федеральный закон от 27 сентября 2019 г. «О внесении изменений в Федеральный закон от 9 октября 1992 г. “Об авторском праве и смежных правах”»
15. Якубова И. Б. Право на жизнь-неотъемлемая часть личного неимущественного права //Вопросы современной юриспруденции. –2016. –№. 12 (62).
16. V.Vaynke. Avtorskoe pravo. Reglamentasiya, osnovi, budushee [Copyright. Regulations, fundamentals, future.]. Denmark, M., 1979, p. 97.



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. № S/1 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>

12.00.00 – Юридик фанлар

Карамов Мамашариф Жамилович

Ички ишлар вазирлиги 2-сон Тошкент академик лицейи
Ҳарбий тайёргарлик раҳбари ИИВ Академияси
докторантураси мустақил изланувчиси

ЖАМИЯТ ҲАЁТДА МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИНИНГ ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ ЎРНАТШИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Аннотация. Мақолада Республикамиз маҳалла институтларининг ҳамда жамият ҳаётидаги жамоатчилик назоратини ўрнатишдаги ўрни ва аҳмияти, фуқаролик жамияти шаклланишида нодавлат нотижорат ташкилотлар, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг ўрни ҳақида фикр юритилади. Бундан ташқари маҳаллабай ва фуқаробай иш услублари айни дамда аҳоли мурожаатлари ва жамиятдаги кўплаб муаммоларни бартараф этиш этиш барча соҳалар учун энг самарали йўл бўлиб, маҳаллабай ишлаш тизими тўғрисида ҳам сўз юритилади.

Калит сўзлар. Жамият, маҳалла, жамоатчилик, маҳаллабай ишлаш, ташаббусли бюджет, маҳалла институти, дастур.

Карамов Мамашариф Джамилевич

Начальник отдела военной подготовки МВД
Ташкентского академического лицея № 2,
докторант Академии МВД

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В УСТАНОВЛЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ ИНСТИТУТА МАХАЛЛИ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

Аннотация. В статье будет обсуждаться роль институтов махалли республики и общественного контроля в жизни общества, роль негосударственных некоммерческих организаций, органов самоуправления граждан в формировании гражданского общества. Кроме того, наиболее эффективным способом для всех сфер является устранение обращений населения и многих проблем в обществе, а также развитие системы локальной работы.

Ключевые слова. Общество, махалли, общественность, локальная работа, инициативный бюджет, институт махалли, программа.

Karamov Mamasharif Jamilovich

Head of the Military Training Department of
the Ministry of Internal Affairs of Tashkent Academic Lyceum No. 2,
doctoral student of the Academy of the Ministry of Internal Affairs

ROLE AND IMPORTANCE IN ESTABLISHING PUBLIC CONTROL OF THE MAHALLI INSTITUTION IN SOCIETY

Abstract. The article will discuss the role of the mahalli institutions of the republic and public control in the life of society, the role of non-governmental non-profit organizations, self-government bodies of citizens in the

formation of civil society. In addition, the most effective way for all areas is to eliminate the appeals of the population and many problems in society, as well as the development of a system of local work.

Keywords. Society, mahalli, public, local work, initiative budget, mahalli institute, program.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N22>

Сир эмаски Янги Ўзбекистон «Инсон қадрлари устувор бўлган жамият ва халқпарвар давлат» деган муҳим ғоя негизда барпо этилмоқда. Жумладан, Тараққиёт стратегиясида шахс, инсон қадрлари биринчи ўринга қўйилиб, «инсон – жамият – давлат» янги тамойили давлат ҳамда жамият бошқарувининг асосини ташкил этади. Амалий натижалар, инсон манфаати, унинг қадр-қиммати юртимиздаги барча ислохотларнинг туб моҳиятини англатади. Хусусан, инсонийлик ва меҳр-оқибат бешиги бўлган маҳаллаларимизда бундай ҳаётбахш ўзгаришлар яққол намаён бўлмоқда.

Ҳозир ислохотлар шиддат билан давом этаётгани учун ҳаётимизда ҳар куни бирор бир муҳим ўзгаришлар гувоҳи бўлишимиз мумкин. Сўнги йилларда “Обод қишлоқ” ва “Обод маҳалла” дастурлари дориасида қишлоқ ва маҳалладаги йўл-транспорт инфратузилмаси, муҳандислик-коммуникация тармоқлари ҳамда ижтимоий соҳа объектларида қурилиш ва ободонлаштириш ишлари бажарилмоқда. Аҳолининг турмуш шароитлари яхшилаш борасида кенг қўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. [1]

2022-2026 йилларда “Обод қишлоқ” ва “Обод маҳалла” дастурлари дориасида қурилиш-таъмирлаш ҳамда ободонлаштириш ишлари бажариладиган қишлоқ ва маҳаллалар сони бўйича мақсадли параметрлар тасдиқланди. Шунингдек, маҳаллаларда турмуш шароитларини яхшилашда “Ташаббусли бюджет” лойиҳаси айни муддао бўлмоқда ва буни янада кенгайтириш масалалари кўриб чиқилмоқда. Ҳар бир маҳалла ўзининг муаммосини мустақил ҳал этиш учун 2023 йилдан “Маҳалла бюджети” тизими жорий этилмоқда. Бунда аҳолининг мол-мулк ва ер солиғини ундириш маҳалланинг ўзига ўтказилади. Бундан тушган маблағ маҳалла бюджетида қолади.

Маҳаллабай ва фуқаробай иш услублари айни дамда аҳоли мурожаатлари ва жамиятдаги кўплаб муаммоларни бартараф этиш борасида барча соҳалар учун энг самарали йўл экани ўз исботини топмоқда. Маҳаллабай ишлаш тизими мураккаб бўлишига қарамай, ҳар бир инсоннинг дардини тинглаш, ҳаётини тубдан ўзгартириш, жамият тараққиётини иқтисодий ўсишлар билан эмас, балки аҳолининг ўз ҳаётидан мамнунлиги билан ўлчаш каби мезонларни кун тартибига чиқармоқда.

Ушбу тизим ўз навбатида ижтимоий-иқтисодий ислохотлар, ички ва ташқи ресурслар ҳисобига амалга ошириладиган лойиҳалар, турли идора ва ташкилотларнинг фаолияти маҳаллалар бўйича ташкил этилди. Бунинг натижасида айни вақтда юртимизда кечаётган ўзгаришлар моҳиятида “маҳаллабай” сўзининг аҳамияти кундан-кун ортиб бормоқдаки, мазкур амалиёт натижасида барча ташкилот ва идораларнинг жойлардаги фаолияти айнан маҳаллалардаги ўзгаришлар ва бу орқали муаммоларнинг ҳал этилишига қаратилгани билан янада аҳамиятлидир.

Маҳалладаги муаммолар ва аҳолининг кундалик маиший масалаларини ҳал этиш биргина тизим ходимлари иштирокида бартараф этиш имконсиз, Бу жараёнда ҳар бир соҳа масъулларининг иштироки ва аралашуви ҳам муҳимдир. Жойларда маҳаллабай ишлаш механизмларининг асосини ана шу тамойил – барча соҳа вакилларининг

ҳамжихат бўлиб, ҳудудлардаги масалаларни ечишга комплекс ёндошуви керак бўлади. Маҳаллабай ишлаш, аслини олганда, барча соҳа мутахассисларининг бир ёқадан бош чиқариб маҳалладаги муаммолар, аҳоли турмушидаги муҳим мамсалаларни биргаликда ҳал этишдир.[2]

Маҳаллабай ишлаш тизимининг яна бир энг самарали жараёни бу хонодонбай ўрганиш, жумладан, аҳолининг бандлик даражасини, оилаларнинг даромад манбаларини, томорқадан фойдаланиш ҳолати ҳамда даромадли меҳнатга интилиш ва эҳтиёжларини таҳлил қилиш имконияти юзага келади. Тадбиркорликни ривожлантиришга туртки берадиган омиллар ва йўналишлар белгиланиб, уларни ишга солиш орқали маҳаллаларнинг иқтисодий қудрати юксалтирилади.

Умуман олганда, маҳаллада аҳолининг кундалик кайфиятига бевосита таъсир қилаётган энг долзарб муаммолар ўрганиш, бунда қишлоқ ва маҳаллаларда инфратузилма билан боғлиқ энг оғириқли масалаларни тизимли ҳал қилиш, ички йўллар, ичимлик суви, электр энергияси ва газ таъминоти, таълим, соғлиқни сақлаш, маданият, спорт ва бошқа ижтимоий объектларни яхшилаш бўйича тегишли дастурлар ишлаб чиқилган. Ушбу дастурларнинг самарали фаолият юритиш мақсадида маҳалла раислари, ҳоким ёрдамчилари, хотин-қизлар фаоллари ва ёшлар етакчилари, ОАВ ва бошқа жамоат ташкилотлари Дастурлар доирасида амалга оширилаётган ишларнинг ҳолати, сифати ва кўлами юзасидан жамоатчилик назоратини ўрнатишга жалб қилиниши айтилган.

Шу сабаб, 2022 йил 25 октябрда «2022-2023 йилларда маҳаллалар инфратузилмасини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Президент қарори қабул қилиниб, одамлар учун муносиб турмуш шароитини яратишга оид муҳим вазифалар белгиланган.

Қарорга кўра жойларда ички йўллар, ичимлик суви, электр энергияси ва газ таъминоти, таълим, соғлиқни сақлаш, маданият, спорт ва бошқа инфратузилма объектлари яхшиланиши белгиланган. Бу ҳужжат асосида маҳаллалар инфратузилмасини ривожлантириш бўйича лойиҳалар дастурлари доирасида амалга ошириладиган тадбирларнинг йиғма параметрлари, дастурлар ижросини мувофиқлаштириш бўйича Республикаси ишчи гуруҳи ҳамда ҳудудий ишчи гуруҳлари таркиби тасдиқланди.

Қарор билан белгиландики, туман (шаҳар) секторлари ва бошқа ҳудудий ташкилотлар раҳбарлари ҳар ойда халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашларига Дастурлар доирасида амалга оширилган ишлар тўғрисида ҳисобот бериб боради. Дастурларга киритилган объектларни фойдаланишга топшириш бўйича Давлат қабул комиссияси таркибига маҳалла раислари киритилади ҳамда бажарилган қурилиш-таъмирлаш ишларининг ҳажми ва сифати бўйича жамоатчилик назоратини олиб боради. Ҳудудий ишчи гуруҳлари икки ҳафта муддатда маҳаллалар кесимида алоҳида режа-жадвалларни тасдиқлаб, ишлар ўз вақтида ва самарали ташкил этилишини назоратга олади, аҳолига бу бўйича тушунтириш ишларини олиб боради.[3]

Президент қарори кўлами ва аҳамияти жиҳатидан маҳаллалар инфратузилмасини яхшилашга оид энг муҳим ҳужжатлар сирасига киради. Эътиборлиси, унда белгиланган режалар айнан аҳоли томонидан билдирилган таклифлар, муаммолар ва камчиликлар асосида тузилган. Дастурлар қайсидир

раҳбарларнинг кабинетларида ишлаб чиқилмайди, бевосита одамлар фикри асосида, улар билан мулоқат қилиш асосида яратилади. Бундан эса давлат ҳам, оддий одамлар ҳам манфаатдор бўлиши тайин.

Яна бир муҳим масала борки, Президент Шавкат Мирзиёевнинг **«Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси»** номли асарида таъкидланганидек, маҳаллаларда ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини таъминлаш ҳокимлар – ҳудудий кенгашлар раисларининг доимий эътибор марказида бўлиши шарт.

Маънавий тарғибот ҳар бир маҳаллада, таъбир жоиз бўлса, маҳаллабай усулда ташкил этмас эканмиз, бу борада аниқ натижа бўлмаслигини ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда. Бунда ҳар бир маҳалланинг ўзига ҳос хусусиятларини ҳисобга олиб, амалга оширадиган ислохотларимизнинг аниқ белгилаб олишимиз ва жамоатчилик билан биргаликда иш олиб боришимиз керак.

Бу борада, айниқса, **«Бир зиёли – бир маҳаллага маънавий хомий»** тамойили асосида ҳар бир маҳаллага профессор-ўқитувчилар ва таниқли зиёлийларнинг жалб этиш, уларнинг бу ишга масъулият ва куюнчаклик билан ёндошишга эришиши муҳим аҳамиятга эга, деб ўйлайман. Олий таълим муассасалари ректорлари жойлардаги ҳокимлар билан биргаликда бундай жонкуяр домлаларни муносиб рағбатлантириб бориш чораларини кўриши керак. [4; 200-б]

Биз **«Ҳар бир нуруний – беш нафар ёшга мураббий»** тамойили бўйича муҳтарам оқсоқолларимиз, азиз онахонларимизни тарбияси оғир, маънавий кўмакка муҳтож, уюшмаган, ишсиз ёшларга бириктириб қўйишга қаратилган ибратли ташаббусни қўллаб-қувватлашни давом эттирамиз.

Катта тажрибага эга бўлган нурунийларимиз ўзларининг ҳаётий ўғитлари билан ёшларимизга тўғри йўл кўрсатса, бунинг фойдаси катта бўлади. Ана шу ишларни амалга ошириш учун **«Маънавий-ахлоқий тарбия дастури»**да таълим тизими, маҳалла, нуруний, хотин-қизлар, ёшлар ҳамда бошқа давлат ва жамоат ташкилотларининг вазифаси аниқ белгилаб қўйилаётгани кутилган натижани беради. [5;262-.]

Яна бир муҳим масала борки у **«Маҳалла бюджети»** тизимини ривожлантириш муаммоларидир. Айтиш керакки, Президентнинг 2022 йил 16 августдаги **«Маҳалла институтининг жамият ҳаётидаги ролини мустаҳкамлаш ва молиявий имкониятларини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»**ги қарори орқали Маҳаллаларнинг ижтимоий-иқтисодий муаммоларини ҳал этиш жамғармаси ташкил этилиб, жамғарма маблағларини шакллантириш маблағлари ва молиялаштириш йўналишлари белгилаб берилди. Унга кўра 2023 йил 1 январдан бошлаб, ҳар бир вилоятда биттадан туманда тажриба тариқасида аҳолининг мал-мулк ва ер солиғини ундириш маҳалланинг ўзига ўтказилади. Бунда ундирилган мол-мулк ва ер солиғи маҳалла бюджетида қолиши, ҳар йили 1 февралга қадар ҳокимлар маҳалла раиси ва ҳоким ёрдамчилари билан биргаликда маҳалла бюджети ҳисобидан ҳал қилинадиган лойиҳалар рўйхатини туман Кенгашларига тасдиқлаш учун киритиши, келгуси йил якунида ушбу тажриба барча ҳудудларда жорий қилиниши белгиланди. Ўзбекистонда Германия тажрибасини ўрганиш, мавжуд 9 370 та маҳаллада ижтимоий-иқтисодий муаммоларни мустақил бартараф этишда янги тизимнинг аҳамияти, кутилаётган натижалар ҳамда назорат механизми бўйича тажрибага эга бўлинади. [6; 18-б]

Маҳалла ҳаётига дахилдор бўлган муҳим янгиликлардан бири сифатида айтиш мумкинки, 2022 йил 25 октябрь куни қабул қилинган «Жамоатчилик фикри асосида шакллантириладиган лойиҳаларни молиялаштириш кўламини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Президент қарори билан «Ташаббусли бюджет» лойиҳасида ҳар бири икки мингдан ортиқ овоз тўплаган маҳаллалар ғолиб деб топилши белгиланган. «Очиқ бюджет»да овоз бериш жараёнлари биринчи мавсуми – ҳар йил февраль-март ойларида, иккинчи мавсуми – ҳар йили июнь-июль ойларида, «Обод қишлоқ» ва «Обод маҳалла» дастури доирасида кейинги йил учун тадбирларни шакллантириш ва уларга овоз бериш жараёни – ҳар йили ноябрь-декабрь ойларида ўтказилиши белгилаб қўйилди. [7; 247]

Юқоридаги қарордан маълум бўладики, эндиликда маҳаллалардаги инфратузилма учун маблағлар фақатгина «Ташаббусли бюджет» орқали аҳоли истаган лойиҳаларга ажратилади. Бу орқали энди фақат ҳокимлик белгилаб берадиган маҳаллаларга эмас, шароити чиндан ҳам оғир ҳудудларга эътибор кучаяди. Бунда албатта, аҳолининг ташаббускорлиги ортади, энди улар ўзлари биринчи навбатда ҳал қилиниши лозим бўлган масалаларга биргаликда ечим топади.

Хулоса. Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Янги Ўзбекистонни ривожлантириш ғояси Маҳалла институти тузулмаларининг жаҳон тажрибаси билан бойитилиши унинг ҳам амалий, ҳам назарий омилларини такомиллаштириш механизмларини ечиб беради. Ривожланиш ва тараққиёт қонуниятларини прагматик назарияси сифатида кучли ҳаракат манбаига айланишини таъминлайди.

Adabiyotlar / Literatura / References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22.12.2017. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти: URL: <http://prezident.uz/uz/lists/view/1371>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 октябрь кунидаги “2022-2023 йилларда маҳаллалар инфратузилмасини янада яхшилаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-408-сон Қарори.
4. Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. Т., 2002. 200-б.
5. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси., - Т.:Ўзбекистон., 2022. – Б.262.
6. Тангриев Л. Мустақиллик ва жамоат ташкилотлари. Т.: Янги аср авлоди, 2000. 18-б.
7. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. Т., Ўзбекистон, 2010. Б.247.



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. № S/1 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>

12.00.00 – Юридик фанлар

Қурбонов Дониёр Давлат ўғли
Шароф Рашидов номидаги
Самарқанд давлат университети 2-курс талабаси

ВОЯГА ЕТМАГАН ШАХСЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ.

Аннотация. Мазкур мақолада бугунги куннинг долзарб муаммоси бўлган вояга етмаганлар жиноятчилиги ва уларнинг олдини олиш масаласига эътибор қаратилган. Шунингдек, мақолада вояга етмаганлар томонидан содир этилаётган жиноятларнинг содир этилиш сабабларини аниқлаш, уларнинг олдини олиш чораларини ишлаб чиқишга, бундан ташқари вояга етмаганлар жиноятчилигини профилактика қилиш ҳақида ҳамда мазкур жиноятчиликка таъсир кўрсатувчи омилларни ўрганиш муаммосига ҳам алоҳида тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: Ҳуқуқбузарлик, вояга етмаган жиноятчи, ғайриижтимоий хулқ-атвор, вояга етмаганлар жиноятчилигини профилактика қилиш.

Курбанов Дониер Давлат угли
Студент 2 курса Самаркандского
государственного университета имени Шарофа Рашидова

ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШАЕМЫХ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ.

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется преступности несовершеннолетних и ее предупреждению, что является актуальным вопросом на сегодняшний день. Также в статье акцентируется внимание на выявлении причин совершения преступлений несовершеннолетними, разработке мер по их предотвращению, профилактике правонарушений несовершеннолетних, проблеме изучения факторов, влияющих на данную правонарушение.


Ключевые слова: Правонарушение, преступность несовершеннолетних, асоциальное поведение, профилактика правонарушений несовершеннолетних.

Kurbanov Doniyor Davlat ugli
2nd year student of Samarkand State University
named after Sharof Rashidov

PREVENTION OF CRIMES COMMITTED BY MINORS.

Abstract. This article focuses on juvenile delinquency and its prevention, which is an actual problem today. Also, in the article, the problem of determining the causes of crimes committed by minors, developing measures to prevent them, prevention of juvenile delinquency and the study of the factors affecting this delinquency is also discussed.

Keywords: Offense, juvenile delinquency, antisocial behavior, prevention of juvenile delinquency.

 <https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N23>

Мамлакатимизда сўнги йилларда суд-ҳуқуқ соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг бош мақсади барча фуқароларнинг ҳуқуқлари таъминланадиган ҳуқуқий-демократик давлат қуриш ҳисобланади. Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев таъкидлаганидек, “Ҳар қандай демократик ислоҳотлар самараси, тинчлик ва тараққиётнинг асосий гарови қонун устуворлиги таъминланиши билан бевосита боғлиқ” [1]. Соҳибқирон Амир Темур бобомиз эса: “Давлат қонунлар асосида қурилмас экан, ундай салтанатнинг шуқуҳи, қудрати ва таркиби йўқолади”, – деб таъкидлаган эдилар Қонун устуворлиги таъминланишининг асосий мезонларидан бири, унда ҳуқуқбузарликларнинг, бўлибам вояга етмаганлар ўртасида содир этиладиган ҳуқуқбузарликларнинг олди олинишидир.

Биринчи Президентимиз И.А.Каримов: “Жиноятчиликнинг олдини олиш, унга қарши кураш самарадорлигини ошириш жазонинг шафқатсизлигида эмас, балки биринчи навбатда, қонунни бузган шахс жазонинг муқаррарлигини нечоғли англашига боғлиқ, жазонинг муқаррарлиги жиноятчиликни олдини олишга самарали таъсир кўрсатувчи омиллардан ҳисобланади” [2], – деб таъкидлаган эди. Бу эса бевосита ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий тарбия билан боғлиқдир.

“Ҳуқуқий тарбия фуқароларнинг онги ва руҳиятига таъсир қилишга қаратилган, ҳуқуқий тарбия шакллари, воситалари ва услубларидан фойдаланиб, фуқаролар онгида чуқур ва барқарор ҳуқуқий билимлар, эътиқодлар, эҳтиёжлар, қадриятлар, қонунга мос феъл-атвор, одатларни шакллантириш жараёнидир” [3].

З.М.Исломовнинг фикрича, “Ҳуқуқий тарбия – бу ҳуқуқий тажриба алмашиш бўйича давлат, жамоат ташкилотлари, алоҳида фуқароларнинг бир мақсадга йўналтирилган фаолияти: ҳуқуқий нормаларга риоя қилиш, уларни бажариш ва бу нормалардан фойдаланишни таъминловчи муайян ижобий тасаввурлар, қарашлар, қадриятларни тушуниш, йўл-йўриқларни шакллантириш мақсадида одам онги ва ҳуқуқ-атворида доимий таъсир ўтказиб боришдир” [4].

Ҳуқуқий тарбиянинг мақсади фуқароларнинг бошланғич ҳуқуқий билими даражасини ошириш ва уларнинг ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, шу билан бирга уларни ҳуқуққа, қонунга нисбатан ҳурматда бўлиш, уларга онгли ва ихтиёрий риоя қилиш руҳида тарбиялаш ҳисобланади.

Юридик адабиётларда ҳуқуқий тарбиянинг бир қатор усуллари кўрсатиб ўтилган. Масалан, Х.Т.Одилқориев ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришда бир қанча ҳуқуқий тарбия усулларида фойдаланиш мумкинлигини таъкидлаб, уларнинг ишонтириш, огоҳлантириш, рағбатлантириш, мажбурлаш ва жазолаш каби турларини ажратиб кўрсатади [5].

Ҳуқуқий тарбияни амалга ошириш субъектлари, асосан, давлат, бундан ташқари, нодавлат ташкилотлар ҳисобланган жамоат бирлашмалари: хотин-қизлар, ёшлар ва болалар ташкилотлари ва бошқа кўплаб ташкилотлардир. Бундай ташкилотларнинг миқдори кўп бўлса-да, уларнинг ягона мувофиқлашган фаолияти мавжуд эмас. Шу боисдан бу ташкилотларнинг фаолияти давлат томонидан мувофиқлаштирилиб, назорат қилиб борилишига эҳтиёж бор. Ушбу эҳтиёжнинг акси ўлароқ, 2017 — 2021

йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг 2.4-бандида жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштириш билан боғлиқ вазифалар белгиланган эди.

Бу борада жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасидаги фаолиятни мувофиқлаштиришнинг самарадорлигини ошириш;

диний экстремизм ва терроризмга, уюшган жиноятчиликнинг бошқа шаклларига қарши курашиш бўйича ташкилий-амалий чораларни кучайтириш;

коррупцияга қарши курашишнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш ва коррупцияга қарши курашиш тадбирларининг самарадорлигини ошириш;

аҳолининг ҳуқуқий маданияти ва онгини юксалтириш, бу борада давлат тузилмаларининг фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари билан ўзаро самарали ҳамкорлигини ташкил этиш вазифаларни амалга ошириш назарда тутилган. [6]

2021 йилнинг 26 март куни қабул қилинган “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонда белгиланган нормалар ҳам юқорида келтирилган ҳуқуқбузарликлар профилактикаси билан боғлиқ вазифаларнинг ижросини таъминлаш мақсадида қабул қилинган.

Мазкур Фармон 2021 йил – “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” Давлат дастурининг 32-банди ижросини таъминлашга қаратилгани билан аҳамиятлидир. Мазкур бандда аҳоли осойишталигини таъминлаш ва маҳаллаларда ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш бўйича “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилига асосланган тизим жорий қилиш ишларини фаоллаштириш белгиланган.

Фармонга кўра, ҳар бир маҳалла, оила ва шахс кесимида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишга оид муаммолар бевосита жойларнинг ўзида ҳал этилиши, Ички ишлар органларининг таянч пунктлари негизида маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканлари ташкил этилиши белгиланган. [7]

Шу ўринда вояга етмаган шахслар томонидан содир этилаётган ҳуқуқбузарликларнинг сабаблари ҳам ўрганлиши лозим. Зотан, унинг сабаблари ўрганилиб бартараф этилмас экан, оқибат билангина курашиш кутилган нафни келтирмайди. Аксинча, бу муаммони ҳал қилиш учун фақатгина қонунчиликка ёпишиб олиш ҳуқуқий идеализмни келтириб чиқариши мумкин. “Ҳуқуқий идеализм – фуқаролар ҳуқуқий онгининг ижтимоий муносабатларга, ҳуқуқнинг таъсир кўрсатиш имкониятларига ортиқча баҳо бериб юборилиши билан ажралиб турадиган ҳолатидир. Ҳуқуқий нигилизм ва ҳуқуқий идеализм битта илдиздан – юридик билимсизликдан, ривожланмаган ва бузилган ҳуқуқий онгдан, сиёсий-ҳуқуқий маданият етишмаслигидан озуқа олади. Мазкур бир-бирига зид икки ҳол, улар сиртдан қараганда қарама-қарши йўналишга эгадек кўринсада, пировард натижада бирлашиб, “қўшалоқ балони” юзага келтиради” [8].

Криминология фанида олимлар вояга етмаганлар жиноятчилигининг сабаблари жумласига қуйидагиларни киритадилар: яшаш, ўқиш ёки иш жойидаги муҳитнинг

салбий таъсири; ўқишни ташлаб кетган ўсмирлар узоқ вақт муайян иш билан шуғулланмаслиги; ўсмирнинг нотўғри тарбияланишини белгилловчи шарт-шароит омиллари; ёши катта жиноятчиларнинг далолатчилиги; зўравонлик ва қонунсизликни ифодаловчи китоблар ва фильмлар таъсири. Вояга етмаганлар жиноятчилигининг омиллари сифатида қуйидагилар қайд этилади: назоратсизлик; умумий таълим мактаблари ва коллежларда таълим-тарбия ишларида мавжуд камчиликлар; ишга жойлаштиришда ҳамда ишлаб чиқаришда тарбия ишларини ташкил этишда мавжуд камчиликлар; маданий ҳордиқ чиқаришни ташкил этишдаги камчиликлар; вояга етмаганлар жиноятчилигининг олдини олиш ҳамда унга қарши бевосита кураш олиб бориш вазифалари зиммасига юкланган органлар фаолиятидаги камчиликлар [9].

Э.М.Абзаловнинг фикрича, вояга етмаганларнинг орасида ҳуқуқбузарликларнинг ўсишига қулайлик туғдирувчи асосий омилларга қуйидагиларни киритиш мумкин: а) болаларни нотўғри тарбиялаш ва уларга ота-оналари ҳамда бошқа катта ёшли шахсларнинг салбий таъсир кўрсатиши; б) мактаблардаги, меҳнат коллежларидаги ўқув-тарбиявий жараёнларнинг камчиликлари; в) ўқувчилар фанларни ўзлаштира олмаганлиги ва интизом бўшашганлиги, болаларнинг бекор қолиши; г) болаларнинг бўш вақтларида назоратсиз қолиб кетиши ва уларнинг ижтимоий-фойдали ишлар билан банд бўлмаслиги; д) жамоат жойларида катталар томонидан болаларнинг хулқ-авторини назорат қилинмаслиги; е) ўсмирлар ва ёшлар ишлаётган меҳнат жамоаларида улар билан ўтказиладиган тарбиявий тадбирларнинг самарали эмаслиги; ж) жамиятга ҳилоф индивидуалистик қарашлар, одатлар, майлларни тарқатувчиларнинг болаларга салбий таъсир кўрсатиши ва ҳақозолар [10].

Бу ерда И.Исмоилов томонидан ўтказилган социологик тадқиқот натижаларини келтириб ўтиш ўринлидир. Жиноят содир этган шахсларнинг манфаати, эҳтиёжини аниқлаш орқали, қуйидаги сабабларнинг устуворлиги қайд этилган: ўзи ва оиласининг эртанги кунини моддий таъминлашга интилиш истаги – 38,8%; дабдабали, ҳеч бир нарсадан чекланмаган ҳолда яшашга интилиш истаги – 36% ва бошқа сабаблар [11].

АҚШ шаҳарларидан бири – Виржиния-Бичнинг полиция департаменти вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликнинг олдини олиш ҳамда болалар ва ўсмирлар билан ишлашга алоҳида эътибор қаратади. Ёш авлодни тарбиялашга эътибор учта махсус дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишда ўз аксини топган. Улардан биринчиси бошланғич мактаб ўқувчиларига мўлжалланган бўлиб, унда болалар ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг асосий вазифалари, фуқароларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, шунингдек индивидуал ва жамоавий хавфсизликни таъминлаш чора-тадбирлари билан таништирилади.

Ушбу ўқув курси 4 синф ўқувчиларига мўлжалланган ҳамда қуйидаги мавзуларни қамраб олган: қонун ва жиноятчилик, уй-жой хавфсизлиги, дўконларни талон-тарож қилиш, вандализм ва шахсий хавфсизлиги. Курс якунида материални ўзлаштирганлик даражасини текшириш ҳамда болаларга махсус гувоҳнома ва белгиларнинг берилиши кўзда тутилган. Ўқув курси 45 дақиқадан иборат 6 та дарсга мўлжалланган бўлиб, дарслар уч ҳафта мобайнида махсус тайёргарликка эга полиция ходимлари томонидан давом этади. Дарс олиб боровчилар полиция кийимида бўлиши лозим. Вахоланки бу болаларга ахлоқий тасир ўтказишнинг муҳим омили ҳисобланади. Болалар ёши бежиз 10 ёш қилиб белгиланмаган, айнан шу даврда уларда мустақилликка интилувчанлик ва

ўта таъсирчанлик кузатилади. Ўқув материаллари болаларнинг ёши хусусиятларидан келиб чиқиб тузилган. Ўқув жараёнида ролли ўйинлар ва қисқа метражли роликлардан кенг фойдаланилади. Дастурни ишлаб чиққан муаллифларнинг фикрича, болаларда ёшлиқдан оқ ижтимоий воқеликларни тўғри талқин қилиш хусусиятларни тарбиялаш ҳамда полицияга нисбатан ижобий муносабатни шакллантириш зарур. Ўқув курсини тамомлаган болаларнинг жиноятчига айланиши ёки жиноий хатти-харакат қурбонига айланиб қолиш эхтимоли камаяди[12].

Вояга етмаганлар жиноятчилигини профилактика қилиш – бу хулқ-атвори ахлоқий ва ҳуқуқий нормалар чегарасидан четга чиқаётган, лекин ҳали жиноий тус олмаган вояга етмаганлар шахсини ахлоқан тузатиш ва қайта тарбиялаш борасидаги махсус фаолият. Бу ерда ғайриижтимоий хулқ-атворнинг уч тури (ахлоққа зид, ғайриҳуқуқий ва жиноий хулқ-атвор)дан дастлабки иккитаси профилактика объекти сифатида амал қилади. Шундай қилиб, профилактика ўз мазмунига кўра барча вояга етмаганларга қаратилган умумий тарбиявий чоралар билан жиноят содир этган шахсларга нисбатан қўлланиладиган жиноят-ҳуқуқий чоралар ўртасида оралиқ бўғин ҳисобланади. Умумий профилактика чоралари асосан беқарор оилаларнинг салбий таъсирини нейтраллаштириш, муҳтож ўсмирларга давлат ва жамоат ёрдамини кўрсатиш (васийлик ва ҳомийлик ўрнатиш, меҳрибонлик уйи, мактаб-интернатга юбориш, ўқишга ёки ишга жойлаштириш), вояга етмаганларга таълим-тарбия бериш билан шуғулланувчи муассасалар фаолиятидаги камчиликларни бартараф этиш, ўсмирларнинг дам олишини оқилона ташкил этиш, вояга етмаганлар қонун ҳужжатларига риоя этиши устидан назорат олиб бориш ва ҳоказоларни назарда тутати.

Юқорида келтирилган барча таҳлилий фикрларни умумлаштирган ҳолда шундай хулоса ва таклифлар бериш мумкинки, вояга етмаганлар жиноятчилигини олдини олишга қаратилган комплекс чора-тадбирлар ишлаб чиқилиши, ушбу чора-тадбирларни амалга оширишда кенг жамоатчилик жалб қилиниши, вояга етмаганларни касб-хунарга ўргатиш, илмий, техникавий ва бадий ижодкорлик тўгаракларига жалб қилиш улар томонидан содир этиладиган жиноятларнинг камайиши етакчи омил бўлиб хизмат қилади.

Шунингдек, вояга етмаганлар жиноятчилигининг статистик маълумотларини чуқур таҳлили қилиш ҳамда илмий изланишларни кўриб чиқиш орқали ҳозирги кундаги вояга етмаганлар жиноятчилиги сабабларини ва уни олдини олишнинг сифат даражаси яхшиланиши лозим.

Adabiyotlar / Literatura / References:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси
2. Каримов И.А. Адолат-қонун устуворлигида // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-том. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 36-бет.
3. Саидов А.Х., Таджихонов У.Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2001. – Б.188.
4. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқнинг умумназарий муаммолари: ҳуқуқни тушуниш, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқ ижодкорлиги. – Тошкент: ТДЮИ, 2005. – Б. 154.
5. Одилқориев Х.Т., И.Т.Тулъетеев ва бошқалар. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. –Тошкент: “Sharq”, 2009. – Б.308.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони
<https://lex.uz/acts/-3107036>
7. <https://strategy.uz/index.php?news=1274&lang=uz>
8. Маматов Х.Т. Ҳуқуқий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиш муаммолари: Юрид.фанлар докт. дисс. ... автореф. –Тошкент: ТДЮИ, 2011. –Б.24.
9. Абдурасулова Қ.Р. Криминология. – Тошкент: ТДЮИ, 2008. – Б. 127-128.
10. Абзалов Э.М. Ёшлар ҳуқуқбузарлигининг асосий сабаблари. // Вояга етмаганлар: Қаровсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишнинг долзарб муаммолари: Халқаро коференция материаллари. – Тошкент: “Qonun himoyasida”, 2005. – Б. 41-42.
11. Исмоилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. – Тошкент, 2005. – 85.
12. Бакаев А.А. Система профилактики правонарушений несовершеннолетних. -М.: Логос, 2004. -С.181-184.
13. М.Х.Рустамбоев. Жиноят ҳуқуқи. (Умумий қисм). Тошкент 2005 йил. Криминология. Дарслик. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. М.Х. Рустамбоев. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2008. 305 бет.

*13.00.00 – Педагогика фанлари***Umidaxon Abdullayeva G'ulomiddinovna**
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
abdullayevaumidaxon11@gmail.com**O'QUVCHI VA TALABALARNING TABIATGA MA'SULIYATLI MUNOSABATDA
BO'LISHLARIDA EKOLOGIK TA'LIM VA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING AHAMIYATI.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada insoniyatning tabiat oldidagi ma'suliyatini oshirish, antropogen omil natijasida yuzaga kelayotgan ekologik falokatlarni oldini olish uchun Oliy o'quv yurti talabalarida ekologik madaniyatni oshirish va ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirish masalalari Kimyo fanini o'qitish jarayonida atroflicha yoritib berilgan. Yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni ko'lamini kamaytirish yoki bartaraf etish masalalari ko'rib chiqilgan va xulosalar asosida tavsiyalar berib o'tilgan. Ma'lum bo'lgan ekologik muammolarni sabab va natijalari o'rganilini, mavjud bo'lgan metodlar yordamida va yangi metodlarni ishlab chiqish orqali talaba yoshlarga ekologik ta'lim va ekologik tarbiya berish maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: Ekologik muammo, Yashil makon, antropogen omil, Orol fojeasi, ekologik ong, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik fojea, issiqxona effekti.

Умидахон Абдуллаева Гуломиддиновна
Преподаватель Ферганского государственного университета
abdullayevaumidaxon11@gmail.com**ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И ЭКОЛОГИЧЕСКОГО
ВОСПИТАНИЯ В ОТВЕТСТВЕННОМ ОТНОШЕНИИ УЧАЩИХСЯ И УЧАЩИХСЯ К
ПРИРОДЕ.**

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрены вопросы повышения ответственности человечества перед природой, формирования экологической культуры и экологического образования у студентов высших учебных заведений в целях предупреждения экологических катастроф, вызванных антропогенным фактором, в процессе преподавания химии. Были рассмотрены вопросы уменьшения масштабов или устранения возникающих экологических проблем и даны рекомендации, основанные на выводах. Целью экологического воспитания и экологического воспитания учащейся молодежи является изучение причин и следствий известных экологических проблем с помощью существующих методов и разработка новых методов.

Ключевые слова: экологическая проблема, зеленое пространство, антропогенный фактор, Островная трагедия, экологическое сознание, экологическое воспитание, экологическая трагедия, парниковый эффект.

Umidakhan Abdullayeva Gulomiddinovna
Teacher of Fergana State University
abdullayevaumidaxon11@gmail.com

THE IMPORTANCE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION AND ENVIRONMENTAL EDUCATION IN THE RESPONSIBLE ATTITUDE OF STUDENTS AND STUDENTS TO NATURE.

Abstract. In this article, the issues of increasing the responsibility of mankind to nature, increasing environmental culture in students of higher educational institutions and the formation of environmental education in order to prevent environmental disasters caused by the anthropogenic factor are thoroughly covered in the process of teaching chemistry. Issues of reducing or eliminating the scale of emerging environmental problems were considered and recommendations were made based on the conclusions. The causes and results of known environmental problems are studied, with the help of existing methods and through the development of new techniques, the goal is to provide environmental education and environmental education to student youth.

Keywords: environmental problem, green space, anthropogenic factor, Island tragedy, environmental consciousness, environmental education, environmental tragedy, greenhouse effect.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N24>

Yer yuzida aholi sonining keskin ortishi, fan va texnologiyaning rivojlanishi natijasida insoniyatning tabiiy resurslarga ehtiyoji ortib bormoqda. Tabiiyki tabiatda mavjud bo'lgan resurslar abadiy emas. Shuning uchun insoniyat oldida mavjud tabiiy boyliklar, oziq ovqatlardan samarali foydalanish va ularni qayta ishlash kabi muammoli vaziyat yuzaga kela boshladi. Inson ehtiyojlarining chek-chegara bilmasligi natijasida tabiatdagi juda ko'p tabiiy resurslardan pala-partish, ko'r-ko'rona foydalanish holatlari yuz berdi. Natijada tabiatga zarar keltiruvchi omillarning eng yuqori cho'qqisini inson omili zabt etdi. Bunday zararli oqibatlar hattoki global muammoga aylandi. Misol tariqasida "Orol fojeasi" ni aytib o'tsak. 70-yillarning ayrim qo'shtirnoq ichidagi "rivojlanishi" natijasida kattaligi jihatdan yirik dengizlar bilan bellasha oladigan Orol hozirgi kunda qum va tuz barxanlarini makoniga aylandi. Yana hozirgi kundagi global muammo bo'lgan antropagen omil natijasida yuzaga kelgan "Issiqxona effekti" ni olaylik, zavod va fabrikalardan chiqayotgan zararli gazlar, avtomobillarning harakati uchun zarur bo'lgan organik yoqilg'ilarning yonishi natijasida hosil bo'layotgan CO₂ ning miqdorini keskin ortishi dunyoning keskin isishiga olib keldi va buning natijasida iqlim o'zgarishi yuz bermoqda. Yuqoridagi muammolar faqatgina bir hududni emas balki keng qamrovli aholining muammosi hisoblanadi, shuning uchun ushbu muammolarni yechimini topishda barcha bir bo'lib harakat qilmog'i lozim. Turli mamlakatlarda ekologik muammolar bilan kurashish usullari turlicha ko'rinishlarda na'moyon bo'lmoqda. Misol uchun deyarli butun dunyo mamlakatlari chiqindisiz texnologiyani joriy qilmoqda. Germaniya va Yaponiya davlatlarida benzin va dizel yoqilg'isi yordamida harakatlanuvchi avtomobillardan voz kechilmoqda ularning o'rniga elektromobillardan foydalanishmoqda. Aholisining soni bo'yicha dunyoda yetakchilik qilayotgan Xitoy davlati esa haftaning ayrim kunlarida avtomobilsiz hayot tarzini tanlashmoqda va chiqindidan inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan turli buyumlar tayyorlab chiqindisiz texnologiyani targ'ib etmoqda. Hozirgi kunda bizning jonajon O'zbekistonimizda ham ekologik tashviqot ishlari jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida 2-fevral 2022-yil kunida chiqindilar bilan ishlash tizimi va ekologik holatni yaxshilash, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish borasidagi dolzarb vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishida «Dunyo miqyosida sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy

muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e'tibor berishimiz, faqat bugunni emas yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutishimiz zarur» deb alohida ta'kidladilar. Shuningdek Prezidentimiz BMT sammitining

72-yig'ilishidagi ma'ruzasida dunyo hamjamiyati diqqatini yana bir bor ekologik muammolarni ma'lum bir mamlakat yoki hudud doirasida hal qilish mumkin emasligi haqidagi dolzarb masalalarga qaratgan edi. Shuning uchun ham

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini Rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida [2] belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirish, respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta'lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ekologik ongini va ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi 434-sonli qarori qabul qilindi. [3]

Mamlakatimizda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bu borada o'tkazilgan tahlil natijalari atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning mavjud emasligi, shuningdek, qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish uchun tabiatni muhofaza qilish organining vakolatlari yetarli emasligidan dalolat beradi. Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi xududlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida **“2030-YILGACHA BO'LGAN DAVRDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RSIDA”** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, (30.10.2019 yil PF-5863-son) ishlab chiqildi. Ushbu kontsepsiya ekologiya sohasida ish olib borayotgan muhandislar, olimlar, pedagoglar, izlanuvchi magistrantlar va psixologlar oldiga bir qator vazifalarni yuklaydi.

Konsepsiyaning amalda to'g'ri bajarilishi natijasida biz quyidagilarga erishishimiz mumkin: Konsepsiyaning amalga oshirilishi natijasida 2030-yilda

Orol dengizining qurigan tubini O'zbekistondagi qismida o'rmonzorlar maydonini uning jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkazish;

qishloq xo'jaligida suv resurslarini yo'qotishni 10 foizga kamaytirish;

qishloq xo'jaligida suv iste'molini (solishtirma gektarga nisbatan)

15 foizga kamaytirish;

oqava suvlarini tozalash samaradorligini 80 foizgacha oshirish;

atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini 10 foizga kamaytirish;

transport vositalarining 80 foizini metan yoki propan yoqilg'isi va elektr energiyasida ishlashga o'tkazish;

o'rmonzorlar bilan qoplangan o'rmon fondi hududini 4,5 mln gektargacha kengaytirish;

IV toifadagi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar maydonini 12 foizgacha kengaytirish;

Qizil kitobga kiritilgan va pitomniklarda parvarish qilingan chiroyli tuvaloqlarni tabiatga qo'yib yuborishni yiliga 4000 gacha ko'paytirish;

aholini qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib ketish xizmatlari bilan 100 foiz qamrab olish;

hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini

65 foizgacha ko'paytirish;

alohida xususiyatga ega chiqindilar (tarkibida simob bo'lgan chiqindilar, avtoshinalar, akkumulyatorlar, ishlatib bo'lingan moylar, qadoqlar chiqindilari va boshqalar)ni qayta ishlash hajmini 30 foizgacha ko'paytirish kutilmoqda. [5]

Mamlakatimizda qabul qilinayotgan qaror va farmonlar ijrosini ta'minlash maqsadida har bir ongli inson o'z oldiga ekologiyani saqlab qolish undan to'g'ri maqsadlarda foydalanish kabi vazifani qo'ymog'i lozim. Buning uchun avvalo quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz. (Farg'ona shahri misolida.)

1.Farg'ona shahri ichiga yuk avtomashinalarini kirishi va harakatini cheklash, halqa yo'llarini kengaytirish;

2. Farg'ona shahri markazida yagona ekologiya ilmiy markazini tashkil etish, tabiatni muxofaza qilish qo'mitasi, sanitariya-epidimiologiya markazlari, gidrometeorologiya markazi hamda oliy o'quv yurtlari ilmiy laboratoriyalari bilan uzviy bog'liqlikni yo'lga qo'yish;

3. Farg'ona viloyati atmosfera xavosi, tuprog'i, suv xavzalarini sistemali monitoring qilishni amalga oshirish;

4.Aholi, maktablar, oliy o'quv yurtlarida ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyatni shakllantirish borasida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini sistemali yo'lga qo'yish;[1,40-43 bet]

5.Atrof muhit tozaligi to'g'risida keng jamoatchilikka ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlar berib borish;

6.Chiqindi suvlarini tozalash uchun suv tozalash inshootlarini xajmini oshirish;

7.Kimyodarslarida mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holatda ekologik ta'lim va ekologik tarbiyaning ahamiyatini sistemali olib borish;

8.Ekologik ta'lim va ekologik tarbiyaning mohiyatini to'la ochib berish;

9.Maktab va oliy o'quv yurtlari pedagoglariga ekologik ta'lim va ekologik tarbiya berish yo'llarini ishlab chiqish va kengaytirish.

Masalan, Kimyodarslarida Uglerod va uning birikmalari mavzusini o'rganuvchilarga chuqur singdirishda turli ekologik mazmundagi ma'lumotlarni berish orqali amalga oshiriladi. Har yili atmosferaga 4 mln tonnaga yaqin zararli moddalar tashlanadi, shularning yarmi Uglerod oksidlariga, 15% uglevodorod chiqindilariga, 14% Oltingugurt oksidlariga, 9% Azot oksidlariga, 8% qattiq moddalarga, 4% ga yaqini o'ziga hos o'tkir zaxarli moddalarga to'g'ri keladi. Metallar, qotishmalar, metallar korroziyasi mavzusi o'rganilayotganda metallar va ular birikmalarining atrof-muhitga ta'siri, og'ir metallar bilan biologik manbalarni ifloslanishi kabi tushunchalar berib boriladi. Bitta yengil avtomobil yil davomida havoga 1 kg Qo'rg'oshin birikmalarini chiqarishi mumkin. Og'ir metallar inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Cho'yan va po'lat eritish jarayonida atmosferaga bir necha xil gazlar ajralib chiqadi. Masalan, 1 tonna cho'yan ishlab chiqarish uchun atmosferaga 4,5 kg chang, 2,7 kg SO₂, 0,1-0,6 kg marganes birikmalari ajraladi. Shuning uchun metallarni isrof qilmaslik, metallar yig'ish, ularni vaqtida

topshirish, ishchi xodimlarni ekologik madaniyatini rivojlantirish, zavod va korxonalar atrofini ko'kalamzorlashtirish, himoya zonalarini tashkil etish lozim.

Atrof muhitni muhofaza qilishni nazarda tutib oilada, barcha ta'lim dargohlarida, mahallalarda, jamoat joylarida ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish, undagi mavjud tiriklikni avaylab asrash, vatan ravnaqi, el-yurt obodligi va farovonligi yo'lida fidoiylilik bilan mehnat qilish zarurdir.

Ekologik ta'limning asosiy maqsadi-faol hayotiy pozitsiya asosida ekologik ong va tafakkurni shakllantirishdir. Ekologik ongning uyg'onishi insonning Yerdagi rolini anglashi bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi vaqtda texnologik taraqqiyot, jamiyatning urbanizatsiyasi tufayli inson biosfera doirasida o'zini va atrof-muhitni bir butun sifatida his qilishni to'xtatdi.

Ekologik ta'lim uchun dasturda nazarda tutilgan insonning atrof-muhitga ta'sirining mohiyatini baholash bo'yicha joylarda ish olib borish muhimdir. Ular asosida o'quvchi va talabalarda tabiatdagi o'z xulq-atvorini, boshqa odamlarning xatti-harakatlarini to'g'ri, tanqidiy baholash, tabiat va jamiyat qonunlariga mos keladigan xulq-atvor yo'nalishini tanlash odatini shakllantiradi. Qoidalarni bilish va ularga rioya qilish ekskursiyalar, turistik va o'lkashunoslik sayohatlari paytida tabiatdagi xatti-harakatlar ularning ahloqiy fazilatlarini shakllantirish darajasidan dalolat beradi. Ekologik tarbiya va ta'lim bosqichlari, o'quvchi va talabalarining yosh imkoniyatlari, ijtimoiy va tabiiy muhitning real sharoitlari-bularning barchasi o'quvchi va talabalarining tabiatga bo'lgan munosabatlarining xarakterini belgilaydi.

Ekologik tarbiya asossiz bo'lmasligi uchun ekologik ongni shakllantirish zarur. Ekologik bilimli shaxs muayyan xatti-harakatlar tabiatga qanday zarar keltirishini bilib, bu harakatlarga munosabatini shakllantiradi va ularning qonuniyligi masalasini o'zi xal qiladi. Agar inson ekologik jihatdan tarbiyalansa, ekologik xulq-atvor me'yor qoidalari mustahkam poydevorga ega bo'ladi va shu shaxsning e'tiqodiga aylanadi. Ekologik aloqalar bo'yicha material yangi materialni o'rganishga bag'ishlangan darsning ham, umumiy darsning ham mazmunining majburiy elementi bo'lishi kerak. Tabiatshunoslik darslarida ma'lum bilimlar tizimini olgan holda o'quvchi va talabalar tabiatdagi ekologik xulq-atvor normalari va qoidalarini ham o'rganishlari mumkin, chunki ekologik ta'lim orqali tabiatga ma'suliyatli munosabat tarbiyalanadi. Ammo ekologik ta'lim shartlari hisobga olinmasa, xulq-atvor normalari va qoidalari yomon o'rganiladi.

Birinchi eng muhim sart-ekologik o'lkashunoslik materialidan foydalangan holda, o'quv materialining alohida elementlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqich murakkablashishi va chuqurlashishini hisobga olgan holda tizimda amalga oshirilishi kerak.

Ikkinchi ajralmas shart-talabalar mahalliy tabiiy resurslarni muhofaza qilish bo'yicha ular uchun mumkin bo'lgan amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari kerak. Bunday holatlar ko'p: bu ta'lim muassasasining ichki va tashqi bog'dorchiligi, maydon, gulzorlarni parvarish qilish, o'tloq va daraxt va buta o'simliklarining mevalari urug'larini yig'ish, o'lik daraxtlarni tozalash, qushlarni himoya qilish va oziqlantirish, homiylik qilish, ona yurtning o'rganish jarayonida tabiat yodgorliklari va boshqalar.

Shunday qilib, muayyan ekologik aloqalarni ochib berishga asoslangan ta'lim o'quvchi va talabalarga tabiatdagi xatti-harakatlar qoidalari va normalarini o'rganishga yordam beradi, bu xar bir o'quvchi va talabaning ongli va mazmunli e'tiqodi bo'ladi. [4]

Yuqoridagi belgilab olingan maqsadli rejalar faqatgina Farg'ona shahri misolida emas balki keng qamrovli bo'lmog'i lozim va buni Maktabgacha ta'lim muassasalari, O'rta maktab va Oliygozlarda tarbiya va tahsil olayotgan o'sib kelayotgan yosh avlodni ongiga singdirishimiz ularga ekologik ruxda ta'lim va tarbiya bermog'imiz lozim. Ayniqsa Oliy ta'lim soxasida turli mutaxassisliklar bo'yicha talim olayotgan talabalar ertaga xalq xo'jaligining turli sohalarida faoliyat yuritadilar va albatta salohiyatlaridan kelib chiqib o'z faoliyatlarida tabiatga turli ta'sir ko'rsatadilar. Shu jihatdan barcha talabalar o'z hududini ekologik holatini bilishi, ekologik ruxda ta'lim va tarbiya olgan bo'lishlari, millatimiz urf odatlarini bilishi, qadrlashi, hayotda unga amal qilishi lozim. Yoshlarga berilayotgan ekologik ta'lim va tarbiya o'rganilayotgan o'quv materialining mazmuni bilan uzviy bog'langan va unga asoslangan bo'lmog'i kerak. Shuningdek, yoshlarda ekologik tushuncha va ekologik madaniyatni shakllantirish o'qituvchining pedagogik mahoratiga yani pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, materiallarni qanchalik o'zlashtirishiga va boshqa omillarga bog'liq.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish joizki, Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni, talabalarni tabiatni e'zozlash, uning tabiiy boyliklarini asrab avaylab, ko'paytirish yo'llarini o'rgatish orqali ekologik bilimlarni boyitish va shu asosida ekologik tarbiyani kuchaytirish orqali tabiatga ma'suliyatli munosabatni rivojlantirish va shakllantirish mumkin bo'ladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. X.D.Xamralieva, S.M.O'rmonov "Farg'ona viloyati atmosfera havosini ifloslanish darajasi va ekologik holati".Geografiya va ekologiya fanlar tizimining dolzarb muammolari va ularning yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.2022-yil 13-14 aprel.(40-43 bet)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar straregiyasi to'g'risida"gi farmoni. //Xalq so'zi, 08.02.2017y.№28(6722)
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi 434-sonli qarori.
4. I.U.Urazbayev,N.K.Masharipov,U.L.Gaziyev,M.Jo'rayev "Ekologik tarbiya zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifasi sifatida". Geografiya va ekologiya fanlar tizimining dolzarb muammolari va ularning yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.2022-yil 13-14 aprel.(7-10 bet)
5. "2030-YILGACHA BO'LGAN DAVRDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, (30.10.2019 yildagi PF-5863-son)



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. № S/1 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>

13.00.00 – Педагогика фанлари

Нурматова Насиба Хошимжановна
Преподаватель, Наманганский государственный университет

ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПАТРИОТИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме формирования идеологической компетентности будущих учителей средних школ к реализации патриотического воспитания подрастающего поколения. Основным результатом статьи является система подготовки будущих учителей к осуществлению патриотического воспитания учащихся.

Ключевые слова: патриотизм, идеология, патриотическое воспитание, студент, педагог, гражданство.

Nurmatova Nasiba Xoshimjanovna
O'qituvchi, Namangan davlat universiteti

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI MAFKURAVIY JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'rta maktab o'qituvchilarining yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi mafkuraviy kompetentsiyani shakllantirish to'g'risida so'z boradi. Maqolaning asosiy maqsadi o'quvchilarni vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish uchun bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimidir.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, mafkura, vatanparvarlik ruhi bilan tarbiyalash, talaba, pedagog, fuqarolik.

Nurmatova Nasiba Khoshimjanovna
Teacher, Namangan state university

IDEOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PATRIOTIC EDUCATION OF YOUTH

Abstract. This article is devoted to the problem of the formation of the ideological competence of future secondary school teachers to implement the patriotic education of the younger generation. The main result of the article is the system of training future teachers for the implementation of patriotic education of students.

Key words: patriotism, ideology, patriotic education, student, teacher, citizenship.



<https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N25>

Введение. Современный Узбекистан характеризовался большими изменениями не только в политической, но и в общественной жизни общества. Получив статус нового

суверенного независимого государства, в Узбекистане прошли множество преобразований, в том числе в системе идеологической подготовки молодого поколения и патриотического воспитания. В настоящее время воспитание патриотических чувств, сознания и гражданских качеств у молодого поколения выдвигается в качестве приоритетной задачи. Однако анализ практической деятельности высших учебных заведений Республики Узбекистан свидетельствует о высокой продуктивности проводимых мероприятий на уровне средних школ. Гуманитарные науки имеют дело с проблемой патриотического воспитания, которая включает межсубъективную диссоциацию в содержании патриотического воспитания и является причиной фрагментарности патриотического мировоззрения молодежи. Здесь есть противоречие - отдельная дисциплина не способна обеспечить высокий уровень воспитанности молодого поколения, необходимый для решения проблемы патриотического воспитания в современных условиях, а большое количество предметов порождает дублирование материала, появление междисциплинарных барьеры. Необходимость разрешения этого противоречия предполагает поиск оптимальных путей улучшения содержания патриотического воспитания с целью повышения уровня патриотического воспитания молодежи в современных условиях. [11, 64]

В качестве показателей, характеризующих условие личной готовности к осуществлению патриотического воспитания, можно рассматривать следующие вещи: отношение студента, ученика к обществу, государству, общественно-политические явления, проявляющиеся в его деятельности; знание гражданских прав и обязанностей; наличие гражданско-значимых качеств личности: гражданский долг, гражданская ответственность, личная свобода, социальная активность, патриотизм, национальное самосознание и толерантность, представляющие идеологическую основу деятельности будущих учителей, осуществляющих патриотическое воспитание молодежи.

Поэтому при уточнении ценных ориентиров новой концепции военно-патриотического воспитания было отмечено, что сегодня требуется пересмотр его целевых директив, правильное понимание задач и содержание соответствующей работы. Упомянутые вещи актуализируют необходимость специального идеологического воспитания студентов гуманитарных вузов, которые должны быть организаторами патриотической работы среди учащихся школ.

Помимо эмоционального и активного проявления, патриотизм имеет идеологический аспект, который выражается в убеждениях и взглядах, имеющих ценную основу. Формирование идеологического патриотизма происходит под влиянием личных чувств, которые влияют на дальнейшие жизненные взгляды индивидов, а также под влиянием общественно-политических отношений. Патриотизм как идеология наряду с естественной эмоциональной любовью к Родине включает уважение к своему государству, народу и стремление к его укреплению, чувство нации в целом, несмотря на социальное, культурное, религиозное многообразие общества. [9, 141]

Патриотизм понимается как одно из явлений общественного сознания, которое проявляется в форме патриотического сознания, имеющего три основных уровня. Первый - подсознание, формирующееся в результате эмоционального восприятия различных образов и влияния архетипов Родины. Второй - волевой, провоцирующий

индивида на активные действия, основанные на чувствах; третий, высший уровень осознания патриотизма, идеологический, когда индивид, осознавая принадлежность к определенной общности, работает исходя из убеждений, основанных на патриотических ценностях. [8, 256]

Материал и методы. Методологическая основа исследования: фундаментальные философские положения о социальной сущности личности; системный подход к изучению проблемы патриотизма и процесса подготовки студентов к патриотическому воспитанию молодежи; философские, педагогические, психологические теории о развитии личности, о профессиональной подготовке учителей в системе высшего образования; деятельностный подход в процессе подготовки будущих учителей к патриотическому воспитанию молодежи.

В ходе исследования использовались эмпирические и теоретические методы. Применялись универсальные методы эмпирических исследований: опросы, анкетирование, интервьюирование, тестирование и экспертная оценка.

Теоретические методы: анализ литературы, моделирование, философские, социологические, политологические методы исследования. Основными теоретическими методами были методы анализа и синтеза, индукции и дедукции, аналогии и сравнения, системный и структурный анализ.

Обсуждение. При изучении и определении путей решения проблемы подготовки будущих учителей средних школ к осуществлению патриотического воспитания необходимо уточнить понятие «готовность к внедрению патриотического воспитания» и наполнить его новым содержанием.

Готовность будущего учителя к осуществлению патриотического воспитания следует рассматривать как интегративное качество личности учителя, направленное на формирование основ гражданских качеств личности, в том числе гражданских, социальных, нравственных и профессиональных взглядов, чувств и способностей.

В качестве показателей, характеризующих условие личной готовности к осуществлению патриотического воспитания, следует рассматривать следующие вещи: отношение студента к обществу, государству, общественно-политические явления, проявляющиеся в его деятельности; знание гражданских прав и обязанностей; наличие гражданских значимых качеств личности: гражданский долг, гражданская ответственность, личная свобода, социальная активность, патриотизм, национальное самосознание и толерантность, представляющие идеологическую основу деятельности будущего учителя, осуществляющего патриотическое воспитание молодежи. [3, 43]

Поиск фундаментальных подходов к новой стратегии патриотического воспитания стал в последние годы многосторонним и интенсивным. Философы, социологи, психологи, юристы, физиологи, врачи все активнее подключаются к этой работе. В центре их внимания большое количество проблем, связанных с условиями, особенностями, механизмами развития личности, формирования подрастающего поколения.

Мировоззрение определяет идеологию общества, в том числе идеологию воспитания новых поколений. Только идеология, выражающая важнейшие интересы общества, государства, направленные на решение насущных проблем, может избавить наше сознание от тревожных сомнений, внутренних противоречий, социальной и

политической оппозиции между людьми. Государственная идеология должна представлять совокупность официально признанных доктрин во всех ключевых сферах деятельности общества, основанных на его интересах и ценностях, традициях и перспективах, достижениях, трудностях и проблемах.

Последний анализ ситуации в Узбекистане показывает, что в начале 90-х годов в массовом сознании господствовала либеральная и демократическая идеология, обещающая «... полное процветание и благополучие в случае перехода к «западной» модели социальной ткани и достижения разрушения системы». традиционных ценностей, ориентиров, замены их другими - «универсальными», «цивилизованными» и фактически проамериканскими [7, 208]. Конечно, они не могли прижиться на Узбекской земле. Тем не менее отечественная педагогика была в шоке. Внезапно его теоретические основы были смыты, концепции, которые казались твердыми, были объявлены лженаучными, образовательные функции основных социальных и государственных институтов были нарушены. Обладая откровенно националистической, направленностью, либеральная и демократическая идеология по сути представляет собой нечто иное, как идеологическое оружие уничтожения нашего национального и религиозного сознания».

Таким образом, совокупность ценностей либеральной и демократической идеологии представляет собой типичную модель подавления, замены идеологии поверженного противника с целью создания условий для интеграции «бывшего Советского Союза» в международные структуры «ткань нового мира». С явным провалом «радикальных реформ», беспрецедентным национальным унижением могущественной власти и мощным всплеском радикальных националистических настроений в массах . [6, 152]. О несостоятельности этой по сути, идеологии стало известно. Неудивительно, что оно не стало и не могло стать основой для разработки какой-либо приемлемой и жизнеспособной концепции образования в условиях реформированного общества.

Таким образом, возрождение национального самосознания Узбекистана, реализация созданного многими поколениями духовно-нравственно-педагогического потенциала нашего общества являются доминирующей тенденцией его современного развития и во всех отношениях стремятся к, возможно, более полному восстановлению исторической преемственности, прерванной в XX век с серией разрушительных военных столкновений и сильных социальных катаклизмов. Исходя из логики взаимосвязи и взаимозависимости сфер, связанных с образованием социальных групп, обществ и личностей, можно отметить, что тенденция патриотизации Узбекской идеологии, безусловно, предполагает и патриотизацию образования. Поэтому, во-первых, вопрос о необходимости патриотического воспитания в современных условиях звучит более риторически.

Результаты. Узбекскую идеологию образования можно рассматривать как систему формирования основного культурного и социокультурного богатства, которое официально имеет национальный статус и поддерживается гражданами общества. Современная образовательная стратегия должна основываться на формировании и развитии в молодежи прежде всего духовно-нравственных ценностей, гуманности, свободы, демократии, трудолюбия, справедливости, гражданского сознания,

патриотизма и некоторых других. Это направление подготовки будущих учителей должно быть связано с такой составляющей формирования их ценностно-патриотического мировоззрения, как идеологическая компетентность понимания образовательных идеалов, на которой складывается целостная система патриотического формирования взросления. личность основана.

Формирование такой компетенции нашего экспериментального опыта связалось с организацией специального научно-методического семинара и практикума по разработке школьных программ, а также научно-педагогического класса «Школа как среда патриотического воспитания подрастающей личности». Целью научно-методического семинара для будущих учителей было изучение и правильное расстановка акцентов в понимании тезиса Национальной программы и Концепции патриотического воспитания граждан Республики Узбекистан и путей их реализации в школе. практика обучения. Разработанная программа семинара была рассчитана на 12 часов и включала три раздела:

I. Программа и Концепция «Патриотическое воспитание граждан Республики Узбекистан» как основополагающие документы в развитии личностных качеств патриотического гражданина в условиях комплексного школа.

II. Научные и методические основы разработки школьных программ военно-патриотического воспитания юных граждан Узбекистана.

III. Технологии воспитания военно-патриотической направленности у учащихся общеобразовательных школ. Давайте более подробно представим, как модули содержания были представлены на этом семинаре, в котором приняли участие студенты экспериментальных групп. Во-первых, мы покажем, в чем заключается общая актуальность организации этой формы обучения и воспитания студентов педагогического университета.

I. Организация специального научно-методического семинара.

